

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

TURSUNOVA GAVXAR BEGMURODOVNA

**ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI
KO‘CHIRISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI
(XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshilari)**

Samarqand – 2024

UO'K 94(575.112+470)"XIX/XX"
KBK 63.3(50'+2)

T 91

Tursunova G.B.

Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) [Matn] Monografiya / G.B. Tursunova ; muharrir A.M. Mustafoyev .-Samarqand: Samarqand, 2024.-132 b.

Tuzuvchi:

Tursunova G. B. – Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Taqrizchilar:

A.M. Xasanov -Qarshi Davlat Universiteti, tarix fanlari doktori, professor

A.N. Maxmudova - Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor.

Ushbu monografiya XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirish siyosati va uning oqibatlari haqidagi ma'lumotlardan iborat. Muallif ko'rsatilgan davr tarixiy-madaniy jarayonlarni o'ziga qadar olib borilgan tarixiy-ilmiy tadqiqotlar, ayrim arxiv manbalari asosida yoritib bergan. Monografiyada Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi strategik maqsadlari, Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirish siyosatining dastlabki bosqichi va uning mustamlakachilik mohiyati, Rossiya imperiyasi tomonidan aholini Sirdaryo viloyatiga ko'chirish siyosatining ommaviy tus olish sabablari va buyuk davlatchilik mohiyati, Ko'chiruvchilik siyosatining Sirdaryo viloyati mahalliy xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri, Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi ta'lim sohasidagi siyosati, Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi sog'liqni saqlash tizimidagi siyosati kabi masalalar chuqur tahlil qilinib, ilmiy muomalaga kiritilgan.

Monografiya tarixchi o'qituvchilar, doktorantlar, magistr va bakalavr talabalar, umuman, O'zbekiston tarixi bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9910-771-98-9

© Tursunova G. B. 2024-yil.

© Samarqand 2024-yil.

KIRISH

Jahonda bugungi kunda globallashuv tendensiyalari ta'sirida millatlararo, davlatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlari, o'tmishda yonma-yon istiqomat qiluvchi xalqlarni ijtimoiy-iqtisodiy va o'zaro madaniy ta'sir masalalarini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Lekin, shular barobarida har bir xalq va millatlarning o'zini taraqqiyot yo'li, o'ziga xosligi, asrlar davomida turmush sharoitlari, urf-odat va an'analarini saqlanayotganligi hamda bugungi globallashuv sharoitida moziyga murojaat, o'zlikni anglash tushunchalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgan vaqtda O'zbekiston tarixini bilishga e'tibor kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda jahonda aholini ko'chirish bilan bog'liq ko'plab ilmiy tadqiqot institutlari va markazlar faoliyat yuritmoqda. Bunga BMTning aholishunoslik fondi (YUNFPA), YUNESKO qoshidagi ipak yo'li dasturi doirasidagi Markaziy Osiyoni o'rganish bo'yicha xalqaro institut (IICAS), Jorj Vashington Universiteti qoshidagi Markaziy Osiyoni o'rganish Dasturi – CAP (AQSH), Rossiya, SHarqiy Evropa va Evroosiyo tadqiqotlari markazi (Michigan, AQSH), Urush va tinchlikni yoritish instituti - IWPR (Buyuk Britaniya, AQSH), Markaziy Osiyoni o'rganish bo'yicha Evropa jamiyati (ESCAS), Rossiya ijtimoiy fanlar tadqiqot institutlari assotsiatsiyasi (RANION) tarkibidagi Er tuzish va aholi punktlari instituti va boshqa tadqiqot markazlarini kiritish mumkin.

Yangi O'zbekistonda turli davrlarida kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Rossiya imperiyasi davrida Turkiston, jumladan, Sirdaryo viloyatining XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida kechgan tarixiy voqealarni o'rganish, imperiya tomonidan viloyatda amalga oshirilgan rusiyzabon aholini ko'chirish siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jamiyat hayotiga ta'siri masalalarini tadqiq etish dissertatsiyaning zaruratini ko'rsatadi.

XX asr boshilarida Rossiyadagi agrar islohotlar jarayonida dehqonlarni mustamlakalarga ko'chirish avj olgan bir paytda, aholini ko'chirish siyosati masalalari bilan aloqador asarlarning soni ayniqsa, ko'paydi. A.F.Kostenko, I.Geyer, A.N.Vasilchikovlarning asarlarida Turkistonni, jumladan, Sirdaryo viloyatini mustamlakaga aylantirish borasida Rossiya amaliyotida bo'lgan qonunlarni, fuqarolikni, er mulkchiligini o'lkada joriy etish zarurligi ko'rsatilgan. N.S.Likoshin, A.I.Komarov, V.P.Vomnin, A.A.Isaev, E.A.Yashnovlar Rossiyadan Turkistonga – jumladan, Sirdaryo viloyatiga aholi ko'chirilishi siyosatini qo'llab-quvvatlagan holda amaliyotda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni, hatto xo'jalik jihatidan ta'minlagan krestyan (dehqon) larning salmog'i pastligini yoritib bergan. A.Middendorf va V.Nalivkin Sirdaryo viloyatida tub millatli aholining savodxonligi yuqori darajada ekanligini, maktab va madrasalarning ko'pligini, ularda diniy ta'lim bilan birga bir qator dunyoviy fanlar bo'yicha ham bilim berilayotganligini o'z davridayoq qayd etishganligini ilmiy asosda o'rganish va tahlil etish, monografiya sifatida chop ettirish muhimdir.

I - BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATINI MUSTAMLAKAGA AYLANTIRISHI VA AHOLINI KO'CHIRISH SIYOSATIDAGI ROLI

1.1. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi strategik maqsadlari.

Tarixdan ma'lumki, Rossiya imperiyasi tomonidan XVIII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr boshlarigacha Kavkaz, Sibir, Uzoq Sharq hududlari siyosiy-iqtisodiy va geostrategik va boshqa maqsadlarda bosib olingan va rusiyzabon aholi joylashtirilgan edi.

Rossiya imperiyasi uchun navbatdagi maqsad boshqa da'vogarlariga o'rin qoldirmay zudlik bilan Turkiston o'lkasini bosib olish, o'lkadan xomashyo manbai, bozor va boshqa maqsadlarda foydalanish, umuman, uni asoratga solish edi. Chunki, XIX asr o'rtalarida Rossiya hukumatining mustamlakachilik intilishlarining kuchayishi, asosan, rivojlanayotgan kapitalizmning yangi xomashyo va savdo bozorlariga bo'lgan ehtiyojlari bilan izohlanardi. SHuni ta'kidlash o'rinliki, yangi, boy, lekin harbiy jihatdan zaif bo'lgan tutash hududlarni bosib olishga intilish asrlar davomida Rossiya tashqi siyosatida muhim o'rin egallab kelgan.

Turkiston tarixi bo'yicha mutaxassis A.V.Pyaskovskiy Rossiya aholisining bir qismini mustamlaka Turkistonga ko'chirilishi siyosati va amaliyotini tahlil qilmagan holda, ushbu ko'chirishdan manfaatdor bo'lgan rossiyalik kapitalistlar tabiatini juda aniq tavsiflab bergan. "Turkistonda rus burjuaziyasining eng yirtqichlashgan unsurlari – bo'ysundirilgan xalqlarni ekspluatatsiya qilib tez boyib olish uchun yangi bosib olingan mamlakatga intilgan savdogarlar, sudxo'rlar, komissionerlar, turli xil vositachilar hamda olibsotarlar va boshqalar ish olib borishardi", - deb yozgandi¹.

1721 yildan boshlab imperiya deb atala boshlangan Rossiya davlatining tashqi siyosati shakllanishida iqtisodiy manfaatlarining ham ahamiyati kam bo'lmagan. Biroq, kapitalistik xo'jalikning mineral va qishloq xo'jalik xom-ashyosiga² hamda

¹ Пясковский А.В. Революция 1905-1907 годов в Туркестане.-М., 1958, С. 48.

² O'sha asar B. 40.

Rossiya mahsulotlarini sotish uchun bozor topish ehtiyojini qondirish masalasida imperiyaning hukmron doiralari, sarmoya egalari bo‘lakcha ish tutishi lozim edi va shunday qila olishardi ham. Bu davrda Rossiya “kapitalizm”i zaif rivojlanayotgan bo‘lib, krepostnoylik huquqi bekor qilingach esa, bu rivojlanish birozgina kuchaydi.

Rossiya “kapitalizm”ni rivojlantirish uchun bu davrda begona hududlarni egallashga intilmasa ham bo‘lardi. Fikrimizcha, chunki u barcha zarur omillarga, xususan, temir rudasi, rangli metall, shu jumladan, oltin, o‘rmon, kema suzadigan daryolar, dengiz va okean bag‘riga chiqish yo‘llariga, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligiga, etarli darajada mehnat zaxiralariga, ulkan ilmiy salohiyatga hamda jahondagi ko‘p mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalariga ega edi. Faqat imkoniyatlardan oqilona foydalanishi zarur edi. Bu jihatdan, Rossiya hukumati hamda kapitalistlar qator G‘arbiy Yevropa mamlakatlarining, shu jumladan, tabiiy zaxiralarga ega bo‘lmagan Yaponiyaning mustamlakachilikdan oldingi tajribasini o‘zlashtirishlari mumkin edi.

O‘rganilayotgan davrda yoki keyingi o‘n yilliklarda ham Rossiyada aholining asosiy ko‘pchiligi kambag‘allik darajasiga etib qolgandi. Shu sababli, agar bu ulkan mamlakatda boshqaruv tizimi tuzilishiga ko‘ra emas, balki siyosiy tabiatiga ko‘ra harbiy-feodal tizimi bo‘lmaganida, kapitalistik rivojlanish ne‘matlari rossiyaliklarga farovonlik keltirgan bo‘lardi. Shunda boshqa hududlardagi tub xalqlarni talash, zulm o‘tkazish hisobiga farovon hayot qurish uchun ko‘plab aholini bosib olingan o‘lkalarga ko‘chirishga to‘g‘ri kelmasdi. Albatta, bu fikrlar faqat mulohaza, shunda ham taxminiy, xolos. Rossiya qishloq xo‘jaligi allaqachon tovar xo‘jaligiga aylangan, asrlar davomida bo‘sh yotgan, lekin ishlov berishga yaroqli er juda kam edi.

XIX asr o‘rtalariga kelib, imperiya ma‘muriyati Turkiston o‘lkasini bo‘ysundirish, mustamlakaga aylantirish, kelajakda imperiyaning bir qismi sifatida ko‘rish uchun faol harakatlarni amalga oshira boshladi. Rossiya imperiyasi tomonidan bu davrgacha qirg‘iz va qoraqirg‘iz (qozoq)larning ulkan xududlarining katta qismi bosib olingan edi.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga harbiy harakatlari 1853-1856 yillarda Qrim urushi tufayli to'xtab qoladi. Rossiyaning bu urushda mag'lubiyatga uchrashi Rossiya iqtisodiyoti, xususan, uning sanoati naqadar nomukammal va zaif ekanligini ko'rsatdi.

Mazkur mag'lubiyat Rossiya hukmron doiralarini e'tiborini sharqqa qaratishga undadi. Bu davrga kelib imperiya nazarini Sirdaryo bo'ylaridagi xududlarga qaratadi va birin ketin Oqmachit (1853 yil), Pishpek, To'qmoq, Yangiqo'rg'on (1860-1861 yil), Avliyoota, Turkiston, Chimkent (1864 yil)ni bosib oladi. 1864 yilda Perovski fortidan To'qmoqgacha bo'lgan xududlar egallanib, Sirdaryo bo'ylab yangi Qo'qon liniyasi barpo etiladi³.

Rossiya imperiyasi uchun Sirdaryo hududlari iqtisodiy, siyosiy va ayniqsa strategik jihatdan juda muhim edi. Dastlabki davrlarda bosib olingan Sirdaryo bo'ylari imperiyaning Turkiston siyosatida jumladan, boshqa hududlarni bosib olishda, aholini vaqtincha saqlash, taqsimlash, viloyatlarga rus aholini ko'chirish va boshqa maqsadlarda tayanch zona vazifani o'tadi. Jumladan, Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan Sirdaryo bo'ylarida Oqmachit, Qazallida fort (qal'alar)ni qurilishi imperiyani Turkistonga yaqinlashtirdi, qo'shinlarni katta qismini bu hududda saqlashga imkon berdi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Qo'qon xonligining katta qismi, xususan Toshkent (1865 yil) shahrini bosib olinishi bilan birinchi navbatda ma'muriy-boshqaruv, hududiy va chegaraviy masalalar dolzarb bo'lib qoladi. Orenburg general-gubernatori N.A.Krijanovskiy Toshkentni mustaqil xonlik sifatida tashkil etib, u erda Rossiya prorektoratini o'rnatishni, keyinroq esa, Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi Turkiston va Toshkent viloyatlarini tuzish taklifi bilan chiqadi.

1865 yil 2 martda Orenburg general-gubernatorligi tarkibidagi Turkiston oblasti tuziladi va bosib olingan hududlarda imperiyaning ma'muriy, boshqaruv tizimi o'rnatiladi. Bu davrda Qo'qon xonligining Sirdaryo bo'ylari va Toshkent

³ Исхаков Ф. Центральная Азия в Россия в XVIII – начале XX веков. Ф.Исхаков: отв. ред. Х.Г.Гуломов – Ташкент. “O'ZDAV MATBUOTLITI” MCHJ, 2009. С.144

hududlari bosib olingan, Turkiston o'lkasining markaziy va janubiy-g'arbiy hududlarini egallash uchun harbiy harakatlar borayotgan edi.

Rossiya imperiyasi davriga oid tadqiqotlar materiallari imperiya tomonidan Turkistonning istilo etilishi uzoqni ko'zlagan strategik maqsadlardan biri bo'lganligidan dalolat beradi. Chunonchi, imperiyaning taniqli arbobi, endigina Orenburg general-gubernatori lavozimiga tayinlangan general N.A.Krijanovskiy 1866-yil 23-dekabrda Rossiya imperiyasi kansleri knyaz A.M.Gorchakovga (29 ta ilovasi bo'lgan 17 varaqdan iborat) batafsil maktub jo'natgandi. Ushbu maktubdan ko'p ma'noda tushunsa bo'ladigan birgina mulohazani keltiramiz (ruschadan dissertant o'giran): ...3) *«Kuzgi ekspeditsiya natijalari Siz, janobi oliylariga, ma'lum. Jizzax va uning vohasini egallagach, doimiy xavf bo'lganligi uchun Samarqanddan uch yurishlik masofada turibmiz hamda O'rta Osiyoning sharqiy yarmini, ya'ni Buxoroliklar, Xivaliklar, Turkmanlar va boshqalarni Qo'qonliklar va Dunganlardan batamom ajratib qo'yganmiz. Nihoyat, Qo'qonning Buxoro tomonidan keladigan madadga bog'lagan umidini barbod qilib, uni omonlikni faqat rus hukumatidan kutishga majbur qilmoqdamiz. Loqaqal rus mulkining G'arb tomonidan mustahkam va tabiiy chegaraga ega bo'lganimiz, shuningdek aholi yaxshi joylashgan va etarli darajada boy ikki provinsiyamiz borligi haqida esa gapirmay qo'ya qolay»*⁴.

Ko'rinib turibdiki, ilk pallada qozoqlarning hududlarini, Qo'qon xonligining bir qismini bosib olishni vazifa qilib qo'ygan Rossiya imperiyasi, aslida, ikki yilga etmay Qo'qon xonligini va ko'p jihatdan Buxoro amirligi taqdirini hal qildi. Lekin Zarafshon okrugi harbiy boshlig'ining 1868 yil 17 mayda Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanga yo'llagan ma'ruzanomasida bayon etilgan yana bir g'oyat muhim mulohazani ham ko'rish lozim. Unda, xususan, «ruslarning O'rta Osiyodagi hukmronligining jadal kuchayib borayotgani butun Evropaning, ayniqsa, Angliyaning e'tiborini o'ziga qaratdi. Balki u, basharti Rossiya bilan to'qnashib qolsa, Rossiya o'zining Sirdaryo va Movarounnahrda ahvolidan qo'shinlarni Hindiston (ma'ruzanomada Ost-Indiya–G.T.) tomon surib borishi

⁴ O'zMA, I-1 fond, 34-ro'yxat, 1-yig'ma jild, 14 varaq.

uchun foydalanishidan cho‘chiyotgani asossiz bo‘lmasa kerak. Surishtirib olingan ma’lumotlar Hindiston tomon yo‘l ilgari Balx, Hirot va Yorkentdan Peshovar, O‘rta Hindiston (ma’ruzanomada – Sredniy Ind – G.T.) va Kashmir tomon bo‘lgan yo‘lda uchragani singari engib bo‘lmas darajada mashaqqatli emas ekanligini ko‘rsatmoqda. Binobarin, Angliyaning Hindistondan O‘rta Osiyo tomon katta karvon yo‘li yo‘nalishi bo‘yicha biz erishgan har bir yutuqdan tashvishga tushishi tushunarli»⁵ - deyilgan.

Imperiyaning o‘zida tub millati xalqlar ko‘rgan ko‘p minglab qurbonlar, ularning taqdiri hech kimni tashvishga solmasdi. Aksincha, kapitalistik rivojlanishni jadallashtirish, Rossiyadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni tub aholi, uning mehnati mahsuli, Turkistonning, Kichik va O‘rta juz qozoq hududlarining tabiiy boyliklari hisobiga hal qilishga qaratilgan yangi mustamlakalar bilan bog‘liq bo‘ldi. SHunday ekan, Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishining bosh siyosiy, strategik maqsadi - bu erda Hindiston tomon siljib borish uchun tegishli sharoitlarni barpo etish bo‘lgani holda, butun O‘rta Osiyoning harbiy-strategik ahamiyati, qolaversa mavjud boyliklari haqida yaxshi ma’lumotga ega bo‘lgan imperiya oliy doiralari bu erda o‘z hukmronliklarini mustahkamlashga qaror qildilar. Buning uchun esa, kuchli armiya va keng tarmoq otgan politsiya tizimidan tashqari, rus, umuman, xristian aholidan iborat ishonchli tayanchni yaratish kerak edi.

Mustamlakachilik tashabbuschilarning yoki davlat, siyosiy rahbarlarining fikricha, buni tub aholisi 5 million kishiga yaqin bo‘lgan Turkistonda amalga oshirish ayniqsa zarur edi. Bu eng avvalo, Roosiya imperiyasining aholini ko‘chirish siyosatini yuzaga keltirdi. 1861-yilda kelib krepostnoylik huquq yarimchala bekor qilinganidan keyin Rossiyada qishloq aholisi ko‘payib ketgani muammosi haqiqatdan ham yuzaga kelgan edi, Rossiyaning keng hududida uning mehnatidan foydalanish uchun joy kerak bo‘lganidan ham mo‘l edi. Fikrimizcha, shuning uchun ham imperiya turli amaldorlarining asarlarida keltirilgan O‘rta Osiyoni bosib olishdan, Turkiston va keyinroq, Dasht general-gubernatorliklarini

⁵ O‘zMA, I-1 fond, 34-ruyxat, 1-yig‘ma jild, 11 varaq

tuzishdan ko‘zlangan maqsad bu erga Rossiyaning markaziy guberniyalaridan ortiqcha qishloq aholisini ko‘chirib keltirish zarurati bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi buyuk davlatchilik mazmunidagi fikrlari ancha asossiz ko‘rinadi.

Rossiya uchun mazkur mintaqani bosib olishdagi siyosiy va harbiy maqsadlar ustun bo‘lganligi 1866 yildayoq imperiya kansleri A.M.Gorchakovga Orenburg general-gubernatori yozgan va yuqorida keltirilgan maktubda, keyinchalik esa imperiyaning ko‘plab yuqori martabali amaldorlari tomonidan yozilgan maktublarda, hisobotlarda ham alohida ta’kidlangan edi. Masalan, senator graf K.K.Palen bunday deb yozgandi: «Agar Turkistonni bosib olishda ahamiyatli bo‘lgan siyosiy tusdagi sabablarni (ta’kid bizniki – G.T.) hisobga olmasak, ushbu o‘lka Rossiyaga qo‘shib olingan ilk kunlardan boshlaboq rus hukumatida ikki yoqlama: 1) moliyaviy siyosat nuqtai nazaridan davlat daromadlari manbai sifatida hamda yangi bozor sifatida va 2) mustamlakachilik siyosati nuqtai nazaridan guberniyalardagi ortiqcha aholini ko‘chirish uchun yangi hudud sifatida qiziqish uyg‘otdi»⁶.

Imperiya hukumatining va mustamlaka ma’muriyatining aholini ko‘chirish siyosati bilan Rossiyaning qator guberniyalaridagi agrar aholi ko‘payib ketishi «muammosi»ning o‘zaro aloqadorligini asoslash uchun siyosatchilar, ba’zan tadqiqotchilar keltirgan dalil-isbotlar orasida metropoliya bilan mustamlakalar, shu jumladan, Turkiston hududlari tutashligi, Rossiyaning aholisi uning jami mustamlakalari aholisidan ham ancha ortiqligi ko‘rsatilgan. Bizning nazarimizda, ko‘proq bahonaga o‘xshaydigan birinchi dalil ancha ishonarli bo‘lib ko‘rinadi. Chunonchi, agar Rossiyaning o‘z aholisi uning mustamlakalari imperiyaga bo‘ysunuvchi Polsha va Finlyandiya aholisidan 4 baravar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, u holda, masalan, Fransiya mustamlakalari aholisining soni metropoliya aholisi sonidan 1,5 baravar ko‘proq edi. Buyuk Britaniya mustamlakalari aholisining soni

⁶ Пален К.К. Приложение к отчету о ревизии Туркестанского края. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Ч. I, отд.4.-Спб., 1911. С.-496.

metropoliyaning aholidan 9 baravar ko'p edi. Rossiyada faqat Markaziy sanoat, Janubiy kon-sanoat, Peterburg va Boltiqbo'yi mintaqalarida aholi zich edi⁷.

Asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan guberniyalarda esa aholi juda kam bo'lgan. Sibir va Uzoq SHarq haqida esa gapirmasa ham bo'lardi. Lekin bu haqda rasmiy hujjatlarda ham, asarlarda ham kam eslanar edi. Binobarin, ta'kidlash mumkinki, Rossiya hukmron doiralarning aynan imperiyacha, bosqinchilik manfaatlari XIX asr o'rtasida hamda keyingi yillar davomida har qancha ortiqcha aholini Rossiyaning o'z hududida oqilona joylashtirishga to'sqinlik qildi. SHunday bo'lmaganida kelajakda bu mamlakatning o'zi foyda qilgan bo'lardi. SHuningdek, Volga bo'yiga, Shimoliy Kavkazga, Kavkazortining Turkiya va Eron bilan chegaradosh mintaqalariga, Xitoy bilan yondosh qozoq va qirg'izlarning hududlariga kazaklarni, Rossiya fuqarolari bo'lgan boshqa xristianlarni ko'chirib keltirish krepostnoylik huquq bekor qilinishidan, markaziy guberniyalarda qishloq aholisi ko'payayotgani to'g'risidagi xulosalar paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan edi.

Oldindan shuni qayd qilmoqchimizki, Rossiya hukumati Turkistonga va Dasht o'lkasiga metropoliyadan xristian aholini ko'chirib, joylashtirish borasidagi buyuk davlatchilik-shovinistik amaliyotini oqlashga, asoslashga harakat qilib, XIX asr oxirida 5 guberniyada go'yoki, 12 million ortiqcha aholi mavjud ekanligini e'lon qildi⁸.

Keyinchalik Stolipinning agrar islohoti ham shu bilan asoslandi. Vaholanki, hukumat metropoliya aholisini imperiyaga qaram bo'lgan Polshaga ham, Finlyandiyaga ham ommaviy ravishda ko'chirish tadbirlarini amalga oshirmagan edi. Bu shu bilan izohlanadiki, avvalo, Polsha va Finlyandiyaning maqomi butunlay boshqacha edi; ikkinchidan, imperiyaning hukmron doiralari Rossiyaga qaram bu hududlarni uzoq vaqt yo'lda tutib tura olmasliklarini tushunsalar-da, tan

⁷ Гоффоров III.C. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари бўйича докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т-2003., -52 б.

⁸ Российские немцы... М., 1997, №10, С. 65.

olgilari kelmasdi. Kavkaz, Turkiston va Dasht o'lkasi esa abadul-abad bosib olingan, deb tasavvur etilardi⁹.

Rossiya imperiyasining Turkistonga rusiyzabon aholini ko'chirish amaliyotining o'ziga xosligi shundaki pravoslav e'tiqodidagi aholining bir qismini ko'chirib keltirish orqali bu o'lkani ruslashtirish, kelajakda imperiyaning bir qismi sifatida ko'rish va hududdan unumli foydalanish edi. Turkiston o'lkasini boshqarish imperiyaning boshqa hududlarini boshqarishdan siyosiy jihatdan mutlaqo farqlangan. Dasht o'lkasi imperiya Ichki ishlar vazirligi ixtiyoriga berilgan edi, Turkiston general-gubernatorligi esa doimo Harbiy vazirlik ixtiyorida bo'lgan¹⁰. Lekin Buyuk Britaniya, Ispaniya, Italiya, Germaniya, Fransiya Rossiya imperiyasidan farqli ravishda o'z aholisining bir qismini mustamlakalarga ko'chirish amaliyotini qo'llamay (Avstraliyaga, Yangi Zelandiyaga metropoliyadan aholini ko'chirish amaliyoti bundan mustasno), u erlarda harbiy, politsiya bo'linmalarini saqlab turish, tegishli boshqaruv va sud organlarini, nasroniy missionerlik va targ'ibot muassasalarini tuzish bilan cheklangan bo'lsalar, Rossiya hukumati shunday choralar bilan bir qatorda, Turkistondagi hukmronligining qaltisligini anglagani holda, o'lkaga o'z aholisining bir qismini izchillik bilan ko'chirishga harakat qilib, ko'chishni istovchilar orasidan ko'chiriladiganlarni saralab olishga e'tibor bergan.

Turkistonga rus aholini ko'chirish siyosati tashabbuskori, o'lkaning birinchi general-gubernatori K.P.Kaufman, masalan, Ukraina mintaqalaridan kazaklarning ko'chirib keltirilishiga norozilik bildirgan va asosan rus qishloq aholisini ko'chirib keltirishni talab qilgan¹¹. Va nihoyat, aholini Turkistonga ko'chish harakatining turli yillardagi xususiyatlari Turkiston mintaqalarida rus aholini joylashtirish shartlari imperiya hukumati uchun aholini ko'chirish siyosatining harbiy-siyosiy maqsadlari ustun bo'lganidan dalolat beradi. Masalan, manbalardan ma'lum

⁹ Гофоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари бўйича докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т-2003., -53 Б.

¹⁰ Гофоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари бўйича докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т-2003., -53 Б.

¹¹ О'zMA, I-1 fond, 2-ro'yxat, 1905-yig'ma jild, 2-varaq.

bo'lishicha Turkiston general-gubernatorligi tuzilguniga (1867 yy.) qadar, ya'ni, Turkiston o'lkasiga ko'chirishning birinchi bosqichi (1840-1867 yy.)da ko'chiriluvchilar armiya bilan birgalikda va uning ortidan, Rossiyaning deyarli barcha guberniyalaridan, hatto, Sibir, Uzoq Sharqdan ham kelishardi. O'shanda, ya'ni 1840-1867-yillarda YYettisuv, Sirdaryo bo'ylari, Issiqko'lbo'yi, Janubiy Qirg'iziston va qisman Kaspiyorti hududiga, lekin, ayniqsa, shu vaqtda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan va rus lashkarlari bosib olgan hududlarda harbiy, siyosiy va strategik maqsadlarda, asosan harbiylar zich qilib joylashtirildi¹².

O'sha yillarda aholini ko'chirish harakatini tartibga soluvchi biron-bir qoida, hujjatlar bo'lmagani hamda ko'chiriluvchilar ma'muriyat, harbiy kuchning qo'llab-quvvatlashi ostida o'zboshimchalik bilan tub aholidan er, qoramol, mehnat qurollarini tortib olish yo'li bilan joylashgan va boshqaruv tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlangan¹³. Bu borada Turkiston general-gubernatori F.Kaufmanni haqli ravishda dastlabki davrlarda Sirdaryo va YYettisuv viloyatlariga ko'chirish siyosatini tashabbuskori deyish mumkin. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini bosib olgan dastlabki davrlardan 1880-yillargacha o'lkada ko'chirish bo'yicha biror bir hujjat mavjud bo'lmagan. Faqatgina general-gubernatorlikning bu boradagi nizom loyihalari amalda bo'lgan¹⁴.

Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman xo'jalik jihatidan mustahkam rossiyalik dehqonlarni, ko'proq pravoslav ruslarni ko'chirib keltirishga jonbozlik ko'rsatadi. U shuningdek, kazaklarni Yettisuv va Sirdaryo viloyatlari chegera qismlariga, keyinroq esa Kaspiyorti viloyatiga ham, faqat qisman, cheklangan ko'lamda ko'chirish mumkin, deb hisoblagandi. General-gubernatorning 60-yillar oxiri – 70-yillar boshidagi pozitsiyasi yangi hududlarga ko'chishga ko'proq isloh qilingan Rossiya qishloqlarida arzon ishchi kuchini tashkil qiluvchi hamda rivojlanayotgan sanoat ishchilari safini to'ldirayotgan ersiz, qashshoq dehqonlar

¹² O'zMA, I-1 fond, 2-ruyxat, 1905-yig'ma jild, 5-varaq.

¹³ O'zMA, I-1 fond, 2-ruyxat, 1905-yig'ma jild, 11-12-varaq.

¹⁴ Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане (конец XIX – начало XX века) С.26.

moyilligini bilgan, shuning uchun ularning ko'chishiga to'sqinlik qilishga harakat qilgan imperiya hukumatining nuqtai nazariga ko'p jihatdan yaqin edi¹⁵.

O'sha paytdagi imperiya vaziri P.A.Valuev shu munosabat bilan ko'chirish ishiga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurligini, «hukumat qishloq aholisini er bilan bir bor ta'minlagach, bunday ishni davom ettirishga, qimmatli davlat erlarini muvaqqat va tasodifiy ehtiyojlarini qondirish uchun beraverishga o'zini majbur deb hisoblamasligi»ni ta'kidlagandi¹⁶. Biroq o'zboshimchalik bilan ixtiyoriy ko'chib kelganlarning asosiy qismi aynan xonavayron bo'lgan, qashshoqlashgan dehqonlardan iborat edi. Boz ustiga, Rossiya hukumati 1861 yilgi islohotni oxiriga etkaza olishi mushkulligi aniq edi, sanoat esa yangi ish joylari etarli miqdorda vujudga keladigan darajada ko'p tarmoqli va rivojlangan emasdi. Natijada yuz minglab dehqonlar o'zlari rasman jo'natilgan Primorega va Janubiy Ussuriya o'lkasiga emas, balki ortiqcha xarajatlarsiz joylashib olish mumkin deb o'ylagan Turkiston o'lkasiga qarab intildilar¹⁷. Hosilsizlikdan ko'p azob chekayotgan Astraxan, Voronej, Orenburg, Samara va Xarkov guberniyalaridan Turkistonga, ayniqsa, ko'plab kambag'al dehqonlar kela boshlagandi.

Bunday holatda yangi tashkil etilgan Sirdaryo viloyati ko'chib kelganlarni qabul qilishda dastlabki va havfsiz hudud bo'lgan edi. Sababi Turkistonning boshqa hududlarida harbiy harakatlar davom etayotgan hamda mahalliy aholi chiqishlari muntazam ruy berib turardi.

Ko'chib keluvchilarning ikki toifasi mavjud bo'lib, birinchi toifasi ruxsatsiz, hech qanaqa hujjatsiz ko'chib kelsa, ikkinchi toifasi davlat tomonidan yo'l chiptalari, oziq ovqatlar bilan ta'minlagan holda tashkil etilgan. Lekin birinchi toifadagi keluvchilarni ham ortga qaytarish imkoni bo'lmagan. Sababi, ularning aksariyatini qaytar eri yo'q va qaytishga imkoniyati yo'qlar tashkil etgan.

¹⁵ Гоффоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари бўйича докторлик илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. Т-2003., -80 бет

¹⁶ Аминов Б. Формирование населения голодной степи (конец XIX—60-ые гг. XX в.). Диссертации ..., кандидат истории наук – Тошкент. 1970, 280 С.

¹⁷ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX - начале XX в. Ташкент: Фан, 1983. - 28 с..

Ko'chib keluvchilar maxsus tashkil etilgan Toshkent shahridagi ko'chirish saroylarida va Sirdaryo viloyati uezd markazlaridagi ko'chirish punktlarida joylashishi, er-mulk olishini oylab kutishgan¹⁸.

Mahalliy ma'muriyatining o'zboshimchalik bilan ko'chib kelganlarni dastlab belgilangan joylarga jo'natib yuborish borasidagi harakati ko'pincha samara bermasdi va ancha murakkab vaziyat yuzaga kelardi, chunki aholisi zich joylashgan bu hududda mahalliy aholi bilan turli ixtiloflar yuzaga kelar, shuningdek, Turkistonga ko'chib kelgan rusiyzabon aholi bu erning iqlimiga, tabiiy sharoitlarga mutlaqo begonaligi sababli erlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga uchrardi. SHunday blsada, beruxsat ko'chib kelganlar tub dehqonlarning erlarini zo'rlik bilan tortib olib joylashar edilar. Bunday ahvol Turkiston dehqonlarining g'azabini qo'zg'atibgina qolmay, jismoniy qarshiligini yuzaga keltirdi¹⁹.

Mustamlakachi ma'muriyatning ayrim amaldorlari ko'chirib keltirilgan ruslarning qo'pol o'zboshimchaligining oldini olish, bu hodisaning ijtimoiy-siyosiy oqibatlarini yumshatish maqsadida mahalliy aholining qo'lidan ketgan er-mulk o'rnini imkon qadar to'ldirish taklif qilgandi, metropoliyadan dehqonlarni ko'chirib keltirishni bir muncha me'yorida va puxta tashkil etishga harakat qilgandi²⁰.

Bu davrga ko'chiruvchilik harakatining betartibligi, o'zini g'olib hisoblagan ko'chib kelayotganlarning tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga nisbatan bedodligi, ularning aksari ko'pchiligi shaharlarda hamda rus garnizonlari, istehkomlari atrofida joylashganliklari bilan xarakterlidir. Ustiga-ustak bedodlik rus askarlari va zobitlarining g'oyat faol ishtiroki bilan amalga oshirilgandi. Ko'chuvchilarning turli guberniyalardan chiqishi va Turkistonning qaysi joylarida o'rnashib qolishi hali yaxshi nazorat qilinmas va boshqarilmas edi. Bu, eng avvalo,

¹⁸ Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси // Ўзбекистонда урбанизация жараёnlари: Тарих ва ҳозирги замон. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. Токент, 2007. 17-18 бетлар

¹⁹ Зияев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. (XIX асрнинг иккинчи ярми – XXаср бошлари) - Т.: Шарк, 2006. –352 б

²⁰ О'зМА, I-1 фонд, 34-руyxат, 1-yig'ma jild, 6-orqa, 7-varaqlar.

ushbu bosqichda bosib olingan barcha hududlarda mustamlakachi harbiy-ma'muriy boshqaruv organlarining hali tuzilmagani bilan izohlanadi²¹.

Turkistonga ko'chiriluvchilar oqimining buyuk davlatchilik va shovinistik xarakteri hamda ko'lami ko'p jihatdan shu bilan belgilangan ediki, ma'muriy markazi Chimkent shahrida, bosib olingach esa – Toshkent shahrida bo'lgan Turkiston o'lkasi tashkil qilingan 1865 yil 2 martdan boshlab o'lka Orenburg gubernatorligiga qarardi. Orenburg guberniyasi esa Rossiyaning eng yirik guberniyalaridan biri bo'lgan²².

Rossiya imperiyasi ma'muriyati rusiyzabon aholini bosib olingan Turkistonga ko'chirilishini siyosiy, iqtisodiy hamda strategik jihatdan muhim hisoblardi. SHuni qayd etib o'tish kerakki, aholini ko'chirish amaliyotining ayni birinchi bosqichida Turkistonda, birinchidan, Rossiyaning o'lkadagi hukmronligini namoyish qilish, ikkinchidan, rus qo'shinlarining orqa tomonining xavfsizligini ta'minlash, mumkin bo'lgan isyonlarning oldini olish lozim bo'lgan kazaklarning, rus aholining o'lkadagi sonini ko'paytirishga intilish yuzaga keldi va hukumat tomonidan faol rag'batlantirildi.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasi Turkistonga kelib to'xtab qolish bilan kifoyalanishni aslo xohlamagan. SHu bois harbiy «Yangi Qo'qon yo'li» qo'mondoni general M.G.Chernyaev shtabi tomonidan tayyorlangan, istilo etilgan hududlarning harbiy-ma'muriy tuzilishi to'g'risida dastlab ishlab chiqilgan hujjat «O'rta Osiyo chegara oblasti to'g'risida Nizom» loyihasi deb atalgan. Lekin imperiyaning Harbiy vazirligi o'z rejalarini puxtalik bilan niqoblab, bu loyihani qayta ishlagan. Imperator Aleksandr II 1865 yil 6 avgustda «Turkiston oblastini boshqarish to'g'risida muvaqqat Nizom»ni tasdiqladi²³. Bu yangi bosib olingan Turkiston o'lkasining Yettisuv, Sirdaryo hududlaridagi ma'muriy–boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar va imperiyaning strategik maqsadlarini anglatadi.

Turkiston oblasti tarkibiga birinchi yilda Orol dengizidan Issiqko'lgacha, SHarqiy Turkiston chegaralaridan Toshkent vohasigacha bo'lgan hududlar kirgan.

²¹ O'zMA, I-1 fond, 34-ruyxat, 1-yig'ma jild, 6-orqa, 7-varaqlar.

²² O'zMA, I-1 fond, 34-ruyxat, 1-yig'ma jild, 8-orqa, 9-varaqlar.

²³ Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. –Т., 1994. С. 30.

Ta'kidlash joizki, imperiyaning bu oblastga aholini ko'chirish siyosatining dastlabki yillari ko'chirib keltirilgan kazaklarga, ruslarga eng ko'p qulaylik yaratib berish, jumladan, 30 desyatinagacha erlar, qurilish materiallari, mablag' berilishi ularning sonini ko'paytirish davrigina bo'lmay, balki keyinchalik takomillashtirilgan mustamlakachi ma'muriyatning asosiy harbiy-siyosiy va boshqa tuzilmalarini vujudga keltirishning tashkiliy jihatdan yakunlanish davri ham bo'ldi²⁴.

O'rnatilgan hokimiyat tizimi aslida Turkistonda yuzaga kelgan vaziyatni aks ettirardi: Rossiya imperiyasi ulkan hududlarni bosib olgan, tub aholiga har qanday zug'um o'tkazish uchun va uning ustidan nazorat qilish uchun etarli imkoniyatlarga ega bo'lgan edi. Mustamlakachilar tuzgan hokimiyat tizimi 1865 yil 6 avgustdagi «Muvaqqat Nizom...»da «harbiy-xalq boshqaruvi» -deb nomlansada, aslida butun harbiy va fuqarolik hokimiyati Turkiston oblasti Harbiy gubernatori, joylarda esa—harbiy komendant ham hisoblangan bo'limlar boshliqlari ixtiyorida bo'lgan. 1866 yilda yangi zabt etilgan hududlarda Erjar va Zomin bo'limlari hamda O'ratepa, Jizzax rayonlari tuzildi. Jizzax ostonasida mag'lubiyatga uchragandan so'ng 1866 yil fevralida Turkiston oblastining birinchi Harbiy gubernatori general M.G.Chernyaev lavozimidan olib tashlandi va uning o'rniga D.I.Romanovskiy tayinlandi²⁵.

Bu davrga kelib ma'muriy-boshqaruv tizimida birmuncha o'zgarishlar yuz berib, tub aholini boshqarish rus amaldorlari qo'lida edi. Bu boshqaruv mahalliy aholi vakillari mirshab sifatida jalb etilgan politsiya nazorati ham, soliq yig'ish ham, majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilish va hokazolar ham edi. Turkiston o'lkasining boshqa viloyatlari qatori Sirdaryo viloyati shahar, qishloq va ovullarida aholi yumushlarini boshliqlar tomonidan tayinlanadigan yoki tasdiqlanadigan oqsoqollar, muftiylar, miroblar, zakotchilar boshqarishardi.

Mahalliy millatli xalqlarning ijtimoiy hayotining an'anaviy negizlaridan o'troq aholida qozilik sudi, ko'chmanchi aholida esa biy sudlarigina saqlanib qolgandi. Biroq ularning vakolatlari jiddiy ravishda o'zgartirilib, qozikalon

²⁴ Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. –Т., 1994. С. 31

²⁵ O'sha joyda. B.30

lavozimi bekor qilingandi. Qozi va biylarning o'lim jazosi yoki jismoniy jazo belgilangan hukmlari viloyat Harbiy gubernatoriga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan bo'ldi. Tub aholiga nisbatan boshqa bir qancha cheklashlar ham joriy qilindi. Ayni mahalda, Rossiya imperiyasiining strategik niyatlarining amalga oshirilishi uning ixtiyoridagi va nazoratidagi hududlarni ancha kengayishiga olib keldi.

Rossiya Qo'qon xonligi, Buxoro amirligining aholi juda zich joylashgan hududlarining yarmidan ko'pini, Xiva xonligining Kaspiy va Amudaryo bo'yidagi hududlarni bosib oldi. So'ng, istilo etilgan hududlarni hamda uning aholisini samarali boshqarish va ekspluatatsiya qilish maqsadida, shuningdek, mintaqadagi xonliklarning ustidan o'z hukmronligini o'rnatish yoki ularni imperiyaga qaram qilish uchun Turkiston oblastini shu nomdagi general-gubernatorlikka aylantirib, uni Harbiy vazirlikka bo'ysundirish zarur deb topildi. Bu borada qonun 1867 yil iyulda qabul qilinib, Turkiston general-gubernatorligining birinchi boshlig'i etib Turkiston istilochisi fon K.P.Kaufmanni tayinladi. Yangi tashkil etilgan general-gubernatorlik bu paytda Sirdaryo hamda Yettisuv viloyatlaridan iborat edi²⁶.

Keyingi yillarda rus qo'shinlari Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Turkistonning bosib olgan hududlarida, Sirdaryo, Yettisuv viloyatlaridan tashqari, Zarafshon okrugi (1868 yil.), Amudaryo bo'limi (1873 yil.), Farg'ona viloyati (1876 yil.), Kaspiyorti viloyati (1881 yil.) tuzildi. Kaspiy dengizi orqali oxirgi viloyatga va Rossiyaning ta'sir doirasida bo'lgan SHimoliy Eron hududiga metropoliyadan aholini ko'proq ko'chirish maqsadida hamda turkmanlarni batamom bo'ysundirishni ko'zlab imperiya rahbariyati bu viloyatni Kavkaz noibligining tarkibiga (1882 yil.) birlashtirdi. Shuningdek, 1868 yilda Buxoro amirligi, 1873 yil Xiva xonligi imperiya tasarrufiga olindi hamda Rossiya imperiyasi tomonidan cheklagan bitimlarni imzolashga majbur etildilar. Bu xususiyat mintaqada Rossiyaning harbiy-siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlashga omil bo'ldi²⁷.

²⁶ Проект положения об управлении в Семиреченской и Сырдарьинской областях.- СПб.,1867. С.66.

²⁷ Файзулла Исхаков.Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.) Тошкент., Фан. 1997. С.35-36

O'rta Osiyoda, xususan, Turkistonda, o'z hukmronligini o'rnatishi tufayli Rossiya imperiyasi o'zining sharqdagi yangi chegaralariga ega bo'ldi, bevosita janubiy chegaralarga chiqib, Amudaryo harbiy flotiliyasini, Kushka, Termiz harbiy garnizonlarini tashkil etib, Buyuk Britaniyaning bu mintaqalardagi manfaatlariga, rejalariga qarshilik qilish uchun sharoit vujudga keltirildi. Shu harbiy-siyosiy muvaffaqiyatlariga tayangan holda, kelajakda Turkiston va Buxoro amirligi, Xiva xonligi bozorlaridan, tabiiy boyliklaridan, tub aholining arzon mehnatidan imperiya manfaatlarida foydalanishni vaziyat taqozo qilsa, askarlarni, qurol-aslahalarni tez va ko'plab etkazishni ko'zlab Rossiya hukumati mintaqada temir yo'l o'tkazish ishlarini 7-8 yil mobaynida amalga oshirdi. Natijada, 1887 yilda Krasnovodsk-Ashxobod-Qizil Arvot temir yo'li Samarqandgacha etkazildi. Bu yo'lga Kaspiyorti Harbiy temir yo'li nomi berilgani ham uning asosiy vazifasining mohiyatini ko'rsatar edi. Mazkur temir yo'l Rossiya Harbiy vazirligining rejalarida juda muhim hisoblanganligini quyidagi hujjatlardan ham anglash mumkin.

Turkiston ma'muriyati keyinchalik o'lkadan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, eng avvalo, paxtani, ipakni, mevalarni hamda mineral xom ashyoni Rossiyaga ko'proq hajmlarda tezroq olib chiqib ketish va metropoliyadan tayyor mahsulotni, qo'shinlarni, ko'chmoqchi bo'lgan aholini o'lkaga etkazish maqsadida va umuman, harbiy, siyosiy, iqtisodiy va strategik maqsadlarda Sirdaryo bo'ylab Orenburg-Toshkent-Andijon (1899-1905 yy.) temir yo'lini o'tkazishga muvaffaq bo'ldi²⁸.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Rossiya imperiyasining Turkiston jumladan, dastlab Sirdaryo bo'ylaridagi boy hududlari egallash, unda strategik qulay harbiy fort (qal'a)lar tashkil etish, siyosiy maqsadlarda harbiylar va rusiyzbon aholini joylashtirish muhim strategik ahamiyat kasb etgan edi. Bu imperiyaning Turkistonga masofa jihatidan yaqinlashuvi, ya'ni Turkistonning boshqa madaniy viloyatlarinin bosib olinishini tezlashtirishda muhim rol o'ynadi. Qo'qon xonligidan tortib olingan Sirdaryo bo'ylari Rossiya aholisining Orenburg bo'ylab migratsiyasida darvoza vazifasini o'tagan. Chunki Turkiston o'lkasining markaziy

²⁸ O'zMA, I-16 fond, 34-ruyxat, 1-yig'ma jild, 14 varaq.

viloyatlariga olib keluvchi eng havfsiz va qulay yo'l Orenburgdan Sirdaryo bo'ylab kelish yo'li edi. Chunki daryo bo'ylab imperiyaning himoyalangan harbiy fortlari va nazorat postlari mavjud edi. Orenburgdan Turkistonga ko'chish uchun yo'lga o'tlangan rusiyzabon aholi gurux-gurux bo'lib, ot aravalarda dastlab daryo bo'yidagi portlar (Perovsk, Kazalinsk)ga va shu orqali Turkiston o'lkasiga migratsiyasi amalga oshgan edi.

1.2. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirish siyosatining dastlabki bosqichi va uning mustamlakachilik mohiyati.

Rossiya imperiyasi Turkiston mintaqasini bo'ysundirganidan so'ng, mustamlakachilik siyosatini kuchaytirish va "ruslashtirish" tadbirlarini ko'rar ekan, aholini ko'chirish orqali mustahkam rus dehqon xo'jaliklari yaratishdek strategik maqsadni ko'zlatdi. Imperiyaning Rossiya guberniyalaridan Turkistonga, jumladan Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirish jarayoni mustamlakaning dastlabki yillaridan boshlanib, 1917 yilga qadar davom etdi. Ko'chirish siyosati tadbirlari va ko'chirilganlarni joylashtirish, ular xo'jaligini yo'lga ko'yish jarayonlari mintaqaning barcha viloyatlarida umumiy jihatlar bilan birga har bir viloyatda o'ziga xos tomonlari bilan ham namoyon bo'ldi.

Sirdaryo viloyati 1867 yil Orenburg general gubernatorligidan ajratib olingan holda tashkil topib, hozirgi Qozog'iston Respublikasining janubiy va janubiy sharqiy xududlari, hozirgi Toshkent va Sirdaryo bo'ylarida tashkil topdi. Viloyat shimoldan markazi Semipalatinsk bo'lgan Dasht general-gubernatorligi, shimoliy sharqdan Yettisuv viloyati, janubiy-sharqdan Farg'ona viloyati, janubdan Samarqand viloyati, janubiy g'arbdan Buxoro amirligi erlari, shimoliy-g'arbdan Hiva xonligi erlari bilan chegaralangan. Markazi Toshkent shahri bo'lgan Sirdaryo viloyati Sirdaryonig o'rta va quyi oqimlari bo'ylab joylashgan bo'lib, asosan keng dasht va sahro hududlaridan iborat bo'lgan. Sirdaryo viloyati kontinental quruq

iqlim mintaqasiga kiradi. Viloyat 5 ta uezd, 6 ta uezd shahri ma'muriy birligidan iborat bo'lgan²⁹.

Sirdaryo viloyati Turkistonning o'troq dehqonchilik viloyatlari ichida ko'chirilgan aholini qabul qilish, taqsimlash va joylashtirish bo'yicha o'ziga xos tajriba maydoni edi. SHuningdek, Sirdaryo viloyati Turkiston viloyatlari ichida dastlabki va eng ko'p ko'chirilganlarni qabul qiluvchi viloyat edi.

Turkiston o'lkasini har tomonlama o'rganish maqsadida 1865 yil may oyida senator F.K.Girs boshliq komissiya Dasht, Turkiston o'lkasiga tashrif buyuradi. Kompleks tekshiruv natijasiga ko'ra, imperator Aleksandr II hamda ichki ishlar vaziri, general D.A.Milyutin rahbarligida maxsus kengash tuziladi. Bu kengashga Orenburg general-gubernatori N.A.Krijanovskiy, Osiyo departamenti direktori, maxfiy maslahatchi P.N.Stremouxov, general-mayor M.G.Chernyaev, dasht komissiyasi boshlig'i, senator F.K.Girs va generallar A.K.Geyns, K.K.Gutkovskiylar kiritilgan edi. Bu kengash Turkiston o'lkasini imperiyaning kelajakdagi boshqaruv tartiblarini belgilab berdi. Ushbu kengash qaroriga ko'ra, 1867 yil 11 iyulda imperator Aleksandr II tomonidan Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini o'z ichiga olgan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganligi to'g'risidagi farmonini ma'qullash uchun senatga topshiradi va ushbu boshqaruv tartibi ma'qullanadi³⁰.

Orenburg general gubernatorligi sarhadlarining kengligi, Turkiston o'lkasining uzoqligi, boshqaruvdagi muammolar sababli alohida Turkiston general-gubernatorligi tashkil topadi va uning boshlig'i etib, vazir Milyutinnig yaqin safdoshi, imperiyaning shimoliy-g'arbiy hududlarida o'zining "jonkuyarligi va sodiqligi" bilan tanilib qolgan general fon K.Kaufman tayinlanadi hamda unga katta imtiyozlar beriladi. SHuni aytish mumkinki, 1867 yil 14 avgustda Tashqi ishlar vazirligi Osiyo departamenti direktori P.N.Stremouxov nomidan K.P.Kaufman nomiga maxsus tayyorlangan xat va podsho yorlig'i yuboriladi. Ushbu yorliq general-gubernatorga "barcha siyosiy, chegara va savdo sotiq

²⁹ Первая всеобщая перепись населения Российской империя, 1897 г. LXXXIX. Сырдарьинская область.- Сырдарья.-1904.-С.3.

³⁰ К.П.Кауфман Проект всеподданнейшего отчета ген.-адъютанта К.П.фон Кауфмана I по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства: 7 нояб. 1867 - 25 марта 1881 гг. С.-Петербург, 1885. 41 с

ishlarini hal qilish, ijtimoiy-iqtisodiy, soliq, migratsiya masalalari, qo'shni mamlakatlar bilan muzokaralar olib borish va traktatlar imzolash, qarorlar uchun shartlarni kelishishi masalalarida cheklanmagan vakolatlar berilib, xonliklar va qo'shni davlatlar bilan mustaqil ravishda Rossiya imperiyasi nomidan ish ko'rishligi kabi vakolatlar beriladi"³¹.

Shunday qilib, Turkiston o'lkasida Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini birlashtirgan ma'muriy-xududiy birlik va yangi boshqaruv apparati tashkil topdi. Dasht komissiyasi boshlig'i, senator F.K.Girs boshchiligidagi komissiya tomonidan taqdim etilgan "Sirdaryo va Yettisuv viloyatlarini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik Nizom" tasdiqlandi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur viloyatlarda ma'muriy, boshqaruv, soliq va boshqa masalalar ushbu nizomga muvofiq tashkil etildi. Ushbu viloyatlarda imperiyaning janubiy-g'arbiy hududlaridan rusiyzabon aholini ko'chirib keltirish va joylashtirish maqsadida turli tadbirlar (bo'sh erlarni izlash, topish, belgilash, ruyxatga olish, davlat er fondiga kiritish va hk.) boshlab yuborildi³².

Tashkil etilgan ushbu viloyatlarda (Yettisuv va Sirdaryo) ko'chib kelganlarni qabul qilish o'ziga xos tarzda kechdi. Xususan, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan dastlabki davrlarda o'lkaning katta qismida harbiy harakatlar davom etayotgan, vaziyat bekaror edi. Rusiyzabon aholining Turkiston o'lkasiga ko'chishning birinchi bosqichi shu va boshqa sabablarga ko'ra ommaviy tus olmagan edi. Aholi migratsiyasiga ushbu sabablar bilan birga aholining zichligi (Xo'jand, Qurama), ularni qulay erlarga joylashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash, ularning bu yangi hududga adaptatsiyasi masalalari ham ta'sir etar edi³³.

Turkiston general-gubernatorligida o'rnatilgan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi va bu erda 50 ming kishilik rus armiyasining joylashtirilishi, Qo'qon, Xiva xonliklariga, Buxoro amirligiga qarshi jangovar harakatlar imperiyaning mintaqadagi maqsadi – bu ulkan va boy o'lkani faqat talon-taroj qilib qaytish yoki

³¹ O'zMA, I-1-fond, 34-ruyxat, 4-yig'ma jild, 1-varaq.

³² O'zMA, I-1-fond, 34-ruyxat, 4-yig'ma jild, 2-varaq.

³³ O'zMA, I-1-fond, 34-ruyxat, 4-yig'ma jild, 19-varaq.

Rossiyaning faqat harbiy-siyosiy strategik hukmronligini o‘rnatishgina emas, balki Turkistonni imperiya mulkiga aylantirish, xonliklarni esa butunlay yo‘q qilish, agar buning iloji bo‘lmay qolsa, protektorat, qaramlik shartlarini qabul qilishlariga majbur etish, butun mintaqa boyliklaridan, ishlab chiqarish kuchlaridan, salohiyatidan foydalanish ekanligini ko‘rsatdi. Turkiston general-gubernatorligi tashkil qilinganligi Rossiya imperiyasi bu mintaqani rasman mustamlaka ahvoliga tushirib, imperiyaning strategik, iqtisodiy, ijtimoiy manfaatlariga xizmat qildirishga intilayotganini tasdiqladi³⁴.

Bunday mustamlakachilik niyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun imperiya hukmron doiralariga xalqaro vaziyatning qulayligi, Turkiston va Rossiya hududlarining tutashligi ham, O‘rta Osiyo xonliklari o‘zaro to‘qnashib turganliklari, ya’ni tarixiy sharoitning o‘zi ularga keng imkoniyatlar bermoqda edi. SHuning uchun Rossiya imperiyasi bu mintaqada harbiy harakatlarini davom ettirgan holda bu erda rus qo‘shinlariga va mustamlakachi ma’muriyatga tayanch bo‘ladigan hamda o‘lkaning boyliklarini metropoliyaga jo‘natish bilan band bo‘ladigan, zarur bo‘lsa mahalliy xalqlarning isyon, qo‘zg‘olonlarini bostirishga qo‘shimcha kuch sifatida xizmat qiladigan rus va umuman sharqiy slavyan nasroniy aholini ko‘proq joylashtirish tarafdori edi.

Buning uchun dastlab ko‘proq imperiya va Turkiston harbiy okrugining iste’fodagi harbiylarni joylashtirish rejasi tuzildi va ularni joylashib olishlari uchun katta imtiyozlar berildi. SHu bilan birgalikda Ural va Don kazaklari ham harbiy maqsadlarda viloyat chegaralari bo‘ylab joylashtira boshlangan edi. Lekin harbiylar, asosan kazaklar erda ishlash ko‘nikmasi bo‘lmaganligi, ularning agrar sohada lalmi va sun‘iy sug‘orish tajribasi yo‘qligi sababli erlar foydalanilmay qarovsiz holga kelishiga olib kelgan. Ular ayrim hollarda erni ijaraga berib, yoki sotishib shaharlarga borib, engil-elpi ishlar bilan shug‘ullanishgan. Buni juda chuqur tushungan fon K.P.Kaufman kazaklar asosan chegaralarga yaqin erlarda

³⁴ Равшанов III.P. “Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини қўчириш сиёсати ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари)” тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Т. 2023. 67 Б.

yashashlari, harbiy jihatdangina ular foydali ekanligini, lekin harbiy harakatlar tugagan davrda ular xo‘jalik yuritishda keraksiz ekanligini bir necha bor imperiya ma‘muriyatiga etkazgan edi. K.P.Kaufmannning fikricha, kazaklar o‘lka zabt etilayotgan birinchi davrda chegaralarni qo‘riqlashda va qurolsiz mahalliy aholining noroziligini bostirishda foydali bo‘lishdi, keyin esa ular qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etkazib berish bo‘yicha hamda yangi sharoitda harakat qila oladigan harbiy kuch sifatida talablarga javob bermas edi³⁵.

Shu munosabat bilan, masalan, general Kolpakovskiy «Rus kazak aholisi mamlakat madaniyatini ancha olg‘a siljitmadi... Kazak vaqti-vaqtida harbiy xizmatga jalb etilayotgani sababli xo‘jalikni to‘g‘ri yurgizish imkoniyatiga ega emas... Krestyan mustamlakachiligi esa g‘aznadan uncha katta bo‘lmagan, kazaklarnikidan beqiyos kamroq xarajatlarni va er maydonini talab qiladi va shuning uchun bir xil hududda ikki-uch barobar ko‘proq aholini joylashtirish imkonini beradi»³⁶, - deb yozgan edi.

Shu bilan birga Qo‘qon xonligining Uzunyog‘och, Oqmachit, Turkiston, Marki, Pishpak, Avliyoota, Chimkent, Toshkent kabi tayanch shaharlar rus qo‘shinlari tomonidan ishg‘ol qilinganidan keyin o‘lkaning ichki hududlariga kazaklarni ko‘chirib keltirishning hojati yo‘q edi.

Shuningdek, yuqori va quyi unvondagi iste‘foga chiqqan harbiylar ham agrar sohadagi no‘noqligi sababli keyinchalik imperiyaning markaziy, janubiy va g‘arbiy hududlaridagi ersiz dehqonlarni ko‘chirishga turtki bo‘ldi.

Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasiga ko‘chirish siyosatida o‘rganilgan manbalar tahlili natijasidan ma‘lumki, Rossiya imperiyasining aholini Turkistonga ko‘chirish siyosati asosan 4 ta katta bosqichda yuz bergan:

1) 1847-1881 yillar, 2) 1881-1886 yillar, 3) 1886-1903 yillar, 4) 1903-1917 yillarga qadar davrlarga bo‘lish mumkin.

Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosatining boshlanishi ko‘chirishning birinchi davri, ya‘ni 1847 – 1881 yillardan boshlandi.

³⁵Проект всеподданнейшего отчета... К.П.фон Кауфмана, С.151-152 .

³⁶ O‘zMA, I-1 fond, 16-ruyxat, 2257-yig‘ma jild, 5-6 varaq.

Rossiya qishloq aholisi Sibir, Uzoq Sharqdagi aholisining ko'pchiligi bu xududdagi tabiiy noqulayliklar va boshqa sabablarga ko'ra XIX asrning 20-30 yillaridayoq harbiy harakatlarsiz, siyosiy hiyla-nayrang bilan qozoqlarning O'rta va Kichik juzlaridan tortib olingan erlarga o'zboshimchalik bilan ko'chib kelib joylashgandi³⁷.

O'rta va kichik juzlarga mansub qozoqlarning hududlariga rus qo'shinlari XIX asrning 40-chi yillarida o'z mavqeini mustahkamlashga erishayotganligi tufayli chegaraga yaqin joylarda Sibir va Orenburg (Ural) kazaklarining stansiyalari barpo etilayotgan sharoitlarda bu hududlarda, biroz keyinroq Sirdaryoning quyi qismida tuzilgan harbiy garnizonlar, istehkomlar atrofida rus aholining ham soni ko'payib bordi.

Jumladan, 1852 yilda Qo'qon xonligidan olingan Sirdaryo bo'yidagi Qazalli qishlog'i o'rnida 1853 yil 20 iyunda V.A.Perovskiy topshirig'iga ko'ra va injener, general mayor A.Bogdanov loyihasiga ko'ra 1-sonli fort (qal'a) Kazalinsk barpo etish boshlanadi³⁸. Shu yilning kuz oyigacha ikkita ko'p xonali uy va kazarmalar tashkil etiladi va himoya maqsadida 50 nafar kazaklar hamda qal'a qurilishini davom ettirish uchun 300 nafar boshqird ishchilari joylashtiriladi. 1855 yilga kelib, imperiya ma'muriyati va Orenburg general-gubernatori V.A.Perovskiy buyrug'iga ko'ra, bu erga rus harbiylarini joylashtirish, boshqaruv, moliya, ta'minot, kommunikatsiya tizimlari barpo etildi. 1858 yilga kelib ushbu harbiy qal'ada 600 nafar piyoda ko'shin, 300 nafar harbiy kazaklar, 85 nafar artileriyachi hamda, 200 nafar orol flotiliyasi ishchilari istiqomat qilardi. Qal'ada kazarma, ofitserlar fligelyasi, kichik gospital, dukan, ko'chib kelganlar uylari va kichik unvondagi oilali zobitlar uylari joylashgan edi. Uylar fundamentsiz, xom g'ishdan barpo etilib, usti yog'och bilan yopilib, tom qismiga qamish bosilgan. Ushbu birinchi fortda (Kazalinsk) 1858 – 1859 yillarda 28 rus oilasi, 1861 yil yanvar xolatiga ko'ra, 47 oila, 340 nafar (187 nafar erkak, 153 nafar ayollar) istiqomat qilardi³⁹.

³⁷ Центральная Азия и Россия в XVIII – начало XX веков. Ф.Исхаков; отв. ред. Х.Г.Гуломов. – Тошкент., “O'zDAVMATBUOTLITI” – MChJ. 2009. С. 75-76

³⁸ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-4.

³⁹ O'sha asar B.6.

1867 yil 11 iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi va uning tarkibida Sirdaryo va Yettisuv viloyatlari tashkil etiladi. Ushbu birinchi raqamli fort Sirdaryo viloyati Kazalinsk uezdi nomi bilan almashtiriladi va uning negizida Kazalinsk shahri tashkil etiladi. Uezd boshlig'iga juda katta vakolatlar beriladi. 1867 yildagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom loyihasining 52 bandida uezd boshlig'i vakolatiga boshqaruv, politsiya, ma'muriy ishlar bilan birgalikda rusiyzabon aholi va istefodagi harbiylarni qabul qilish vakolatlari ham beriladi. 1868 yillarga kelib Kazalinsk uездida nisbatan tatarlar soni osha boshlaydi. Tatarlarning savdo-sotiq, maishiy xizmat sohalarida ulushi orta boshlaydi. Kazalinsk qal'asida 1875-1880 yillarda harbiy xizmatdan bo'shagan kazaklar soni 1000 nafardan kam emas edi. Ular kvartiralarda va kazarmalarda istiqomat qilardi⁴⁰.

1853 yilda yozida Orenburg general-gubernatori V.P.Perovskiy tomonidan Oqmachit qal'asining olinishi natijasida bu erda dastlab kichik himoyalangan istehqom barpo etiladi va harbiylar joylashtiriladi. 1858 yilga kelib kichik unvondagi amaldorlar va ularning oilalari istiqomat qiladigan kichik kichik uylar mavjud edi.

1862 yildan boshlab dastlabki rus dehqonlar va kichik unvondagi harbiylar oilalari ushbu fortga ko'chib kelib joylasha boshlaydilar. Bunda ular Aleksandrovsk posyolkasini tashkil etadi. Ular bu erda asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaydi. Lekin dastlabki yillarda dehqonchilikda ekinlarni chigirtka urishi natijasida xosil ololmaydi⁴¹.

1867 yilga kelib Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi, uning negizida Sirdaryo viloyati tarkibidagi Perovskiy uezdi va Perovskiy shahrining tashkil etilishi natijasida rus aholi soni keskin osha boshlaydi. 1868 yilda Perovskiy uездida ma'muriy-boshqaruv binolari, xususiy uy-joylar, kazarmalar, rus amaldorlari va savdogarlarining ko'chmas mulklari, 343 savdo nuqtasi bor

⁴⁰ Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. - СПб., Сенаторская типография. 1910. - С.181-182.

⁴¹ O'sha joyda – B. 182-183.

bozor mavjud edi⁴². Bu bozorlarda Buxoro va rus yaxudiylari, toshkentliklar, tatarlar, afg'onlar savdo-sotiq bilan shug'ullanar edi.

Bundan ko'rinadiki Sirdaryo viloyatining boshqa uездlariga qaraganda Perovski uездida aholi soni birmuncha ko'pchilikni tashkil etgan. 1875 yillarga kelib aholi soni Ural kazaklari hisobiga kengayib boradi. Ular asosan, baliqchilik, chorvachilik va harbiy sohalarda faoliyat yuritgan edi. 1891-1892 yillarga kelib ocharchilik natijasida Rossiya imperiyasi janubiy-g'arbiy hududlaridan katta hajmdagi aholi Turkiston o'lkasiga ko'chib o'tadi va shunda Perovski uезд aholisi ham Turkistonning boshqa viloyat va uездlariga ko'chib o'tish jarayoni yuz beradi⁴³. Bizningcha, Perovski uезд aholisi ham xosilsizlik yillaridan qiynalgan ko'rinadi. 1897 yilgi olingan umumrossiya aholi ruyxatiga ko'ra, uезд aholisi 5058 nafar, jumladan, 3122 nafar erkaklar, 1936 nafar ayollarni tashkil etgan. 742 nafar rus millati vakillari, 434 nafar tatarlar, 2253 nafar qirg'izlar, 6 nafar qoraqalpoq, 1384 nafar sartlar, qolgan aholini staroobrayadchilar, raskolniklar, lyuteranlar, katoliklar tashkil etgan⁴⁴.

O'rta asrlarda Yassi deb ataladigan Turkiston Qo'qon xonligida Toshentdan keyingi ikkinchi muzofoti sanalgan.

1864 yilda may oyi boshida A.P.Veryovkin boshliq imperiya qo'shinlari Sirdaryo bo'yidagi Turkistonni olish maqsadida 5 ta piyodalar rotasi, 2 kazak bo'linmasi, hamda 100 nafar yo'l ko'rsatuvchi qoraqirg'izlar hamrohligida 2 ta raketa qurilmasi va boshqa qurollar bilan qurollangan holda, paraxodlarda Perovski fortidan daryo bo'ylab yo'lga chiqishadi. Manbalarda Turkiston Qo'qon xonligi davrida aylanasi 3 verst baland va mustahkam qo'rg'onlar bilan o'ralgan qal'a bilan himoyalanganligi keltirilgan. 1864 yil 12 mayda Turkiston 3 kunlik qamaldan keyin ruslar tomonidan olinadi. "Jasorati va mehnatlari" uchun N.A.Veryovkin general-mayor harbiy darajasinin oladi⁴⁵. Turkiston olinganining 3 kunida, ya'ni 15 mayda Veryovkin tomonidan Xo'ja shayx-ul Islomda, shu

⁴² Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-77.

⁴³ O'sha joyda – B.-78

⁴⁴ O'sha joyda – B.-78

⁴⁵ Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская и Ферганская) – Спб. 1911. С.110

davrdan Turkistonni boshqaruvini yangilash, rus boshqaruvini o'rnatish to'g'risida qaror chiqaradi. 1867 yildan Chimkent uezdining Turkiston shahri sifatida ruyxatga olinadi.

Bu davrdan e'tiboran ushbu qal'aga asosan harbiylar va ularning oilalari kelib joylashadi. 1872 yilda Turkiston general-gubernatori fon. K.P.Kaufman buyrug'iga ko'ra Turkiston shahri Jizzax uezdiga birlashtiriladi. Jizzax uzdining Turkiston shahriga 1876 yilgacha rus aholisi ko'chib kelishi ayrim u yoki bu sabablarga ko'ra sekinlik bilan boradi. Faqat 1876 yildan bu erga bir guruh ural kazaklari ko'chib kelib joylashadi va asosan Sirdaryo bo'ylarida baliqchilik bilan shug'ullanadi⁴⁶. Shahar 1886 yil 12 iyundagi Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi qonunga ko'ra yana Chimkent uzdini tarkibiga o'tadi. Turkiston shahri bu davrda panastqam, egri ko'chalardan iborat eski qismi va zamonaviy yangi shahar qismlaridan iborat edi. Shaharda ruslar va mahalliy aholidan tashqari, Buxoro va Evropa yaxudiylari, tatarlar, boshqirdlar va boshqa millat vakillari istiqomat qilardi⁴⁷.

1897 yilgi umumrossiya aholi ruyxatiga ko'ra, Turkiston shahrida 11253 nafar aholi istiqomat qilib, undan, rusiy zabon aholi 312 nafar, tatarlar 513 nafar, mahalliy aholi (Qirg'izlar, qoraqirg'izlar, sartlar, o'zbeklar) 10348 nafarni tashkil etgan. Bundan tashqari shaharda 17 nafar staroobrayadchilar, Rim katoliklari 46 nafar, protestantlar 9 nafar va xristian dinining boshqa oqimdagilar ham istiqomat qilgan⁴⁸. Turkiston shahri 13389 desyatina bo'lib, unda bitta bozor, maishiy va ma'muriy binolar, park va boshqa infratuzilmalar mavjud edi.

1864 yilda may oyida M.Chernyaev boshliq qo'shin Qo'qon xonligining muhim harbiy va strategik, iqtisodiy markazi bo'lgan Avliyootani bosib oladi. Unga ko'rsatgan "jasorati uchun" general-mayor unvoni berilgan. Avliyoota 1864 yil Yangi Qo'qon liniyasi tarkibiga, 12 fevral 1865 yil Turkiston oblasti tarkibiga kiritildi. Avliyoota shahri 1867 yil 11 iyul Turkiston general-gubernatorligining

⁴⁶ Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская и Ферганская) – Спб. 1911. С.111

⁴⁷ O'sha asar. B.112

⁴⁸ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-156.

yangi tashkil etilgan Sirdaryo viloyati tarkibiga kiritiladi va uezd shahri maqomini oladi.

Turkiston general-gubernatori fon K.P.Kaufman 1867 yildayoq Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.N.Golovachyovga imperiyaning g'arbiy hududlaridan ko'chirib keltiriladigan aholini joylashtirish uchun Talas va Chudaryolari vohasidan, shuningdek, Chimkent uezdining munosib erlarini tanlash va bu tanlangan er maydonlarini hisobga olishga topshiriq bergan edi⁴⁹. Shuning uchun ham aytish mumkinki, Turkistonning birinchi general-gubernatori fon.K.P.Kayfman nafaqat Turkiston o'lkasining istilochisi balki rusiyzabon aholini Turkistonga ko'chirish siyosatining asoschisi desak mubolag'a bo'lmaydi. Birgina ushbu Turkistonning birinchi general-gubernatori davrida (1867-1881 yy.) Avliyoota uezdida 5 ta rus dehqon posyolkalari tashkil topdi. Bu davrda uning xomiyligida har bir oila uchun kamida 15 desyatina er maydoni 25 rubldan pul va 30-50 rublgacha uzoq muddatli ssudalar ajratish belgilandi.

Avliyoota rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan dastlabki davrda rusiyzabon aholi soni kamchilikni tashkil etar edi. Birinchi ko'chuvchilar asosan harbiylar va ularning oilalari edi. Faqatgina 1874 yilda Avliyoota uezdi, ya'ni, Pishpek va Merki oralig'idagi Qorabolta qishlog'ida (Hozirgi Bishkek shahridan 40 km g'arbdagi qishloq) dastlabki rus dehqonlari manzilgohi tashkil topadi. 1875 yilda Avliyoota uezdida 20 nafar rus dehqon oilalari mavjud edi. 1876 yilda yana ikkita Choldevor va Mixaylovka nomli rus posyolkalari tashkil etilib unga katta imtiyozlar bilan rus dehqonlari joylashtiriladi. Ushbu yilda yana 80 nafar ural kazak oilalari Avliyootaga kelib joylashadi. 1870 yillar oxirlarida Avliyootada aholi ehtiyoji uchun 2 ta 500 savdo nuqtasiga ega gavjum bozor, rus aholi ibodat qilishi uchun 3 ta cherkov, ko'plab aholi uylari, istirohat bog'i, ma'muriy binolar mavjud edi⁵⁰.

1897 yilgi umumrossiya aholini ruyxatiga ko'ra Avliyoota uezdining aholisi 11722 nafarni tashkil etib, shundan rusiyzabon aholi 1366 nafar, tojiklar 379 nafar,

⁴⁹ Равшанов Ш.Т. Туркистонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири- 1917 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.-Тошкент,2022 йил. 34 Б.

⁵⁰Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-166.

tatarlar 266 nafar, qirg'izlar (qozoq) 589 nafar, sartlar 386 nafar, qzbeklar 8460 nafar, turklar 18 nafar va va boshqa millat vakillari 258 nafarni tashkil etar edi⁵¹.

1864 yil 16 iyulda M.Chernyaev boshliq rus qo'shinlari Chimkent shahrini bosib oladi. Chimkent 1865 yildan Turkiston oblasti tarkibida, 1867 yil 11 iyuldan Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Sirdaryo viloyati Chimkent uezdi maqomini oladi.

Chimkent uezdiga dastlabki kam sonli ko'chib keluvchilar, ya'ni, Kazalinsk uezdidan kazak oilalarining remigratsiyasi kuzatiladi. Bu erga dastlabki davrda asosan rus soldat va harbiy oilalari ko'chib kelgan edi. Shuning uchun ham 1868 yilda ularning dastlabki kam sonli manzilgohiga Soldatskiy deb nom berilgan. 1876 yildan boshlab Sirdaryo viloyatining boshqa uezdlari qatori Chimkent uezdiga ham ko'p sonli ural kazaklari ko'chib kela boshlaydilar. Ular asosan chorvachilik, baliqchilik, harbiy soha va flotiliyada faoliyat yuritardilar. 1897 yil ma'lumotlariga ko'ra, Chimkent uezdida 11194 nafar aholi istiqomat qilib, shundan 833 nafar ruslar, 120 nafar tatarlar, 451 nafar qirg'izlar, 20 nafar qoraqalpoqlar, sartlar 9468 nafar, o'zbeklar 9 nafar va boshqa millat vakillari 293 nafarni tashkil etgan⁵².

Dastlabki rusiyzabon aholi migratsiyasi jarayonlarida Turkistonda tashkil etilgan viloyatlarga rusiyzabon aholi bilan birga kazaklar etarlicha ko'chirilganligini, lekin ular o'lkaning iqtisodiyotini metropoliyaning ehtiyojlarini qondirish maqsadlarida rivojlantirishda faol qatnashishi mumkin emasligini hisobga olgan holda general-gubernator K.P.fon-Kaufman 1868-yildayoq Turkistonga xo'jalik jihatidan baquvvat krestyanlarni ko'chirish zarurligini asoslagan edi. SHu bilan birga yangi mustamlakada kapitalistik munosabatlarni yanada rivojlantirish, mahalliy mulkdorlarning, hunarmandlarning raqobatini bartaraf qilish, rossiyalik sarmoyadorlarning, savdogarlarning, geologlarning, muhandislarning, agronomlarning boshqa mutaxassislarining faoliyatini kengaytirish va o'lkaning tabiiy boyliklarini metropoliyaga olib ketish masalalari ham qo'yilgan edi.

⁵¹ O'sha joyda – B.-167.

⁵² Добромислов А.Н. Город Сырдарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-191.

K.P.fon-Kaufmanga imperator tomonidan deyarli cheklanmagan vakolatlar berilganligi, general-gubernatorning buyuk davlatchilik mavqei va mahalliy xalqlarga o'ta adolatsizligi hamda metropoliya aholisining vakillari o'lkada o'zlarini g'olib deb hisoblaganligi mustamlaka siyosatida, amaliy faoliyatida o'z aksini topdi. Tadqiqotdan ma'lum bo'ladiki, Sirdaryo bo'yidagi hududlarga XIX asrning 60-yillarida o'z xohishi bilan ko'chib kelgan rus aholi orasida shaharlik kambag'allar, mayda savdogarlar va qashshoq krestyanlar aksariyatni tashkil qilishgan. Ular mahalliy aholiga nihoyatda qo'pol, jinoyatkorona munosabatda bo'lishgan. Mahalliy dehqonlarning, chorvadorlarning erlarini tortib olish hollari juda ko'p bo'lgan.

Harbiy ma'muriyat mavjud sharoitlarga ko'ra emas, balki ko'chib kelayotgan rus aholini ehtiyojlarini hisobga olib harakat qilgan va natijada mahalliy aholiga nisbatan tajovuz, adolatsizlik, shovinistik yondashuvlar ommaviy tus olgan edi.

Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan 1865 yilning 15 iyunida oyida Toshkent shahrining bosib olinishi natijasida rus qo'shinlari Bo'zsuv kanalining chap sohilidagi o'rdaga joylashtiriladi (Hozirgi anhor kafesi o'rnida). Birinchi o'rinda imperiya ma'muriyati boshqaruv siyosatiga mos ravishda Toshkent shahrining ma'muriy boshqaruv tizimiga o'zgartirishlar kiritishdan boshlaydi⁵³.

Toshkent shahri 1865 yildan Turkiston oblastining ma'muriy-boshqaruv markazi, 1867 yil 11 iyuldan Turkiston general-gubernatorligi va Sirdaryo viloyatining ma'muriy-boshqaruv markazi sifatida faoliyat yuritgan Toshkent shahri aholi soni, geografik joylashuvi, iqtisodiy va geostrategik o'rni bilan ajralib turar edi. Sirdaryo viloyati uездlari ichida Toshkent uездi aholisi soni, unumdor erlari bilan viloyatda etakchi edi. Toshkent uездi 25 ta volostdan iborat etib belgilanadi. Toshkent shahrining bosib olinishi bilan bu erga iste'fodagi harbiylar, o'rtaxol dehqonlar, savdo va sanoat xodimlari kirib kela boshladi. Ular bu hududga joylashib ola boshladi va ishlab chiqarish korxonalariga (vino-sharob, sovungarlik, yog'-moy, ko'ncilik, sham, gugurt, ichak) asos soldilar⁵⁴. Bu davrda Toshkent uездi Farg'ona viloyati uездlari aholisi kabi jich joylashgan, er resurslari mahalliy

⁵³ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 1856-yig'ma jild, 10- varaq.

⁵⁴ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 1856-yig'ma jild, 11-12- varaq.

aholiga ham taqchil uezdlardan biri edi. Albatta Turkiston general gubernatori K.P.fon-Kaufman Sirdaryo viloyatining markazi Toshkent shahri va uezdiga rusiyzabon aholini ko‘chirish tashkilotchisi edi. 1867 yildayoq Toshkentda ko‘p aholili Chernyaevka posyolkasiga asos solingan edi⁵⁵.

1866 yilda shaxarning “yangi” kismini ko‘rgan A.P.Xoroshxinning guvoxlik berishicha, u erda asosan amaldorlar, zobitlar va askarlar yashardi. Ular uyларini pishik yoki xom g‘ishtdan qurardilar. Kupchiligining poli quruq er yoki toshdan bulib, derazalariga oyna o‘rniga moy shimdirilgan qogoz yoki yozuv kog‘ozi qoplanardi. Oyna bu erda juda kimmat edi⁵⁶.

XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida Turkistonning iqtisodiy va boshqaruv markazi bo‘lgan Toshkent shahrining “yangi” kismi ancha kengayib boradi. Ammo bu joylarga Rossiya guberniyalaridan odamlar xech bir rejasiz o‘zlaricha kelib o‘rnashib ola boshladilar.

K.K.Palanning yozishicha, “o‘zboshimchalik bilan kuchib kelish shaxar ma’muriy xayotiga juda xam yomon ta’sir ko‘rsatgan. Shaxarning “yangi” kismi belgilangan rejadan o‘sib ketgandi va natijada uning chekkalarida tor va kingirkiyshik yullar tarmog‘i yuzaga kelib, tozalik va yongin xavfsizligi jixatidan xaddan tashkari yomon axvolda edi. Kupchiligining oxiri berk kucha bilan tugaydigan bu yulkalar yul sifatida xam talabga javob bermasdi, to‘g‘ri yo‘nalish bo‘yicha juda yakin joyga etib borish uchun yashovchini aylanib, uzoq yurishga majbur etardi⁵⁷.”

Birgina Toshkent shahrida 1867-1869 yillar ma’muriy-boshqaruv binolari, boshqaruvdagi va ko‘chib kelgan rusiyzabon aholi tomonidan davlat moliyaviy ko‘magida 500 ga yaqin uy-joylar barpo etildi. Toshkent shahrida 1877 yilga kelib, harbiylardan tashqari 4000 nafar rusiyzabon aholi istiqomat qilgan. 1887 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Toshkent shahrida mahalliy aholi vakillari soni 104618 nafar bo‘lgani holda, 14776 nafar rus harbiylari, 6419 nafar rus fuqarolari, 1112 nafar qirg‘iz (qozoq), 78 nafar tojik, 618 nafar Buxoro yaxudiylari, 460 nafar

⁵⁵ Гинзбург, Русский население Туркестане-1991 г. 29 бет

⁵⁶ Исмоилова Ж. Х. XIX асрнинг илкчи ярми XX аср башларида Тошкентнинг “янги шаҳар” қисми тарихи. Тошкент, Фан ва технология, 2004 йил, 8 бет.

⁵⁷ Пален К.К. Городское управление. СПб. 1910 44-бет.

Evropa yahudiylari va boshqa (lo‘li, afg‘on, hind, eron va hk.) lar 837 nafar, ja‘mi 130304 nafarni tashkil etgan⁵⁸. 1897 yilgi umumrossiya aholi hisobiga ko‘ra, ko‘chib kelgan rusiyzabon aholi (harbiylardan tashqari) 12981 nafarni tashkil etgan⁵⁹.

Lekin, Toshkent uездida ortiqcha erlarning yo‘qligi, demografik muammolarga qaramay birinchi gubernator davrining oxirida (1881 yil 3 mart) Toshkent uездida 100 larcha oiladan iborat Nikolskiy nomli ikkinchi rus posyolkasi tashkil etildi. Buyruqqa ko‘ra, oila boshiga boshqa uездlardan kamroq, ya‘ni 7 desyatinadan er maydoni ajratildi va er egasiga mulk qilib berildi. Bu er meros qoldirish asosida, birinchi yilda o‘zlashtirish, ikkinchi yilda imorat qurish sharti bilan rus dehqon aholisiga berildi. Ushbu rus dehqon aholini ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash maqsadida 25 rubl miqdorida ssuda belgilandi. Umuman olganda imperiya tomonidan ko‘chib kelgan rusiyzabon aholiga barcha imtiyozlar yuqori bo‘lgan. Masalan, bu davrdagi Sirdaryo viloyati 6 ta rus posyolkasi aholisiga xo‘jaliklarini tiklab olishlari uchun 15 yillik imtiyozli ssudalar va 4000 rubllik yordam pullari berilgan⁶⁰.

Toshkent uездiga ko‘chib keluvchilar rusiyzabon aholi soni uning markaz ekanligi, havfsizlik nuqtai nazaridan keskin ko‘paya bordi va bu bir qancha milliy-etnik, demografik muammolarni yuzaga keltirdi. Bunga misol sifatida 1898 yilda Toshkent uězdi boshlig‘i Sirdaryo viloyati harbiy gubernatoriga bergan axborotida “agarda yangi erlarni tashkil etish uchun mablag‘ sarflanmasa rus posyolkalarini tashkil etish uchun uезд zahirasi er yo‘k” degan bayonot bergan edi⁶¹.

Turkiston general-gubernatori K.P.fon Kaufman ilgari amaliyotdan farqli o‘laroq, Rossiyadan birinchi navbatda rus, umuman, provoslav mazhabiga mansub aholini tashkiliy ravishda ko‘chirib keltirishga harakat qilish lozimligini qayd etib, qaysi yo‘nalishlardagi hududlarga rus dehqonlarini joylashtirish maqsadga muvofiq bo‘lishini ko‘rsatdi. Imperiya devoni 1873-yilda Turkiston general-

⁵⁸ Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Тошкент, 1912, -С.71-73.

⁵⁹ О‘sha joyda – В.73.

⁶⁰ Пален К.К. Переселенческий дело в туркестане. СПб., 1910. -С.-172.

⁶¹ О‘zMA I-17-fond, 1-ruyxat, 32702-yig‘ma jild, 5-varaq.

gubernatorining 1) Orenburgdan Toshkentgacha va 2) Toshkentdan Chimkent, Avliyoota va Verniy orqali Semipalatinsk gacha bo'lgan yo'nalishlardagi hududlarga eng avvalo ruslarni ko'chirish, joylashtirish takliflariga rozi bo'ldi⁶². Tez orada ikkinchi yo'nalish ancha maqbul deb topildi, chunki bu yo'nalishdagi hududlarda er iqlimi yaxshiroq edi.

Mustamlakachi ma'muriyat, xususan, general-gubernator K.P.fon Kaufman dastlab imperiya markazidan Sirdaryo viloyatiga va uning markazi Toshkentga ko'chirib keltirilayotgan aholining sonini, ijtimoiy va milliy tarkibini, siyosiy ishonchliligini qat'iy nazorat qilishgan. Birinchi navbatda, xizmat muddatini o'tab bo'lgan harbiylar oilalari bilan o'lkada doimiy yashab qolishlariga rag'batlantiradigan choralar belgilandi. 60-yillar oxiri 70-yillarda Sirdaryo viloyatiga aholi, asosan, Astraxan, Xarkov, Voronej, ayniqsa, Orenburg, Samara guberniyalaridan ko'chirib keltirilganligi, ularning ko'pchiligi qashshoq bo'lgani uchun hukumat ularning ko'chishi yo'nalishini manzillarini oldindan aniqlashga qaror qildi⁶³.

Ayni mahalda mazkur mezonlar tegishli ravishda tanlab olingach, ko'chishga tayyor bo'lganlarga «o'tish guvohnomasi» deb atalgan hujjat berilishi va shu hujjatga asosan ularning joylashuvida ma'muriyat ko'maklashishi nazarda tutilgandi. Bu tartib o'zboshimchalik bilan ko'chib keluvchilar oqimini eng kam darajaga etkazish uchun yo'lga qo'yilgandi, chunki ular ko'chib kelgan joylarida tub qishloq aholisining eri, qoramoli va hatto, uy-ro'zg'or buyumlarini ham zo'rlik bilan tortib olishardi. Garchi hukumat bunday hodisalarga ko'pincha e'tibor bermagan bo'lsa-da, dehqonlarning ommaviy g'alayonlarining oldini olishni istagandi. Undan tashqari, Turkiston ma'muriyatining aholini ko'chirish amaliyotini tartibga solishga qaratilgan choralari doim ham samara beravermadi. Rusiyazon aholining ko'chishining birinchi bosqichida bir muncha xatoliklar ko'zatilgan va bu xatoliklar keyingi ko'chirish siyosatida saboq bo'lgan edi.

⁶² Гинзбург А.И. Русское население в Туркестане, С.30.

⁶³ О'зМА, I-1 fond, 2-ruyxat, 1905-yig'ma jild, 2-varaq.

Turkiston harbiy okrugi shtabi boshlig'i: «Bizning ishimiz - eng avvalo ruslar, milliy-rus manfaati ekanligini... qirg'izlar (barcha tub dehqonlar shunday atalgan – G.T.) band qilib turgan erlar ularning emas, balki davlatning mulki ekanligini axir bir kun oshkora tan olishimiz kerak-ku. Rus qishloqlarining barpo etilishi ham Orenburg dashtida ko'chmanchilarning eng yaxshi erlarida yoki qishlov joylarida bunyod etilgan istehkomlar qurilishi singari davlat zaruriyatidir... Rus o'troq unsurlari ularni o'lkadan siqib chiqarishi yoki umuman ko'chirib yuborishi lozim»-degandi⁶⁴. General-gubernator ham harbiy okrug bo'yicha o'z o'rinbosarining bu fikriga, aslida, qo'shilgandi. Binobarin, rus amaldorlarining tub aholiga nisbatan bedodligi Turkistonga, keyinchalik esa Dasht o'lkasiga ham ko'chirib keltirilgan rus, ukrain, belorus krestyanlari uchun ibrat bo'lgan edi. Metropoliyadan ko'chib kelganlarning mahalliy aholiga nisbatan qilgan beboshliklari, xususan, eng yaxshi erlarni dehqonlardan, yaylovlarni ko'chmanchilardan tortib olish, ma'muriyat tomonidan oqibatsiz qoldirilganligining sabablaridan biri shunda ediki, tub joy aholiga qarashli erlarni davlat tasarrufiga o'tkazish haqidagi qonunlashtirilgan qoidalar 80-yillargacha mavjud bo'lmagan.

Bu boradagi masalalarni hal etish yo'llarini belgilovchi birorta ham qonun-qoidalar to 1881-yilgacha mavjud emas edi. SHu sababli imperiya hukumati, mustamlaka ma'muriyati taklifi bilan ilk bor qoidalar 1881-yil 10-iyulda, "Krestyanlarni bo'sh davlat erlarga ko'chirish vaqtincha qoidalar"⁶⁵ shaklida qabul qilindi. Ko'chiriluvchilarga ularning chiqish joyidan yo'l hujjati berish bo'yicha XIX asrning 70-yillar boshida joriy etilgan majburiy tartibga nopisandlik bilan qaralishi ko'chib kelayotganlar, ayniqsa, o'zboshimchalik bilan, beruxsat ko'chib kelayotganlar orasida kambag'allarning salmog'i katta bo'lishiga olib keldi.

Ko'chirib keltiriluvchilar tarkibi quyidagi asosiy toifalardan: 1) xizmat muddatini o'tab bo'lib, bu erda katta imtiyozlar evaziga qolgan askarlardan. Ularning ko'pchiligi oila boshiga 7 desyatinadan er olib, uni ersiz dehqonlarga teng sherikchilik asosida ijaraga berardi; 2) 1861-yil islohoti oqibatida

⁶⁴ O'zMA, I-1 fond, 2-ruyxat, 1905-yig'ma jild, 2-varaq.

⁶⁵ Закон от 10 июля 1881 г. -СПб, 1881 г..

qashshoqlashgan, dastlab Primore, Sibirga, boshqa mintaqalarga jo'natilgan, lekin u yoqlardan Turkistonga hamda Dasht o'lkasiga beruxsat ko'chib kelgan dehqonlardan; 3) tashkiliy ravishda, yo'l hujjatlari asosida ko'chib kelgan, shu sababli yangi joyda etarli miqdorda er bilan ta'minlangan, harbiy xizmatdan, soliqlar va to'lovlardan 3-5 yilga ozod qilingan krestyanlardan iborat edi. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, Turkiston endigina mustamlakaga aylantirilayotganda Yettisuv va Sirdaryo viloyatlarida rus armiyasida xizmatini o'tab bo'lgan askarlarning, metropoliyadan ko'chib kelgan krestyanlarning oilasidagi har bir erkak nafariga 30 desyatinagacha er berilgan. Yangi ko'chib kelgan krestyanlar barcha soliqlar va to'lovlardan ozod etilgan. Bundan tashqari, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan krestyanlarning har bir oilasiga 100 rubl uzoq muddatli qarz (ssuda) berilgan edi⁶⁶.

Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarning deyarli hammasi, ba'zi istisnolar bilan, tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga nisbatan buyuk davlatchilik-shovinistik munosabatda va jangarilik kayfiyatida edi. Boz ustiga, metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarning nemislar, nasroniy sektalardan boshqa, hammasi jangovar miltiq bilan ta'minlangandi. Ayniqsa, ikkinchi toifaga kiritilganlarning aksariyati o'zini yovuzlarcha va surbetlarcha tutardi⁶⁷. Shuni ta'kidlash lozimki, noqulay erlarga joylashtirilgan nasroniy sektalarining muxlislari – mennonitlar, baptistlar va boshqalar tub aholi bilan ancha chiqishib yashasa-da, harbiy majburiyatdan ozod qilish, e'tiqod erkinligini kafolatlash va hokazo talablari bilan mustamlakachi ma'muriyatga ancha tashvish keltirishardi.

Shuning uchun asosan nemislardan iborat bo'lgan mennonitlar ommasi Amerikaga jo'nab ketib, keyin Rossiyaga qaytib kelishga majbur bo'lganida ularning talablari rad etilgandi. SHunday bo'lsa-da, imperiya hukumati mennonitlarga (nemislarni bir diniy ayirmachi oqimi) joylashishda ancha engil sharoit yaratib berilishini va'da qilib, Turkistonga ko'chishni taklif qilgan.

⁶⁶ Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. – Спб., 1910, С. 9.

⁶⁷ O'sha joyda – B.81

Shundan keyin, 1879-1882-yillarda yuzlab nemis oilalari bu o'lkaga ko'chib kela boshladi.

Dastlab tashkil etilgan Sirdaryo va Yettisuv viloyatining farqli tomonlari shunda ediki, birinchidan, Yettisuvga kazaklar ko'chirilgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatiga asosan rus dehqonlari ko'chirilgan edi. Ikkinchidan, ixtisoslashuviga ko'ra Yettisuv viloyati aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullansa, Sirdaryo viloyati hududlarining asosiy qismi madaniy viloyatlar sanalib, agrar soha yuqori rivojlangan edi. Uchinchidan, Sirdaryo viloyatiga ko'chib keluvchilar milliy-etnik jihatdan turli tuman edi.

Masalan, Avliyoota, Toshkent, Chimkent uездlarida alohida mennonit, lyuteran, polyak, yaxudiy, kavkaz posyolkalari mavjud edi. Birgina Avliyoota uездida 5 ta, Toshkent uезді Qoplonbek volostida 1 ta nemis mennonitlari posyolkalari mavjud bo'lgan. XIX asrning oxiriga kelib bunday qishloqlar soni 16 taga etdi.

1882-yilda Sirdaryo oblastining Avliyoota uездida 7 nemis qishlog'i bo'lib, aholisi 1400 kishidan oshiq edi. Biroq, mennonitlar jamoalarining katta qismi imperiya ma'muriyati tomonidan Buxoro amirligidan (Zirabuloq, Kattaqo'rg'on), Xiva xonligidan (Amudaryoning o'ng sohili) tortib olingan hududlargagina emas, balki Rossiya imperiyasiga qaram ushbu davlatlar tasarrufidagi erlariga ham ko'chishga majbur etildi.

Shundan ma'lum bo'ladiki, Sirdaryo viloyatining madaniy uездlari ko'chib keluvchilarning xo'jalik yuritishlari uchun qulay hududlardan biri hisoblangan.

Rossiya imperiyasining rusiyzabon aholini Turkiston o'lkasiga ko'chirish siyosati dastlab Yettisuv va Kaspiyorti hududlariga boshlanib, keyingi o'rinlarda Sirdaryo viloyatining Perovsk, Kazalinsk, Chimkent so'ngra, Avliyoota, Toshkent hududlarida amalga oshirildi. Sirdaryo viloyatiga rusiyzabon aholini ko'chirish Yettisuv va Kaspiyorti xududlaridan farq qilgan holda Yettisuv hududlariga kazaklarni, chorvador aholi ko'chirilgan bo'lsa, Kaspiyortiga dastlab tabiiy sharoitiga qarab asosan chorvador, baliqchilar ko'chgan edi. Sirdaryo viloyatiga

esa erining asosiy qismi unumdor erlar bo'lganligi uchun asosan asosan dehqonlar ko'chirilgan edi.

Rossiya imperiyasining rusiyzabon aholini ko'chirish siyosati va amaliyoti o'rganish: birinchidan, ko'chirib kelganlarning ko'p sonli armiyasi timsolida mustamlaka rejimining ijtimoiy tayanchini shakllantirish va mustahkamlash mexanizmlarini to'laroq tushunib olishga, ikkinchidan, aholini ko'chirish siyosatining uzoq muddat ta'sir o'tkazuvchi oqibatlari, jumladan, uning milliy, demografik tomonlari xususidagi bilimlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Ma'lumki, ajdodlarimizga nisbatan mustamlaka davri davomida o'zligini unuttirish, milliy kamsitish, ming yillik an'anaviy merosdan begonalashtirish yo'li tutildi. Mazkur strategik yo'lning muhim xalqalaridan biri sifatida rus tilida so'zlashuvchi aholini ko'chirib keltirish siyosati edi: mazkur siyosatning mafkurasi metropoliyadagi ortiqcha aholi resurslari muammosini hal etishdan tashqari ushbu o'lka aholisi tarkibini sun'iy ravishda ko'p millatli qilish bilan uni imperiyaga mustahkamroq bog'lash, bu erdagi aholining turkiy-etnik bir xilligini aniq maqsadga yo'naltirilgan holda kamaytirish hamda uni etnik-madaniy jihatdan Rossiya bilan yaqinlashtirishga ham qaratilgan edi. Jumladan, bu xususda yirik podsho amaldori, rus senatori K.K.Palen quyidacha yozgan: "...rus aholisi Turkistonda o'lkada imperiya hukmronligini to'la o'rnatish va uni Rossiyaga abadiy, mahkam bog'lamoq uchun iloji boricha ko'proq bo'lishi lozim⁶⁸.

Rossiya imperiyasining aholini ko'chirish siyosati tajribasini, uni Turkiston jumladan Sirdaryo viloyati jamiyati milliy-ma'naviy sohasiga ta'sirini, aholini ko'chirish siyosatidagi o'ziga xoslik va umumiy taraflarni o'rganish katta ilmiy - amaliy va siyosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Rossiyaning boshqa mustamlakalariga va undan qaram mamlakatlarga nisbatan Turkistonning strategik, iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati ancha yuqori bo'lgan. Rossiya imperiyasining Turkistonda o'rnatgan harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi, mintaqada joylashtirilgan ko'p sonli rus qo'shinlari va ko'chirib

⁶⁸ Пален К.К. Преложение к отчету ревизии Туркестанская края: Материалы к характеристика народного хозяйства Туркестана. Ч.1. отд 4.-Спб., 1911.- с 408, 504.

keltirilayotgan rusiyzabon aholi imperiyaning strategik mavqeini yanada mustahkamlashga xizmat qilishlari kerak edi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko'chiruvchilik siyosatini asosiy maqsadi, ko'chirib keltirilgan rus aholisiga tayangan holda Turkiston o'lkasida o'z mavqeini mustahkamlash, kelajakda mustahkam rus xo'jaliklarini yaratish orqali bu hududni imperiyaning bir qismi sifatida ko'rish edi. Rossiya imperiyasining Turkistonga, jumladan Sirdaryo viloyatiga rusiyzabon aholini ko'chirib keltirish siyosati demografik, milliy-etnik, ijtimoiy, diniy va mafkuraviy sohalarda jiddiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

II-BOB. ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIGA AHOLINI KO‘CHIRISH SIYOSATINING SABABLARI, MOHIYATI VA OQIBATLARI (XX ASR BOSHLARI)

2.1. Rossiya imperiyasi tomonidan aholini Sirdaryo viloyatiga ko‘chirish siyosatining ommaviy tus olish sabablari va “buyuk davlatchilik” mohiyati.

XX asrning boshlarida Rossiya imperiyasi siyosiy, iqtisodiy va geostrategik jihatdan og‘ir davrni boshidan kechirdi. Rossiya imperiyasining tashqi siyosati Sharqda Xitoy va Yaponiya, G‘arbda Germaniya va Avstro-Vengriya bilan munosabatlarni murakkablashishiga, AQSh bilan esa munosabatlarning, umuman yomonlashishiga olib kelgan edi. Rossiya Yaponiya bilan 1904-1905 yillarda urushda mag‘lubiyatga uchragani imperiyaning ahvolini yanada og‘irlashtirdi. Imperiya ma’murlari mamlakatdagi chuqur iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy buxronlarni tahlil qilgan holda eng dolzarb masala qishloq xo‘jaligida zarur islohotlarni amalga oshirish, ichki guberniyalarda sanoat tarmoqlarini kengaytirish va yangilash siyosatini yuritdilar.

Boz ustiga iqtisodiy inqiroz va 1900-1901 yillardagi hosilsizlik, qurg‘oqchilikning oqibatida mamlakatning 42 ichki guberniyalarida yoki Kavkazda dehqonlarning g‘alayonlari sodir bo‘lgani Rossiya imperiyasini tashvishga solgan edi. Shunday vaziyatda mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy inqirozni bartaraf qilish bo‘yicha turli takliflar, mulohazalar paydo bo‘ldi. Shu munosabat bilan alohida qayd etish zarurki, agar o‘lka zabt etilgan vaqtdan XX asrgacha o‘lkada rus aholi salmog‘ini oshirish, asosan, Turkistonda strategik, harbiy-siyosiy hukmronligini mustahkamlash bilan izohlangan bo‘lsa, yangi asrda birinchi o‘ringa metropoliyadan mumkin qadar ko‘proq dehqonlarni mustamlakaga ko‘chirish hamda Turkistonning resurslarini Rossiyadagi kapitalizm rivojiga xizmat qildirish vazifasi chiqdi.

Turli g‘oyalar, yondashuvlardan qat’iy nazar, bu vazifani hal etish uchun eng avvalo, agrar masala o‘z echimini topishi kerak edi. Turkistonga alohida urg‘u berilganining sabablari esa – Rossiya sanoati paxta, ipak, teri, jun va boshqa qishloq xo‘jalik xom-ashyosiga muhtojligi va bu erda tub aholining hisobidan

ruslarni joylashtirish, ayniqsa, Andijon qo'zg'olonidan keyin ko'rilgan ayovsiz choralardan so'ng ishlab chiqilgan rejalar bilan belgilanar edi. Amaldor va olim A.A.Kaufmannning yozishicha, 1901 yil 8 iyunda qabul qilingan qonunga binoan Osiyo Rossiyasida dvoryanlarga dehqonchilik uchun er berish mo'ljallangan edi, lekin bu qonun amalga oshmadi, chunki, masalan, O'rta Osiyoda hamda Sibirda pomeschchiklik er egaligi joriy bo'lmagan edi⁶⁹. Turkiston 1895-yildan ko'chiruvchilik uchun yopiq hisoblansa ham, 1901-1903-yillarda Rossiyadan bu erga ko'p shaharlik kambag'allar va krestyanlar hech qanday ruqsatsiz ko'chib kelishdi. Birgina Sirdaryo viloyatida o'sha yillarda 12 ta rus posyolkalari paydo bo'ldi⁷⁰.

XX asr boshlariga kelib, Turkistonning boshqa viloyatlari kabi Sirdaryo viloyatiga ham metropoliyadan birinchi navbatda baquvvat qishloq aholisini ko'chirish ancha kengaydi. Rossiya Harbiy vazirligi qoshida 1900-yilda tuzilgan maxsus komissiya o'lka iqtisodiyotidan, ijtimoiy imkoniyatlaridan Rossiyaning ichki iqtisodiy, ijtimoiy muammolarini hal etishda faolroq foydalanishga qaratilgan turli loyihalarni ishlab chiqqan edi. Shulardan biri, Turkistonda paxta etishtirishni yanada oshirish, rus aholining mavqeini mustahkamlash masalasi bilan bog'liq bo'lib, 1903 yil 10 iyunda qabul qilingan «Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlariga davlat erlariga rus qishloq obivatellarini (oddiy krestyanlarni – G.T.) va meshchanlarini ixtiyoriy ko'chirish qoidalariga»ga asos bo'ldi⁷¹.

Qonun kuchiga ega bo'lgan bu «qoidalar» mazkur viloyatlarda ochiqdan-ochiq buyuk davlatchilik ruhidagi agrar va ijtimoiy amaliyotga keng yo'l ochib berdi, chunki tub aholining oila boshiga faqat Sirdaryo viloyatining Toshkent va Xo'jand (dastlab Sirdaryo, keyinchalik Samarqand viloyati tarkibida) uездlarida 1,1 desyatina, boshqa uездlarda 0,5-0,7 desyatina sug'oriladigan er to'g'ri kelgan sharoitda⁷² Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlariga ko'chib keladigan ruslarga (har bir erkak hisobiga) 3 desyatina sug'oriladigan hamda jamoatchilik

⁶⁹ Кауфман А.А. Переселение и колонизация, ч.I, -С. 152-153.

⁷⁰ О'зМА. I-1 fond, 1-ro'yxat, 75-yig'ma jild, 62-varaq

⁷¹ О'зМА. I-1 fond, 11-ro'yxat, 906-yig'ma jild, 17-18-varaqlar. Закон от 10 июня 1903 года. Спб., 1903.

⁷² Абдурахимова Н, Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX - I четверти XX вв., С. 64.

asosida foydalanish uchun keragicha va imkoniyatlarga ko'ra boshqa erlar berilishi rejalashtirilgan edi. Imperiya ma'muriyati tomonidan 1904-yil 6-iyunda Sibirga, Turkistonga va Dasht o'lkasiga rus qishloq aholisining erkin ko'chishi to'g'risidagi qonun e'lon qilindi⁷³. Ayni vaqtda, dehqonchilik va davlat mulklari Bosh boshqarmasi Turkiston tub aholisi uchun ortiqcha deb topiladigan erlarni musodara qilish, tortib olish masalasi bo'yicha bir qator takliflarni tayyorlagan edi.

Umuman, rus dehqonlarga nisbatan mahalliy dehqonlar egalik qilgan ekinga yaroqli er bilan ancha kam ta'minlangan edi. Buni 1910-1911 yillarda Sirdaryo viloyati bo'yicha bo'lgan raqamlar misolida ko'rish mumkin⁷⁴.

Rus dehqon xo'jaliklari soni 7360 tani, don ekiladigan er maydoni 57660 desyatinani tashkil qilgan. Har bir xo'jalikka hisoblaganda 1910 yilda 7.1 desyatinani, 1911-yilda esa 7.8 desyatinani tashkil qilgan. Mahalliy dehqon xo'jaliklar soni 263235 tani, don ekiladigan er maydoni esa 104995 desyatinani tashkil etgan. Har bir xo'jalikka hisoblaganda 1910 yilda 3.2 desyatinani, 1911-yilda esa 3.4 desyatinani tashkil etgan. Shuning o'zi ham masalaning asl holatini ochib beradi. 1910-1911 yillarda rus krestyanlari mahalliy dehqonlarga qaraganda ancha ko'p ekin maydonlariga ega bo'lganligi Sirdaryo viloyati uездlar misolida namoyon bo'ladi⁷⁵.

Toshkent uездida har bir xo'jalikning er maydoni 1910-yilda 11.9 desyatinani, 1911-yilda 9 desyatinani tashkil etgan. Chimkent uездida har bir xo'jalikning er maydoni 1910-yilda 5.6 desyatinani, 1911-yilda esa 8.2 desyatinani tashkil etgan. Avliyoota uездida har bir xo'jalikning er maydoni 1910-yilda 6.8 desyatinani, 1911-yilda esa 7.4 desyatinani tashkil etgan. Perovsk uездida har bir xo'jalikning er maydoni 1910-yilda 1.7 desyatinani, 1911-yilda esa 1.6 desyatinani tashkil etgan. Sirdaryo viloyati bo'yicha har bir xo'jalikning er maydoni 1910-yilda 7.8 desyatinani, 1911-yilda esa 7.1 desyatinani tashkil etgan. Shuni ham aytib o'tish mumkinki, Perovsk uездida atigi 275 rus krestyanlari yashagan. Mustamlaka

⁷³ Полное собрание законов Российской империи. Собрание третье. т. XXIV, СПб, 1907. С. 603-607.

⁷⁴ Обзор состояния Туркестанского края за 1911 год, С. 42.

⁷⁵ Гофоров Ш.С. Тарих ва тақдир; Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Т., "Фан"-2006.

davri va sovet yillari adabiyotida Turkiston Rossiya tomonidan istilo qilinishidan oldin uning qishloq xo'jaligi endi tovar xarakterini kasb etayotganligi qayd qilinadi. Bu kabi mulohazalarga qisqacha to'xtalib, o'lka mustamlaka qilinishidan ancha oldin uning o'troq aholisigina emas, balki ko'chmanchi aholisi ham, dehqonchiligi, ayniqsa, sug'orma dehqonchiligi, tovar munosabatlar asosida rivojlangan edi. XIX asrda Turkiston qoramol va qo'y tuyog'i bo'yicha jahonda etakchi o'rinlardan birini egallagani ham fikrimizni isbotlaydi.

Tarixiy fakt uchun shuni qayd etib o'tish zarurki, qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlovchi, tayyor mahsulot chiqaruvchi tarmoqlar etarli bo'lmagani sababli uning ko'p qismi xom ashyo: paxta tolasi, ipak tola, ko'n, mo'yna, qoramol teri, quruq mevalar va hokazolar tarzida sotib yuborilardi. Bu davrda qishloq xo'jalik, mehnat qurollari, dehqonchilik agrotexnikasi ancha oddiy bo'lganligi, ko'chirib keltirilgan ruslarni joylashtirishga erishilmagan bir qancha olis tog' va tog'oldi joylarda esa erdan an'anaviy jamoa bo'lib foydalanish saqlanib qolganligi bizga ma'lumdir. Imperiya hukmron doiralarining Turkistonning tub qishloq aholisini boshqa xom ashyolar singari past narxda sotib olinadigan paxta etishtirishga majbur qilish hisobiga, Rossiya to'qimachilik sanoatini rivojlantirishni ta'minlashga intilishi natijasida, 1867-1916-yillar oralig'ida Rossiya sanoati qayta ishlaydigan paxtaning umumiy hajmida Turkiston hissasi 6,6 foizdan 70 foizga ortdi⁷⁶. Bu yillar ichida Turkistondan metropoliyaga tashib ketiladigan paxta natural ifodada 639193 pud⁷⁷ 20 million pudga⁷⁸, ya'ni deyarli 30 baravar ko'paydi. Turkistonda paxta etishtirish uchun ajratilgan erlarning maydoni 1870-1916-yillarda 54 ming desyatinadan deyarli 681 ming desyatinagacha oshdi⁷⁹. Paxtachilikda Sirdaryo viloyatining Toshkent, Chimkent, Avliyoota uездlari etakchi edi.

O'lkada g'alla etishtirish yil sayin kamaydi. Rossiyadan g'allani ulgurji etkazib beradiganlar bu ahvoldan foydalanib, bug'doy bilan paxta narxidagi nisbatining buzilishi hisobiga katta daromad oldilar. Chunonchi, 1 pud paxta 8,5

⁷⁶ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне Октября, С. 31.

⁷⁷ Зияев К. Ўзбекистон пахтачилиги тарихидан. – Тошкент, 1980, Б.18.

⁷⁸ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана. С. 33.

⁷⁹ O'sha joyda – В. 29.

rubl turgani holda, 1 pud bug‘doy 7 rubl va undan ortiq baholangandi, vaholanki ularni etishtirish uchun sarflanadigan mehnat va mablag‘ butunlay turlicha edi⁸⁰.

1906 yilda Sirdaryo viloyatida 3 mln 100 ming pud bug‘doy etishtirilib, viloyat aholi jon boshiga taqsimlanganda o‘rtacha 15.9 kg.dan to‘g‘ri kelgan. Shu davrda Farg‘ona viloyatida etishtirilgan bug‘doy aholi jon boshiga- 13.3 kg, Samarqand viloyatida - 11.10 kg ni tashkil etib, butun o‘lka aholisi jon boshiga bug‘doy taqsimoti -14.3 kg miqdorida edi⁸¹. Donli ekinlar etishtirish boshqa Turkiston viloyatlariga qaraganda Sirdaryo viloyatida ko‘pligi erlarining kengligi, lalmikor erlarning aholi soniga nisbatan ko‘pligi bilan izohlash mumkin.

Sirdaryo viloyatida paxta maydonlari kengayib borib, 1880 – 1913 yillarda 139 foizga oshdi. Bu ko‘rsatilgan yillarda Samarqand viloyatida-288 foiz, paxtachilik eng ilg‘or Farg‘ona viloyatida -700 foizga paxta maydonlari kengaygan edi. 1890 yilda uchta viloyatda paxta maydonlari 92889 desyatinani tashkil etgan bo‘lsa, 1915 yilda – 523614 desyatinaga etdi. Paxta maydonlarining ko‘rsatilgan yillarda 10-11 barobar ko‘payishi “paxta yakkahokimligi”ni vujudga kelish jarayonini tezlashtirdi⁸².

Rossiya imperiyasining Turkistondagi agrar sohaning etakchi tarmog‘i paxtachilik bo‘lganligi Rossiyaning Turkiston siyosatida uchta masala: a) paxta masalasi, b) temir yo‘llar yotqizish, v) ko‘chirish masalasi muhim ekanligidan kelib chiqqan. Rossiya imperiyasi Farg‘ona viloyatiga ko‘chgan aholidan paxta etishtiradigan xo‘jaliklar yaratmoqchi edi. Istiqbolda Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida 3 mln. desyatina er o‘zlashtirilib, 1,5 mln.li 300 ming xonadon yashashi rejalashtirilgandi⁸³.

Turkistonda paxtachilik ko‘lamining kengayishi, don etishtirishning kamayishi hamda o‘lkaga Rossiyada ishlab chiqarilgan keng iste‘mol mollarini keltirishning ko‘payishi, ayni mahalda, zakot saqlanib qolgani holda hunarmandchilik solig‘i joriy etilishi vositasida an‘anaviy hunarmandchilik ishlab

⁸⁰ O‘sha joyda – B. 30.

⁸¹ О производстве хлебов в Туркестан//Туркестанский сборник, Том.500.-С.85-86.

⁸² Юлдашев А. М. Аграрные отношения в Туркестане (конец XIX- начало XX вв.)Т,1969, С.141-142; Элова Д. XIX аср охири - XX аср бошларида Туркистонда янги техникалар тарқалишининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий ҳаётга таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Бухоро. 2022.- Б.42.

⁸³ Виды урожай хлопка// Туркестанский сборник.Том.478. –С.90.

chiqarishining siqib qo'yilishi tufayli yuzaga keladigan og'irlik tub aholi elkasiga tushardi.

Tub aholining 2/3 qismidan ortiqrog'ini qishloq aholisi tashkil qilgani bois shuni ta'kidlash mumkinki, imperiya senatori F.K.Girs taklifi asosida mustamlakachilar tomonidan kiritilgan, ko'chmanchi o'tovidan va o'troq qishloq aholisi oilasi yoki xonadonidan emas, umuman, har bir volostdan pul shaklida davlat er solig'i olish⁸⁴, er rentasi (xiroj) o'rniga dehqonchilikdan keladigan daromadidan olinadigan soliqni kiritish, metropoliyadan keltiriladigan ip-gazlama mato narxi nazoratsiz oshib borgani holda paxta tolasiga me'yorlangan baho belgilash, irrigatsiya tarmog'ini yaxshi holatda tutib turish uchun vaqti-vaqti bilan (1904 hamda 1914-1916-yillarda) soliq to'plash, harbiy soliq singari yangi tartib-qoidalar ham mahalliy aholi zimmasiga tushgan. Mustamlakachi ma'muriyat tub qishloq aholisidan oladigan soliq, qanday sur'atlar bilan oshirib borgani to'g'risida shu holat dalolat beradi-ki, 1917-yilga kelib soliqlar miqdori (pul bilan ifodalaganda) 1869 yildagiga nisbatan deyarli 20 baravar ortgan⁸⁵.

Mustamlaka ma'muriyati tub aholidan ishlov beriladigan erlarni hamda yaylovlarni metropoliyadan ko'chirib keltirilganlarni joylashtirish, davlat er fondini vujudga keltirish, buyuk knyazlar qo'rg'onlari uchun erlarni mustamlakachilarcha tortib olish amaliyotini asosan kuch bilan keng qo'llangan holda, sanoatchilar, banklar va savdo shirkatlari, Rossiya firmalarining manfaatli ishtiroki bilan dastlabki yigirma-o'ttiz yil ichida Turkiston qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli universal xususiyatini jiddiy ravishda o'zgartirib, Markaziy Evropa to'qimachilik va engil sanoatiga bo'ysundirilgan xom ashyoga, eng avvalo paxtaga ixtisoslashtirdilar. Turkiston ham, Buxoro amirligi va Xiva xonligi singari, asosan agrar mintaqa bo'lgani, aholisini ko'pchiligi natural xarakterdagi emas, balki bozorga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik bilan shug'ullangani bois tub xalqlar iqtisodiy mustaqillikdan mahrum etilgani, ishlab chiqarish kuchlarining bir yoqlama rivojlanishiga olib keluvchi paxta yakkahokimligi

⁸⁴ Гирс Ф.К. Отчет о состоянии Туркестанского края. – СПб., 1883. С. 112.

⁸⁵ Социально-экономические и политические положение Узбекистана, С. 35.

o'rnatilgani, tub qishloq aholisi orasida kam erli va ersizlar soni keskin ko'payganligi, uning kambag'allashuvi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatining eng jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari sifatida keltirish mumkin.

Rus dehqonlarni dehqonchilik hududlarda joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan temir plug, mexanik seyalkalar, o'rish mashinalari, mineral o'g'itlar, bahorikor ekinlarga ishlov berish agrotexnikasi singari yangiliklar esa ko'chirib keltirilgan rus aholi uchungina bo'lib, hukumat ularni tashkiliy, siyosiy va moddiy qo'llabgina qolmay, qurol bilan ham ta'minlab, o'zlarining «iqtisodiy» imkoniyatlarini oshirib borardi. Ahvol shunday bo'lishiga qaramay, tub qishloq aholisi jinoyatlarga moyil bo'lmagani, halol mehnatga, jamoa, oila turmush an'analariga sadoqatini yo'qotmagani va ustiga ustak o'z turmush tarzi bilan Rossiyadan ko'chirib keltirilganlarga muayyan ta'sir ko'rsatganligi g'oyat muhimdir.

Shunda ham imperiyaning hukmron doiralari Turkiston o'lkasini boshqarish Rossiya xazinasiga ko'p millionli ziyon etkazmoqda, deb surbetlik bilan ta'kidlashardi. Aslida esa, o'lka iqtisodiyotini metropoliya manfaatlari yo'lida ekspluatatsiya qilishni kuchaytirgan temir yo'l ham qurilmasidan oldinoq rus hukumati har yili kamida 7 million rubl foyda ko'rardi⁸⁶. Ushbu muammoni biladigan yuqori martabali mustamlakachi amaldorlardan biri (N.P.Veroxovskiy): «Bu jannatmakon o'lkaga sarflangan har bir tiyin yuz baravar bo'lib qaytib keladi, shu bois hech qanaqa davlat xarajatlari bejiz ketmaydi va ular qancha ko'p berilsa, oqilona sarflangan taqdirda, shunchalik tez o'zini qoplaydi hamda o'zini ta'minlash uchun davlat xarajatlarini to'labgina qolmay, balki katta daromad keltirishga ham qodir bo'lgan o'lka farovonligining jiddiy poydevori bo'lib ham xizmat qiladi»⁸⁷, - deb alohida qayd etishda asos bor edi. Turkistonning Rossiya uchun juda boy va daromadli mintaqa sifatidagi qimmatini uning Rossiya imperiyasi ag'darilgandan keyin hokimiyat tepasiga kelgan Muvaqqat hukumat aholini

⁸⁶ Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – 100-101 бетлар; Погребинский А.П. Налоговая политика царизма в Средней Азии в 1860-1880 гг. // Исторические записки. Т.66. – М., 1960. С.294.

⁸⁷ Труды III съезда деятелей по сельскому хозяйству Туркестанского края, С. 447.

ko'chirish va mustamlakachilik masalalari bo'yicha Komissiyani tuzdi. Bu komissiya yuzaki islohotlar loyihasini ishlab chiqishi, lekin asosan Turkistonni Rossiya tarkibida saqlab qolish choralarini taklif etishi darkor edi⁸⁸.

Biroq 1904-1905-yillargi rus-yapon urushi bu boradagi rejalarni, umuman, agrar islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qildi. 1906 yil 9 noyabrda e'lon qilingan Rossiyadagi agrar islohot Rossiyaning ichki guberniyalarida krestyanlarning ahvolini og'irlashishiga olib keldi va ularni chet o'lkalarda najot istashga undadi. Shuning uchun ham ko'chiruvchilik harakati kengayib boraverdi. Dastlab Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, so'ngra 1907-1908-yillarda Turkiston general-gubernatori bo'lgan N.I.Grodekov mustamlakada nasroniy aholining salmog'i juda oshganini, bo'sh erlar yo'qligi va tub joy aholiga tegishli erlarni muntazam ravishda musodara qilishning xavfli ekanligini hisobga olib, Rossiyadan aholini ko'chirib keltirishni biroz kamaytirish va o'lkada yangi erlarni sug'orish, o'zlashtirish haqida o'z takliflarini imperiya rahbariyatiga kiritdi⁸⁹. Bu takliflar inobatga olinmasa-da, keyinroq ular graf K.K.Palen va Dehqonchilik Bosh boshqarmaning boshlig'i A.V.Krivoshein tomonidan qo'llab-quvvatlandi va to'ldirildi.

XX asr boshlariga kelib ko'chiruvchilarning yaxshi nazorat qilinmayotgan oqimi ko'lamining bu qadar kattaligi ko'chib kelganlarning tub aholiga nisbatan bedodligi bilan birga mustamlakachi ma'muriyatning ishini qiyinlashtirib qo'yishini yaxshi anglagan P.A.Stolipin taklif etgan agrar islohotining Rossiya ichidagi oqibatlarini mustamlakalar hisobiga yumshatishga harakat qilgan imperiya ma'muriyati asosiy muammoni – ko'chirib keltirilganlarni er maydonlari bilan ta'minlash, ya'ni hal etish yo'lini izlay boshladi. Gap shundaki, bu davrda Turkistonda bo'sh davlat erlari qolmagani holda o'troq aholidan, hatto ko'chmanchi aholidan yoki ekiladigan va yaylov erlarni zo'rlik bilan tortib olish amaliyotini davom ettirish imkoniyati ham qolmagandi.

⁸⁸ Вопросы колонизации (Петроград). 1917. №20. С. 136-167.

⁸⁹ Левтеева Л.Г. Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках, С. 71-72.

Bu haqda imperiya hukumatiga va Rossiyaning sanoat-moliya doiralariga Turkistonni tekshirish, taftish qilish natijalari bo'yicha hisobotlardan, mustamlakachi harbiy-ma'muriy organlarning ma'ruzanomalaridan ham ma'lum edi. Masalan, 1907-yilda Turkistonga 427339 nafar ko'chirilganlar etib kelgach va o'lkada 15 yangi rus qishloqlari paydo bo'lgach⁹⁰, Turkiston harbiy okrugining Bosh shtabi 1908-yil 13-yanvarda Rossiya harbiy vaziriga yo'llagan ma'ruzanomada, xususan, quyidagilarni bildirdi: «Er tuzish va dehqonchilik Bosh boshqarmasi tomonidan Turkistondagi ko'chirish siyosati yo'nalishi bilan Turkiston general-gubernatorining fikri o'rtasidagi tub ziddiyat shundan iboratki, mazkur Boshqarma Rossiyaning ichki, asosan Evropa qismi guberniyalaridan aholini Turkistonga bag'oyat jadallik bilan ko'chirib keltirib joylashtirishni mumkin bo'lgan va juda muhim ish deb va Turkiston ma'muriyati bu ishga ko'maklashishni, yumshoq qilib aytganda, aslo istamayotganini bu ishga yagona to'siq deb hisoblaydi.

General-gubernator esa, o'z tomonidan, o'lkadagi ma'muriyatning boshqa vakillari singari, bunday joylashtirish davlat ahamiyatiga egaligini to'liq anglagani holda, ayni mahalda o'lkada bo'sh sug'orma erlar yo'qligini (ta'kid bizniki – G.T.) amalda isbotlamoqda»⁹¹. Turkistonda 1906-yilgacha kazaklar va rus krestyanlari uchun mahalliy dehqonlardan va ko'chmanchi aholidan 1 mln. 100 ming desyatina er tortib olingan edi⁹². Rossiyaning O'rta Osiyodagi hukmronligini mustahkamlashtirishga qaratilgan Er tuzish, dehqonchilik Bosh boshqarmasi Ilmiy qo'mitasining a'zosi A.A.Kaufman, senator, graf K.K.Palen singari va boshqa bir qator amaldorlar aholini ko'chirish ishini takomillashtirish bo'yicha ancha amaliy takliflarni, tavsiyalarni bayon etdilar.

Ularning taklif, tavsiyalari, asosan, Turkistonni talonchi rus amaldorlaridan tozalash, poraxo'rlikni, soliq-o'lpondan kelgan daromadlarni yashirishni tugatish, Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar uchun «har qanaqa kosib-hunarmandchilik erkinligini, erga xususiy mulkchilikni, ko'chmas mulkni biriktirib qo'yishning

⁹⁰ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 175-yig'ma jild, 5-6 varaqlar

⁹¹ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 175-yig'ma jild, 6-9 varaqlar.

⁹² Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Турк. Ч. II (таблицы). –СПб., 1911, С. 68.

soddalashtirilgan, arzon usullarini» yaratib berishdan, ko‘chirib keltirilganlarning dehqonchilik va xo‘jalik yuritish madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha choralarni amalga oshirish va hokazolardan iborat edi. Turli darajadagi amaldorlarning shu kabi takliflari hisobga olingan bo‘lsa-da, Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko‘chirish siyosatiga yondashuvida buyuk davlatchilik - shovinistik maqsadlar, uslublar ustunligicha qolaverdi.

Shu sababli, 1896-yil 2 dekabrda tuzilgan “Ko‘chirish boshqarmasi” 1905 yildan ichki ishlar vazirligi tarkibidan Dehqonchilik va davlat mulklari vazirligi tarkibiga o‘tkazildi.

1906 yilga kelib Turkiston o‘lkasida o‘z eriga ega bo‘lmagan, o‘zboshimchalik bilan kelgan 2000 nafar atrofidagi qiyin ahvolda qolgan rus oilalari borligi, ular mahalliy qirg‘iz (qozoq) aholi erlariga joylashib olish bo‘yicha tashviqot qilayotganligi manbalarda keltirilgan⁹³. Albatta ersiz rus aholini joylashtirish masalasining markazida Samarqand va Farg‘ona viloyatlariga qaraganda bo‘sh er fondlari ko‘p Sirdaryo viloyati turar edi.

Sirdaryo viloyati uездlarida ko‘chib kelganlarning har bir oilasiga, 10 desyatina ekin eri, 1 desyatina bog‘, tomarqa va qurilish uchun er ajratildi. Bu me‘yorni Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov belgilagandi. U keyinchalik 1907-1908 yillarda Turkiston general-gubernatori lavozimiga ko‘tarilgan edi.

Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori Turkiston general-gubernatoriga: «Rus mustamlakasi qanchalik mag‘lub bo‘lmasin, rus fuqarolarining farovonligi boshqa fuqarolarning erlarini zo‘rlilik bilan bosib olishga asoslanmasligi lozim», - deb yozgandi hamda «qirg‘izlardan sug‘orma erlarni sotib olish yo‘li bilan viloyatda yashovchi ko‘chib kelganlarning ahvolini tezda yaxshilash» choralarni ko‘rishni iltimos qilgandi⁹⁴.

Turkiston general-gubernatorligi hamda Sirdaryo viloyatining ma‘muriy markazi Toshkentda zudlik bilan ko‘chirish masalalari bo‘yicha maxsus kengash

⁹³ Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане –СПб., 1910.- С. 209-210.

⁹⁴ Гофоров Ш.С. Россия империясининг Туркистонга аҳолини кўчириш сиёсати (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср боши) Тарих фанлари бўйича докторлик диссертацияси. Т-2003., -195 б.

chaqiriladi. Mazkur kengashda o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan rusiyzabon aholi uchun mahalliy aholi bilan ziddiyatga bormay, kelishgan holda er-suv masalasini hal etish kerakligi tushuntirildi. Ko'chib kelgan aholi uchun iloji boricha dasht erlaridan er fondlari ajratish masalasi kelishildi. Masalaga echim sifatida Sirdaryo viloyatining Chimkent va Avliyoota uezdlarida ko'chmanchi chorvador aholi erlaridan foydalanish mumkinligi belgilandi⁹⁵.

Ushbu kengash tomonidan Sirdaryo viloyatida rusiyzabon aholini er bilan ta'minlash maqsadida quyidagi choralar belgilandi:

1. O'z eriga ega bo'lmagan rusiyzabon aholi uchun mahalliy ko'chmanchi qirg'iz (qozoq) aholi erlaridan 3 yilgacha bo'lgan muddatda, har bir oila a'zosi uchun jinsi va yoshidan qat'iy nazar 2 desyatinagacha ijaraga er olishga ruxsat berildi;

2. Ijara huquqi faqatgina erda o'z mehnati bilan ishlaydigan shaxsga tegishli bo'lib, mazkur erni boshqa shaxsga ijaraga bermaslik sharti belgilandi;

3. Ushbu ijara kelishuvi ovul boshqaruvi doirasida kelishilib, uez boshlig'i tomonidan tasdiqlanishi belgilandi⁹⁶.

Ushbu Kengashda:

1. Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori orqali barcha uezd boshliqlariga (ayniqsa Chimkent va Avliyoota uezdida) bo'sh er fondlarini izlab topish, u erlarda rus aholi manzilgohlarini tashkil etish belgilandi. Bunda ko'chmanchi aholi o'z erlaridan xohishicha rusiyzabon aholiga er berishga rozilik berganlariga, bu erlardan foydalanish huquqi ya'ni ijarador huquqi berish belgilandi;

2. Uezd ma'muriyati tomonidan ko'chib kelgan rusiyzabon aholi manfaatlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi belgilandi.

3. Ko'chib kelganlarni joylashib olishlari, xo'jalik yuritishlarini ijtimoiy-iqtisodiy himoyalash maqsadida Sirdaryo viloyati ma'muriy markazi Toshkent shahrida dehqon bankining filialini ochish va mahalliy manbalarni yo'naltirish;

⁹⁵ Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. С.211.

⁹⁶ O'sha asar. B.211

4. Rejalashtirilgan chora tadbirlar doirasida ko'chmanchi aholining erlaridan keng ko'lamda foydalanishni to'xtatmaslik, ko'chmanchi aholini erdan foydalanish huquqidan mahrum etmasdan, ularni ma'lum miqdorda moliyaviy rag'batlantirish belgilandi. Kengashning ushbu Qarori Turkiston general-gubernatori tomonidan 1906 yil 2 fevralda tasdiqlandi. Bunda rus aholining erlarni ijaraga olishi, ko'chmanchi aholiga er uchun haq to'lashga ruxsat berilishi bilan bog'liq qismi kuchga kirdi⁹⁷.

Biroq qabul qilingan qaro ijrosini ta'minlash bir qancha noqulayliklarni keltirib chiqardi. Birinchidan, Sirdaryo viloyatida keng hududlarda joylashgan qirg'iz (qozoq) ko'chmanchilari ovullari va yaylovlarida ijara tartibini nazorat qilish qiyinchilik tug'dirar edi. Ikkinchidan, joylarda ijara tartibini nazorat qiluvchi imperiya ma'murlari etishmasdi. Uchinchidan, mahalliy ko'chmanchi aholining tarqoq joylashganligi, er zahiralarini hisoblashdagi muammolar mavjud edi.

Shu bilan birgalikda ko'chib kelganlar ham tajribasizligi natijasida erlardan foydalanishda muvaffaqiyatga erisha olmadilar. Ular tomonidan ba'zi hollarda erlarini qayta ijaraga berishi, ijara to'lovi vaqti etgach erni tashlab ketishi kabi xollar kuzatilar edi. Bu ko'chib kelganlar va mahalliy aholi o'rtasida turli ziddiyatlar, ko'ngilsiz hodisalarni keltirib chiqarar, mazkur muammolar ma'muriyatning hududdagi vaziyatni xolis baholamaslik, mahalliy aholi manfaatlarini mensimaslik natijasida yuzaga kelar edi.

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan amalga oshirilgan choralar natijasida bu davrga kelib Turkistonning nafaqat Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlariga, balki asosiy hamda eng boy hisoblangan Farg'ona, Samarqand, Sirdaryo viloyatlariga ruslarni ko'chirish ancha faollashdi. Masalan, Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ko'chirib keltirilayotgan va o'zboshimchalik bilan ko'chib kelayotgan rus aholini ta'minlash uchun 1906-1910-yillarda 4432 desyatina sug'oriladigan erlar tub aholidan tortib olindi⁹⁸. Bu erlarda 8 mingdan

⁹⁷ Пален К.К. Переселенческое дело в Туркестане. С.212.

⁹⁸ Переселение и землеустройство за Уралом в 1906-1910 гг. – СПб, 1911. С. 51.

ko'proq ruslar yangi posyolkalarni barpo qilishdi⁹⁹. Boz ustiga, Turkistonga ko'chib borgan va borayotgan rus (belorus, ukrain) aholining ahvolini yaxshilash, tub aholiga nisbatan milliy, ijtimoiy zug'umni kuchaytirish maqsadlarida 1910-yil 19-dekabrda «Ko'chirish uchastkalariga aylantirish maqsadida, boshqa davlat ehtiyojlari uchun Turkiston ko'chmanchilarining ortiqcha erlarini ularning tasarrufidan chiqarib, musodara qilish to'g'risida» qonun qabul qilindi¹⁰⁰. Bu qonun, aslida, ko'chirib keltirilganlar, asosan pravoslav e'tiqodidagilar tomonidan tub qishloq aholi erlarining, mehnat qurollarining va ko'pincha mol-holining ham tortib olinishini rasmiy ravishda rag'batlantirib borganligini manbalarda uchratish mumkin.

Ko'chib kelgan rus dehqonlari shaharlar yaqiniga, shu shaharlarni bog'lovchi yo'llar chetiga, daryo bo'ylariga joylashib oldilar, ko'chmanchilarning qulay yaylovlarini bosib olib, ularni o'zlashtirish bilan cheklandilar. Sug'orma dehqonchilik mintaqalarida mahalliy dehqonlarning bo'sh erlarigina emas, balki ozgina bo'lsa-da, ortiqcha erlari ham bo'lmagani sababli hukumat minglab rus dehqonlarini joylashtirish uchun tub aholidan o'zi dehqonchilik qiladigan erning bir qismini yoki hammasini tortib olish yo'lini tutgan bo'lsa, ko'pincha esa bu ishni ko'chib kelganlarning o'zlari hech qanday ko'rsatmasiz amalga oshirar edi. Sirdaryo viloyatida ham ko'chib kelganlar hech qanaqa ruxsatsiz ko'chmanchi aholining qishlov erlariga joylashib olgani natijasida ruslar va mahalliy aholi o'rtasida juda katta to'qnashuvlar bo'lib turgan. Bu to'qnashuvlar o'lim xolatlarigacha borgan edi.

Biroq, Turkistonda tub aholidan tortib olingan «ortiqcha» erlarga o'ziga to'q dehqonlar emas, balki yanada qashshoqlashgan odamlar ko'chuvchilarning ko'pchiligini tashkil qilardi. Yangi erda kun ko'rishi qiyin bo'lganligi sababli, masalan, 1911-yilda ularning 81 foizi, 1913-yilda esa 99 foizi o'z yurtiga, ilgari yashagan mintaqalarga qaytib ketishdi¹⁰¹. Shunday vaziyatni hisobga olgan

⁹⁹ Гаврилов Н. Переселенческое дело в Туркестанском крае (области: Сырдаринская, Самаркандская и Ферганская). -С. 133.

¹⁰⁰ Вошинин В.П. Переселение и землеустройство в Азиатской России. Сборник законов и распоряжений. – СПб, 1915. С. 82-83.

¹⁰¹ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 574-yig'ma jild, 2-varaq. 104-107, 124-128, 153-155, 247-250 varaqlar.

imperiya hukumati tayyorlagan va 1914-yil 28-iyunda podsho tomonidan tasdiqlangan qonunga ko'ra Turkistonga «moddiy ta'minlangan, eng kami 1000 rub. turadigan mulkka ega nasroniylargina ko'chishi mumkin» edi¹⁰².

Ushbu yil avgustida boshlangan birinchi jahon urushi imperiyaning ko'chiruvchilik siyosatini tubdan o'zgartirdi. Taqqoslash uchun shuni ta'kidlash mumkinki, birgina Kaspiyorti viloyatiga 1915 yilda 27027 kishi, 1916 yilda 9826 kishi ko'chib keldi. Shularning uchdan ikki qismi hech qanday ko'chiruvchilik hujjatlariga ega bo'lishmagan¹⁰³

Sirdaryo viloyatiga 1901-1917 yillarda Rossiyaning ichki guberniyalaridan va Kavkazdan nasroniy aholini ko'chirish ilgarigi davrga qaraganda ancha faolroq va keng miqyosda amalga oshirilishini quyidagi sabablar orqali asoslash mumkin. Birinchidan, viloyat paxta, ipak, donli ekinlar etishtirish uchun qulayligi, ikkinchidan, ayni shu viloyatlarda sanoat, hunarmandchilik, savdo rivojlangan ekanligi, uchinchidan, viloyatda o'zlashtiriladigan er zahirasi mavjudligi, masalan, Chimkent, Avliyoota, umuman Sirdaryo bo'ylarida bo'sh er fondlari ko'p edi.

Bu esa Rossiyaning to'qimachilik sanoati qayta ishlashga ixtisoslashganligi bois paxtaning amerika navlarini ko'plab etishtirish istiqbollarini kengaytirardi. Sirdaryo viloyatining Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Turkiston hududlari bevosita paxtachilikka ixtisoslashgan edi. To'rtinchidan, Sirdaryo viloyatida ko'pgina qazilma boyliklar mavjudligi ma'lum edi. Rossiya kapitalistlari esa bu boyliklarni o'z manfaatlarini qondirish uchun sarflashga intilgan, shuning uchun tog'-kon, neftni, turli ma'danlarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etgan. Beshinchidan, Krasnovodskdan Ashxobod va Qizil Arvot orqali Toshkentgacha 1899-yilda temir yo'l o'tkazilgan bo'lsa, Orenburg-Toshkent temir yo'li XX asrning boshlarida o'tkazildi. Orenburg-Toshkent temir yo'li Sirdaryo viloyatining iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Chunki bu temir yo'l Turkiston general-gubernatorligining markazi Toshkentni Sirdaryo orqali Rossiya imperiyasining markaziy rayonlarini bog'lar edi. Shu tufayli Rossiyaga beqiyos ko'p paxta, ipak,

¹⁰² Воишин В.П. Переселение и землеустройство в Азиатской России. -С. 123.

¹⁰³ O'zMA, I-1 fond, 12-ruyxat, 1957-yig'ma jild, 23-varaq

mis, ko'mir va boshqa mahsulotlarni olib ketishdan tashqari, ilgari olib ketilishi qiyin bo'lgan yuklarni (tirik qo'y, qoramol, ot, parranda) ham tashishi uchun imkon yaratildi. Rossiya imperiyasi va mustamlaka ma'muriyati uchun temir yo'llar rus aholini, qo'shnlarni hamda zavod-fabrikalarga, konlarga, qishloq xo'jalikka zamonaviy texnikani asbob-uskunalarini, Rossiyada ishlab chiqilgan boshqa mahsulotlarni ko'plab etkazish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Misol sifatida bir qancha ma'lumotlarni keltirish mumkin.

Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Kaspiyorti viloyatlaridan va Buxoro amirligidan 1911-yilning o'zida temir yo'llar orqali Rossiyaga olib ketildi: qo'y va qoramol – 146817 bosh, otlar – 4804 bosh, tirik parranda – 320 pud, yog' – 24316 pud, teri – 703616 dona, qorako'l – 56066 dona, go'sht – 31031 pud, jun – 255 ming puddan ortiqroq¹⁰⁴. SHuni ham qayd etish mumkinki, Rossiyadan ko'chib kelayotgan krestyanlarga beriladigan sug'oriladigan erlar bo'lmagani va 2 mingdan ortiq oilalar ersiz bo'lgani uchun Turkiston o'lkasiga 1907-yildan aholini ko'chirish taqiqlandi. Lekin yana metropoliyadan aholi ko'chib kelaverganligini ko'ramiz. Masalan, Sirdaryo viloyatining Avliyoota uezdida 1906-1910-yillarda 18 ta, CHernyaev uezdida 19 ta, Toshkent uezdida – 19 ta, Perovsk uezdida – 3 ta yangi rus posyolkalari tashkil etildi¹⁰⁵. Taqqoslash uchun aytish mumkinki, 1906 – 1910 yillarda Samarqand viloyatida 5 ta, Kaspiyorti viloyatida 10 ta, Farg'ona viloyatida 12 ta yangi posyolkalar tashkil etilib unga rus aholi joylashtirildi¹⁰⁶.

1910-yil 19-dekabrda qabul qilingan qonunga ko'ra Turkistonga ko'chirib keltirilayotgan, aksariyat hollarda o'zboshimchalik bilan kelayotgan rus aholi tub millatli dehqonlardan, ko'chmanchi chorvadorlardan zo'rlik bilan tortib olish yo'li bilan erlik bo'lgan. Shu bilan birga, Mirzacho'lning Xo'jand uezdiga qarashli qismida, 1913-yilda Romanov kanali ishga tushirilgach, bu erga ko'chib keluvchi har bir oilaga 8-10 desyatınadan sug'oriladigan er berilishi tufayli tez orada 6 rus posyolkalari tuzildi¹⁰⁷.

¹⁰⁴ Обзор состояния Туркестанского края за 1911 год. – Ташкент, 1913. С. 18-21. (хисоб бизники – Г.Т.)

¹⁰⁵ О'sha joyda – В.75-76.

¹⁰⁶ О'sha joyda – В. 78-79

¹⁰⁷ Сельскохозяйственный обзор Туркестанского края за 1915 год. – Ташкент, 1916, С.22.

Umuman, Sirdaryo viloyatida 1916-yil 1-yanvarigacha tashkil qilingan rus posyolkalari va ulardagi aholining soni haqida quyidagi raqamlardan tasavvur etish mumkin. Keltirilgan raqamlarga temir yo‘l stansiyalari yonidagi posyolkalar, baliqchi posyolkalari va harbiy garnizonlardagi rus aholining hamda birinchi jahon urushi boshlanganidan keyin o‘lkaga keltirilgan harbiy asirlarning va qochoqlarning soni kirmagan.

Sirdaryo viloyati Toshkent uezdida 30 ta posyolka, 1571 ta xo‘jalik, 9520 nafar aholi; Chimkent (Chernyaev) uezdida 69 ta posyolka, 3750 ta xo‘jalik, 22015 nafar aholi; Avliyoota uezdida 84 ta posyolka, 5233 ta xo‘jalik, 32599 nafar aholi; Perovsk uezdida 7 ta posyolka, 294 ta xo‘jalik, 1615 nafar aholi; Jami: 190 ta posyolka, 10848 ta xo‘jalik, 65749 nafar aholi istiqomat qilgan¹⁰⁸. Shu bilan birga qayd etish lozimki, Rossiyadan Sirdaryo viloyatiga ko‘chib kelgan aholining juda katta qismi shaharlarda, harbiy garnizonlar, temir yo‘l stansiyalarida atrofidagi posyolkalarda va baliqchilar posyolkalarida muqim yashay boshlagan. Masalan, Toshkentning yangi (rus) qismida 1910-yilda rus, ukrain, belorus, yahudiy millatlariga mansub 70462 nafar kishi istiqomat qilgan¹⁰⁹. Shunga ko‘ra aytish mumkinki, A.P.Fomchenko Toshkentda 1914-yilda rus aholi 50 ming kishini tashkil qilgan¹¹⁰ - deb ko‘rsatishi xatodir. Sirdaryo viloyatining Perovsk, Kazalinsk va Amudaryo bo‘limida rus aholining aksariyati shaharlarda, temiryo‘lchilar, baliqchilar posyolkalarida joylashgan edi. Rossiyaning hukmron va harbiy doiralari uchun Turkistonda tom ma’noda “buyuk davlatchilik” siyosatini yanada kuchaytirishga birinchi jahon urushi bilan bog‘liq muammolar ham sabab, ham bahona bo‘ldi. Jahon urushi yillarida nafaqat Turkiston nafaqat aholisi, balki Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi uchun hayot kechirish haddan tashqari og‘irlashib ketdi, chunki bu davrda markaziy guberniyalardan ko‘chib kelayotganlarning oqimi bilan Rossiyaning g‘arbiy rayonlaridan kelayotgan 70 ming qochoqlarning oqimi qo‘shilib ketdi. Bundan tashqari, 1914-yil

¹⁰⁸ O‘zMA, I-18 fond, 1-ruyxat, 6869-yig‘ma jild, 7-8 varaqlar

¹⁰⁹ Обзоры Сырдарьинской, Самаркандской областей за 1910 год, С. 11-16.

¹¹⁰ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX- начале XX вв. (Социально-экономический аспект).-Т.,1983. -С. 72.

sentyabridayoq Turkistonga, ayniqsa, Samarqand, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariga Avstro-Vengriya, Germaniya, Polsha, Serbiya armiyalariga va cheklar, slovaklarning qo'shinlariga mansub asirlar jo'natila boshlandi.

Turkiya armiyasining Sibir lagerlaridan qochgan harbiy asirlari kela boshladi. 1917-yil fevralida o'lkada 200 ming nafardan ziyod harbiy asir bor edi¹¹¹. Sirdaryo viloyatining Chimkent, Avliyoota, Toshkent uездlari harbiy asirlar va qochoqlarni eng ko'p qabul qilgan markazlar edi. Ularni moddiy jihatdan ta'minlash tub aholining zimmasiga tushgandi. Turkiston ma'muriyati rus aholini o'lkaga yoppasiga joylashtirishdan tashqari, harakatdagi armiyaga yordam uchun mahalliy aholidan turli narsalarni zo'rlik bilan tortib olib, soliqlar miqdorini oshirdi, shuningdek, yangi soliqlar, jumladan harbiy va boshqa soliqlarni joriy etdi. Imperiya ma'muriyati tomonidan 1914 yil 24 dekabrda chiqarilgan Samarqand, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida sug'orma erlardan olinadigan soliqni 100 foiz va lalmi erlardan olinadiganini 50 foiz oshirish to'g'risida farmoyishi bundan dalolat beradi. General-gubernatorlikning Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlariga mazkur farmoyish tegishli bo'lmadi, chunki u erlarda sug'orma va ishlanma erlarning asosiy qismi podsholikka, kazaklarga, mustamlaka amaldorlariga, armiya zobitlariga ko'chirib keltirilgan ruslarga qarashli edi¹¹².

Shunday qilib, Rossiya aholisining bir qismini Turkistonga olib kelish sabablarini va shart-sharoitlarini va o'lka tub aholisining iqtisodiyotini, shu aholini soliqqa tortish tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash ko'chiruvchilik manzarasini yaqqolroq ko'rish imkonini beradi. Eng asosiysi, Rossiya imperiyasi va mustamlaka ma'muriyati 50 ming kishilik rus armiyasini saqlab qolish, oshkora mustamlakachi va buyuk davlatchilik-shovinistik hokimiyat tizimini yaratish, Rossiya imperiyasi deyarli 600 ming desyatina sug'orma erni deyarli 2 million desyatina ishlanmaydigan lalmi erlarni zo'rlik bilan tortib olib, bu erlarga

¹¹¹ O'zMA, I-25 fond, 1-ruyxat, 182-yig'ma jild, 16-17-varaq; История народов Узбекистана. Т. II. – Т., 1947; Шипек А. Военнопленные и их использование в мировой и гражданской войне. // Война и революция. М., 1928, №2; Матвеев А.М. Из истории иностранных интернационалистов в Средней Азии (1918-1920 гг.). // Труды ТашГУ, вып. 169. – Т., 1960.

¹¹² Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период), С. 98.

Turkiston shaharlariga metropoliyadan 750 mingga¹¹³ yaqin rus krestyanlarini, kazaklarni va shahar kambag'allarini ko'chirib keltirib joylashtirishga erishdilar. Buning oqibatida Turkiston halqlari iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotida jiddiy o'zgarishlarga, tub aholining ijtimoiy hayotiga sezilarli va salbiy ta'sir qiluvchi salbiy oqibatlarga olib keldi.

Turkiston general-gubernatorligining Kaspiyorti, Yettisuv, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida imperiya ko'chirish siyosatining 1847-1867, 1874-1886 yillarda rejali, majburiy ko'chirish bosqichida aholining ommaviy ko'chib o'tishi yuz bergan. Ma'lumot uchun, 1886-1899 yillarda Samarqand viloyatida 10 ta rus posyolkasida 716 oila 3381 nafar aholi istiqomat qilardi. 1917 yilga kelib Samarqand viloyatida 20 ta rus posyolkasida 8500 nafar ko'chirilganlar istiqomat qilgan¹¹⁴. Rusiyazabon aholi soni esa butun viloyatda 8500 dehqonga 21706 nafar shaharliklarni qo'shib hisoblaganda 30200 nafarni tashkil etgan¹¹⁵.

Sirdaryo viloyatida 1874 yildan 1891 yilgacha 1300 ta oiladan iborat 20 ta, 1891-1893 yillarda yana 22 ta rus posyolkasi tashkil etilgan. Viloyatda 1900 yilga kelib 20000 rus aholisi 48 ta rus posyolkasida jamlangani qayd etilgan¹¹⁶.

Turkiston general- gubernatorligining boshqa ichki viloyatlari bilan bog'liq dalil va raqamlarni keltirishdan ko'zlangan maqsad, rus aholi ko'chirilgan hududlarning holati haqida tasavvur hosil qilishdir.

Ma'lumki, Rossiya imperiyasining janubiy va janubiy-g'arbiy guberniyalarida ocharchiliklar sodir bo'lib turgan. Navbatdagi ocharchilik 1891 yilda sodir bo'lib, ochlik va qashshoqlik girdobida qolgan aholining 3000 oilasi 1891-1892 yillarda Turkistonga ko'chdi. Bu davrda Sirdaryo viloyati ko'chuvchilarni juda katta qismini qabul qiluvchi va qayta taqsimlovchi viloyat rolini o'ynagan. Ko'chirish boshqarmalari qoshidagi ko'chirish saroylari va punktlarida rus aholi uzoq muddat navbat kelishini kutib yashagan. Eng katta ko'chirish saroyi Toshkent shahridagi

¹¹³ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX- начале XX вв.(Социально-экономический аспект).-Т.,1983. -С. 71.

¹¹⁴ O'zMA, I-17- fond,1-ro'yxat, 2698- yig'ma jild, 23,26- varaqlar; I-7- fond,1-ro'yxat, 5020-yig'ma jild, 45- varaqa, shu fond, 5083 yig'ma jild 1,2,3,4-varaqlar, 13,14-varaqlar.

¹¹⁵ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX- начале XX в. (Социально-экономический аспект). –Т.: Фан, 1983.-С. 71.

¹¹⁶ O'sha joyda B.39.

temir yo‘l voqzaliga yaqin joyda bo‘lgan edi. Ko‘chirish punktlari Toshkent, Chimkent, Avliyoota uезд markazlarida mavjud edi.

Sirdaryo viloyatida 1867 yillardan 1917 yilgacha bo‘lgan davrda 190 ta rus posyolka va qishloqlari tashkil etildi. Ushbu posyolka va qishloqlarga 72500 nafar rus aholi joylashtirildi. Sirdaryo viloyatining Avliyoota uезdi ko‘chirilgan rusiyzabon aholini qabul qilish bo‘yicha etakchi edi. Ushbu uездda 84 ta rus posyolka va qishloqlari mavjud bo‘lib u erda 40.000 nafar rusiyzabon aholi istiqomat qilgan. Viloyatning Chimkent uездida 69 ta qishloq va posyolkada 20000 ming nafar rusiyzabon aholi, Toshkent uездida 28 ta qishloq va posyolkalarda 8.500 nafar, Perovski уездida 7 ta posyolkada 1600 nafar, Amudaryo bo‘limida 2 ta posyolkada 600 nafar rus aholi, Kazalinsk uездida 2 ta harbiy istehkom va temir yo‘l stansiyasida 2916 nafar harbiy kazaklar va rus aholi qayd etilgan¹¹⁷.

Shunday og‘ir ahvolni biroz bo‘lsada engillashtirish o‘rniga Rossiya imperiyasi Rossiyadagi ijtimoiy muammolarning bir qatorini Turkiston aholisining hisobidan hal etish siyosatini va amaliyotini ko‘chaytirdi. Bu borada imperatorning Turkistonda ko‘chmanchi aholidagi ortiqcha erlani olib ko‘chib keluvchilar uchun berish va davlatning boshqa ehtiyojlari uchun foydalanish maqsadlari to‘g‘risida nomli qonuni tub aholi uchun nihoyatda salbiy oqibatlarni keltirdi. Birgina natija sifatida quyidagi raqamlarni ko‘rsatish mumkin: 1916 yilga kelib Turkistonda faqat rus, ukrain, belarus aholining soni 350 mingdan oshdi. Ulardan tashqari 250 mingga yaqin ozarbayjon, armani, yahudiy va boshqa ko‘chirib keltirilganlar va qochoqlar yashagan. Eng ko‘p sharqiy slavyan aholi Sirdaryo (97 ming kishi) viloyatida joylashgan edi¹¹⁸. Rossiya birinchi jahon urushda qatnashayotgan vaqtda ham Turkistonning cho‘l o‘lkasining moddiy boyligidan, tub aholining mehnatidan beayov foydalandi. 1914 yilning oxiridan davlat zayomi va maxsus harbiy soliq hisobiga pul faqat tub aholidan majburan undirish boshlandi. Urush yillarida rus armiyasini ta‘minlash uchun Turkistondan 300 ming pud (1pud=16 kg) go‘sht, 70

¹¹⁷ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX- начале XX в. (Социально-экономический аспект). –Т.: Фан, 1983.-С. 71.

¹¹⁸ O‘zMA, I-1 fond.1 ro‘yxat, 769 ish, 80-81 varaqlar.

ming ot, deyarli 13 ming tuya, 270 arava va 13441 yurta (o'tov), shu jumladan Sirdaryo viloyatidan umumiy qiymati 20 mln. dan ziyod ot, qoramol va go'sht olib ketilgan¹¹⁹. 1914 yilning oxiridan Turkistonga Avstro-Vengriya, Germaniya va bir qator boshqa mamlakatlarning armiyalarining soldat va zobitlari harbiy asirlar sifatida keltira boshlandi. Harbiy asirlar turklar Sibir va Uralga jo'natilgan edi, lekin u erdan Turkistonga, Cho'l o'lkasiga qochganlar tub aholida panoh topishdi. Turkistonga 1914-1916 yillarda 200 ming harbiylar va g'arbiy hududlardan 70 ming qochoqlar keltirildi. Ularning mehnatidan sharqiy slavyan aholisi foydalanilgan bo'lsa-da, harbiy asirlarni konsentratsion lagerlarda saqlash bilan bog'liq harakat Turkistonning tub aholisidan turli qo'shimcha soliq va to'lovlar o'ndirish yo'li bilan qoplangan.

Xulosa shundan iboratki, Sirdaryo viloyati ko'chib keluvchi aholining qabul qilish, joylashtirish, ijtimoiy ta'minoti jihatidan etakchi viloyat edi. Sirdaryo viloyatining Toshkent, Chimkent, Avliyoota uездlari ko'chib kelganlar miqdori bo'yicha etakchi edi. Ushbu uезд shaharlari aholisining etnik xilma xilligi yuqori bo'lgan. Viloyat ko'chib kelganlarni joylashtirish bo'yicha tajriba maydoni vazifasini o'tadi. Dastlab Rossiya imperiyasi markaziy, janubiy-g'arbiy hududlaridan kelayotgan rusiyzabon aholi Sirdaryo bo'ylab tirikchilik ilinjida ko'chib kela boshlagan va bu hududdan Turkistonning boshqa viloyatlari Samarqand. Farg'ona viloyatlariga remigratsiyasi kuzatilgan.

2.2. Ko'chiruvchilik siyosatining Sirdaryo viloyati mahalliy xalqlarining siyosiy, fuqarolik ahvoliga ta'siri.

Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati haqida shuni aytish lozimki, Rossiya imperiyasi ma'muriyatining asosiy maqsadi Turkiston o'lkasini bosib olishnishing dastlabi davrlaridan boshlab imperiya ma'muriy boshqaruv tizimini o'lkada joriy etdi. Turkiston o'lkasi bosib olinganidan boshlab ma'muriy boshqaruv tizimida viloyatlar, uездlar, uchastka, posyolka va qishloqlar tarzidagi boshqaruv tizimi yaratildi. Birinchi o'rinda er-suv masalalari tartibga

¹¹⁹ История Казахстана. Очерк-Алмата, 1993 г, 27 С

olina boshladi. Barcha erlar davlat mulki deb e'lon qilindi. Vaqf mulklari asta sekinlik bilan qisqarib borishi natijasida mahalliy aholining diniy ehtiyojariga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatildi.

Turkiston ma'muriyati butun mustamlaka davrida uzoqni ko'zlovchi niyatlarda vaqf mulkini, ayniqsa, vaqf erini musodara etish, qisqartirish choralarini ko'rdi. Vaqf mulkini tashkil etuvchi erdan, savdo do'konlaridan, bog'lardan, tegirmonlardan va hokazolardan olinadigan daromad hisobidan madrasalar, maktablar, katta bo'lmagan qishloqlarda esa masjidlar ham ta'minlanardi. Zero, yuzaki qaraganda, mustamlakachi ma'muriyatning Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar manfaatlari yo'lida amalga oshirilgandek bo'lib ko'ringan bu choralar, aslida islom ta'sirini kamaytirish, musulmon muassasalari rolini zaiflashtirish siyosatining tarkibiy va eng asosiy qismi bo'lib qoldi. Vaqf mulkining tortib olinishi, uning miqdori zo'rlik bilan kamaytirib borilishi mahalliy dehqonlar orasida ersizlar va ishsizlar sonini oshib borishiga olib keldi, natijada, ular ko'pincha batraklar safiga qo'shilib ketardi.

General-gubernator K.P.fon-Kaufman davridan boshlab, 1873 yildayoq islomga yondashuv hamda tub millatlar xalq ommasi orasida mafkuraviy ish olib borishga, Turkistonda mavjud an'anaviy ta'lim tizimini mustamlakachilik maqsadlariga muvofiq tarzda isloh qilishga yondashuvlarining ishlab chiqilishi munosabati bilan imperiya harbiy vaziri Milyutinga yozilgan maktubida «ma'naviy va ijtimoiy hayotida tub tafovutlar mavjudligi tufayli»¹²⁰ ko'chmanchi aholini o'troq aholidan ajratish zarurligi asoslab berildi va ko'chmanchilarning ruslar bilan yaqinlashuvga moyilligini ta'kidlab: «Biz hozirning o'zidayoq, noma'lum kelajakka qoldirmay, ular orasida rus fuqaroligini yoyish to'g'risida tashvish tortishimiz va bu bilan, bir tomondan, ko'chmanchilarni madaniy xalqlar oilasiga olib kirish borasida zimmamizda turgan insonparvarlik burchimizni bajarishimiz va ikkinchi tomondan, ularni o'zimizga yaqinlashtirib, ko'chmanchilar orasida

¹²⁰ Гоффоров Ш.С. Тарих ва тақдир;Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).Т., “Фан”-2006. 137-бет

yoyila boshlagan musulmonlik ta'siridan ajratib olishimiz lozim»¹²¹, - deb o'qtirildi.

Imperiya ma'muriyati Turkiston xalqlari musulmon aholisining an'anaviy o'quv yurtlari tizimini qisqartirish va o'zgartirish bo'yicha Rossiya imperiyasi va mustamlakachi ma'muriyat siyosatiga esa «Rossiyada istiqomat qiluvchi begonalar ta'limi bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi imperiya qonunida (1870-yil mart) ta'riflab berilgan: «Vatanimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha begonalarga ta'lim berishdan ko'zlangan pirovard maqsad, so'zsiz, ularni ruslashtirish va rus xalqi bilan qo'shib yuborishdan iborat bo'lishi lozim»¹²², - degan tezis asos bo'lgan.

Rossiya imperiyasining hukmron doiralari, mafkurachilari islom diniga, musulmonlarga qarshi ekspansiyani musulmon xalqlarni siyosiy va g'oyaviy parokanda qilish uchun zarur, deb hisobladilar, chunki busiz hokimiyatning mustamlakachi tuzumini hamda Turkistonga ko'chirilayotgan rus aholining iqtisodiy, siyosiy mavqeining hukmronligini ta'minlab bo'lmasdi.

Rossiya imperiyasi tomonidan keltirib joylashtirilgan rus aholisi mahalliy tub xalqlarga doimiy tazyiq o'tkazib turishning muhim omili sifatida qaralardi. Dastlabki yillarda Rossiya hukmron doiralari mustamlakachi ma'muriyatining Turkiston boshqaruvi uchun maxsus mo'ljallangan yondashuv va faoliyat uslublari bo'lmaganligini, fikrimizcha, quyidagicha izohlash mumkin: imperiya hukumati G'arbiy Evropa davlatlari, eng avvalo Buyuk Britaniya va Fransiya bilan munosabatlar yanada murakkablashib ketishidan xavfsirab, XIX asrning 60-yillari boshida qozoq xonliklariga kirib borishdan tashqari, Qo'qon xonligi hududining katta qismini istilo etish bilan vaqtincha kifoyalanish niyatida edi. Ustiga ustak, ma'lumki, 1865-yil avgustda Turkiston viloyati tuzilganidan keyin imperiya hukumati shu viloyat o'rniga Rossiya protektorati ostida bo'lishi lozim bo'lgan Toshkent xonligini tuzishni mo'ljallagan edi. Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy 1866-yil bahorda shu maqsadda Toshkentga kelgandi. Biroq bu faqat

¹²¹ O'zMA, I-1 fond, 27-ruyxat, 841-yig'ma jild, 12-varaq

¹²² O'zMA, I-1 fond, 16-ruyxat, 1044-yig'ma jild, 12-varaq.

diplomatik nayrang edi, chunki Turkistonning ichki ma'muriy-hududiy tuzilishining o'zi kelajakda sof harbiy vazifalarni amalga oshirishga moslashtirilgan edi¹²³. Rossiya imperiyasi tub xalqlarning qurolli qarshilik ko'rsatishidan cho'chib, 1874 yilda Shimol (Sibir), Shimoliy Kavkaz, Turkiston musulmon aholisi vakillarini harbiy xizmatga jalb etishni rasmiy ravishda taqiqladi.

Biroq, K.P.fon-Kaufmanga bu chora, shuningdek, mustamlaka rejimini mustahkamlash bo'yicha ko'rilgan boshqa choralar ham etarli emasdek tuyuldi, shu bois, u harbiy vazirga yozgan ma'ruzanomada: "Agar biz o'lkani bundan buyon ham shu tarzda boshqaradigan bo'lsak, uning aholisi (tub aholi nazarda tutilmoqda—G.T.) bizni hukmdorlar deb hisoblamay, ixtiyorida har ehtimolga qarshi jiddiy harbiy kuch bo'lgan politsiya agentlari deb adolatli ravishda o'ylaydi"¹²⁴, - deb ta'kidlagandi. Garchi imperiya hukmron doiralari tomonidan Kaufmanning barcha islohotchilik takliflari hisobga olinmagan bo'lsa-da, 1886-yilda qabul qilingan «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida Nizom»ga muvofiq ilgari liberal deb ovoza qilingan harbiy-xalq boshqaruvi ma'muriy-politsiya boshqaruviga almashtirildi¹²⁵.

Lekin o'lka, viloyat, uezd boshliqlari, turli idoralar amaldorlari, an'anaviy ravishda asosan, Rossiya harbiylaridan tayinlanar edi. Shu bilan birga Rossiyaning hukmron doiralarida, Turkistondagi imperiyacha istilochilik, mustamlakachilik siyosatini qo'llab-quvvatlab chiqqan rus ziyolilari muhitida ko'p millatli tub aholining madaniy, ma'naviy boyligi hamda an'analarining mafkuraviy ta'sirini zaiflashtirish usullari, shuningdek, islomni inkor etish va ruhoniylarning mashhur vakillarini mustamlaka hokimlari tarafiga og'dirish yoki pravoslav ruhoniylarining missionerlik faoliyatini tashkil qilish bilan barobar musulmonlik salohiyatiga qarshi oshkora ta'sir ko'rsatish to'g'risidagi bahs-munozaralar tinmay davom etardi.

¹²³ Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв): Автореф. дисс. докт. истор. наук. – Тошкент, 1994. С. 30.

¹²⁴ Гоффоров Ш.С. Тарих ва тақдир;Россия империясидан Туркистонга кўчирилганлар (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари).Т., "Фан"-2006. 139-бет

¹²⁵ Положение об управлении Туркестанским краем 12 июня 1886 года. – СПб, 1886.

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyingi birinchi davridanoq o'lk va viloyatlar ma'muriyati, jumladan, birinchi general-gubernator fon Kaufman, Yettisuv viloyatining harbiy gubernatori N.Kolpakovskiy, Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatori A.Abramov musulmon ruhoniylari ierarxiya tuzilmasini o'zgartirish, madrasa va maktablar ustidan ma'muriy, siyosiy nazorat o'rnatishga darhol kirishib ketishdi. Yirik shaharlar (Toshkent, Samarqand, Xo'jand, Chimkent, Avliyoota, Pishpek) da shayxulislom, qozikalon lavozimlari bekor qilindi, an'anaviy sudlar - o'troq aholidagi qozi va ko'chmanchi aholidagi biy sudlari faoliyat sohasi cheklandi va hokazo. Mahalliy qishloq aholisining ekin maydonlari, yaylovlarining katta qismini bosib olish, ekspropriatsiya qilish, chorvadorlar ko'chib yuradigan mintaqani qat'iy ma'muriy-hududiy chegaralash, qishloq, ovul ko'chmanchi urug'-qabila jamoalarida boshqaruvning yangicha tartibini o'rnatish orqali hukmron doiralar jamoa ichki va jamoalararo aloqalarini, qishloq jamoasining an'anaviy ijtimoiy tuzilishini jiddiy ravishda zaiflashtirishga erishdilar¹²⁶.

Imperiya siyosatining asosi ko'chirib keltirilgan rus dehqonlarini imtiyozli asosda joylashtirish bilan bir qatorda, ular mintaqada hukmron bo'lishi uchun iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy sharoitlarni yaratardi. Ayni mahalda tub o'troq va ko'chmanchi aholining huquqsiz ahvolini doimo namoyish etib turishi zarur edi. Tub millatga mansub xalq ommasini siyosiy, fuqarolik huquqlaridan mahrum etish, mustamlakachi ma'muriyat, shuningdek, ko'chirib keltirilgan Rossiya aholisi ko'pchiligining tub aholiga, ayniqsa, qishloq aholisiga munosabatidagi qo'pollik, mensimaslik illatlari bilan bir qatorda, tub joy xalqlarni talash, iqtisodiyotni ekspluatatsiya qilish ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ma'naviy hayoti uchun zararli oqibatlarini keltirib chiqargani tabiiydir. Mahalliy aholi huquqlarining ayancli toptalishidan dalolat beruvchi va shaxsan birinchi general-gubernator bilan bog'liq bir misol keltiramiz.

1870-yilda Sirdaryo viloyatining harbiy gubernatoriga yuborgan farmoyishida K.P. fon-Kaufman: "...Toshkent shahri osiyoliklar qismining ayrim aholisi

¹²⁶ O'zMA, I-1 fond, 16-ruyxat, 1044-yig'ma jild, 9-varaq.

shaharning evropaliklar qismida yoki unga yaqin joyda (ta'kid bizniki – G.T.) bu joylarni band etib, ularni o'zinikidek o'rab olgan. mahalliy aholini ruslar tomonida egallab olgan erlardan chiqarib yuborish choralarini ko'rishingizni so'rayman.”¹²⁷ o'lkadagi hokimiyat boshqaruv tizimiga to'xtalmay¹²⁸, shuni qayd etish kerakki, Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilik hukmronligi, tub xalqlarni siyosiy va ijtimoiy jihatdan ma'lum tartibda saqlash, shuningdek ko'chirib keltirilgan rusiyzabon aholini xo'jalik jihatdan moddiy ta'minlanishi, ularning mahalliy aholidan ko'ra ko'proq imtiyolari mavjud ma'muriy boshqaruv tizimi tomonidan ta'minlanardi.

Binobarin, 1865 yil 6 avgustda tasdiqlangan «Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida muvaqqat Nizom»ga muvofiq joylarda ma'muriyatga bo'lim boshliqlari, shuningdek harbiy komendantlar, ularga bo'ysunuvchi rus amaldorlari toifasidan tayinlanadigan mahalliy aholini boshqaruvchilari rahbarlik qilishar edi. Bevosita qishloq, ovullarida oqsoqollar, zakotchilar, mirshablar, ko'chmanchi hududlarda esa manaplar, biylar mahalliy aholini boshqaruvchilari tomonidan tayinlanardi. Bun jarayonda o'troq va ko'chmanchi aholi uchun qozilik sudlari va biy sudlari saqlab qolindi. Ammo ular majburiy ravishda uch yilga saylanar va o'lim jazosi yoki tan jarohati etkazish to'g'risida qarorni uzil-kesil qabul qila olmasdi. Biroq ular ko'rayotgan nizo, jinoyatlar mustamlakachi hokimiyat manfaatlariga yoki rus fuqarolariga taalluqli bo'lsa, bunday ishlar barcha uezd markazlarida hamda Toshkent shahrida tuzilgan Rossiyadagi kabi sudlarga oshirilardi¹²⁹.

Shaharlarda, xususan, tub aholi istiqomat qiladigan qismlarda esa 1876-yilga qadar saylab qo'yiladigan ma'muriyat ish olib borgan. Biroq uning faoliyati rus harbiylaridan iborat uezd, viloyat boshliqlari tomonidan qat'iy boshqarilib, nazorat etilgan. Toshkent, Avliyoota, Chimkent kabi yirik shaharlarda eski shahar bilan yangi shahar o'rtasida jiddiy ma'muriy, siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan

¹²⁷ O'zMA, I-1 fond, 16-ruyxat, 1044-yig'ma jild, 12-varaq.

¹²⁸ Бу тизим Н.А.Абдурахимова томонидан бир қатор асарларда ҳамда докторлик диссертациясида мафкурадан ҳоли, янгича позицияда туриб, кенг ҳужжатли манбалар асосида тадқиқ этилган.

¹²⁹ O'zMA, I-450 fond, 1-ruyxat, 16-yig'ma jild, 30-31 varaq, 11-yig'ma jild, 1,8,13-varaqlar

chegaralovchi chiziq ham o'tkazilgandi. Toshkentda 1877-yilda дума saylanib, unda «Shahar qoidasi»ga ko'ra ovoz berish vakolatiga ega bo'lganlarning umumiy sonining 3/2 qismini ruslar, 3/1 qismini esa tub aholi vakillari tashkil qilishi lozim edi¹³⁰.

Biroq dumaga saylangan mahalliy zodagonlarning vakillari ushbu aholi manfaatlarini va huquqlarini himoya qilmas, bu bilan ushbu aholining kamsitilishiga ko'maklashardilar. General-gubernatorlik tuzilgach, ayniqsa, ko'chirib keltirilgan ruslarni xo'jalik, fuqarolik jihatidan imtiyozli joylashtirish uchun imkoni boricha ko'proq qulay sharoit yaratish maqsadida, shuningdek mustamlakachi hukmdorlarning tub aholiga munosabatini yanada qat'iylashtirish uchun mahalliy boshqaruv va an'anaviy sudlar tizimini o'zgartirish bo'yicha choralar amalga oshirildi. SHaharlarda qozilik sudlari, ko'chmanchi hududlarning biy sudlari butkul rasmiy bosqichga aylantirildi, ularga olinadigan pul 100 so'mdan oshmaydigan da'volarnigina ko'rib chiqishga ruxsat berilgan edi.

Bu sudlar, avvalgidek, nikoh va ajrashish bilan bog'liq ishlarni ko'rar, tub aholi bunday masalalarni ko'proq an'anaviy jamoa-urug' usulida hal etardi. Umuman, tub aholining deyarli 90 foizi nizo, da'vo va hokazolar bilan uezd, viloyat, o'lka hokimiyatlariga to'la hisob beradigan an'anaviy sudlarga murojaat qilardi. Endi barcha qozi va biylar, 1865-1867 yillardagi kabi tayinlanmasdi, balki, hokimiyatga ma'qul nomzodlardan saylanardi. Bunda rus harbiylaridan iborat uchastka pristavlari, uezd sudlari, viloyat boshqaruvlarining hamda general-gubernator devonining sud bo'limlari, shuningdek harbiy-sud komissiyalari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan¹³¹.

Harbiy sud komissiyalari, ayniqsa, Turkistonda tez-tez joriy etilib turadigan favqulodda yoki harbiy holatlar davrida, tub aholining hokimiyat boshboshdoqliklariga qarshi ko'targan isyoni ishtirokchilarining ishini ko'rib chiqishda shafqatsiz ish olib borardi. SHu bilan bir qatorda Rossiya imperiyasi va mustamlakachi ma'muriyat qamoqxonalar, hibsonalar va gaupavaxtalar (harbiylar

¹³⁰ O'zMA, I-1 fond, 2-ruyxat, 1650-yig'ma jild, 1-10-varaq.

¹³¹ O'zMA, I-270 fond, 1-ruyxat, 490-yig'ma jild, 1-2 varaq; Абдурахимова Н.А. Колониальная система власти в Туркестане... Автореф. дисс.докт.истор.наук, С. 37-39.

va politsiyachilar uchun) tarmog'ini ham o'z ichiga olishi lozim, deb hisoblashardi. SHuning uchun 1868-yildanoq bunday muassasalar qurilishi uchun imperiya byudjetidan muntazam ravishda katta mablag' ajratila boshlagan. Verniydagi qamoqxona va gauptvaxta, Pishpek, Avliyoota va Chimkentdagi hibsonalardan keyin 1872-yilda Toshkentda Turkistondagi eng yirik qamoqxona qurilishi tugallandi¹³².

XIX asrning 90-yillari boshiga kelib Sirdaryo viloyatida 5 ta qamoqxona, shuningdek shahar politsmeysterlari huzurida (Toshkent, Chimkent, Pishpek va Avliyootada) va deyarli barcha uezd boshqarmalarida hibsonalar mavjud edi¹³³. Politsiya va sudning Turkiston tub aholisiga nisbatan o'zboshimchaligining buyuk davlatchilik-shovinistik tabiati to'g'risida ko'plab hujjatlar guvohlik beradi.

Rossiya imperiyasining Turkiston harbiy-politsiyachi ma'muriyatining shafqatsizlikda eng mash'um yirik aksiyasi 1916-yil qo'zg'olonida ishtirok etgan yuzlab erkaklar va hatto, ayollarni ham Sibirga surgun qilganligidan ham teranroq anglash mumkin. Rossiya imperiyasi yuqori harbiy doiralari Turkistonda abadiy o'rmasib olishga intilib, yangi hududlarni bosib olgan sari hokimiyatning mustamlaka organlarini, harbiy tayanch bazalarini hamda qatag'on-jazo muassasalarining keng tarmoq otgan shaxobchalarini tuza borganidan guvohlik berib turibdi. Bu borada ko'p ishlar imperiya hukmron doiralari Volga bo'yini ayniqsa, Kavkazni mustamlakaga aylantirishda qilgan ishlariga juda o'xshardi.

Rossiya imperiyasi Turkiston aholisining ko'p millatliligini, soni ancha ko'pligini, uning tarixiy o'zligini anglash, xo'jalik faoliyati darajasi ancha yuqoriligini, shuningdek, Rossiya imperiyasining o'lkadagi mavjud hukmronligiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, mavjud harbiy-politsiya tizimi, rusiyzabon aholining mavqeini muntazam mustahkamlashga, tub xalqlar iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayotini ko'proq cheklashga jiddiy e'tibor berdi. Imperiya hukmron doiralari mustamlaka ma'muriyati tomonidan o'lkani boshqarish bo'yicha ko'zda tutilgan shartlar, ko'chirib keltirilgan ruslar uchun beriladigan xo'jalik, moliyaviy, ijtimoiy

¹³² O'zMA, I-270 fond, 1-ruyxat, 450-yig'ma jild, 21-23 varaqlar.

¹³³ O'zMA, I-270 fond, 9-ruyxat, 68-yig'ma jild, 2-4 varaqlar

imtiyozlar va ularning o'q otar qurolga ega bo'lishi esa tub aholining huquqsizligini yanada kuchaytirdi.

SHu bilan birga imperiya hukumati vaqti-vaqti bilan, favqulodda yoki harbiy holat e'lon qilingan paytlarda Turkistonning tub aholisi aholisining manfaatlari ziyoniga rus aholisi, ruslar manzillari maqomini mustahkamlashga maxsus ravishda yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilardi. Masalan, birinchi jahon urushi boshlangach, Rossiya Vazirlar Kengashi «Osiyo Rossiyasi temir yo'l va savdo-sanoat posyolkalarida ijtimoiy boshqaruvni tuzish to'g'risida» (1914-yil 8-noyabr) qaror qabul qildi. Bu qaror Nikolay II tomonidan 1914-yil 23-noyabrda tasdiqlanib, Ichki ishlar vazirligi hamda Dasht va Turkiston general-gubernatorlariga temir yo'l, savdo - sanoat posyolkalarida Vazirlar Kengashi tomonidan 1912 yil 22-mayda tasdiqlangan asoslarda qishloq jamoa boshqaruvini joriy etish huquqini berdi. Bunda tub aholi vakillari temir yo'lda ishlashga qo'yilmasligi, bevosita temir yo'l stansiyalari, razezdlarda va temir yo'lga yaqin joyda yashovchi shaxslar jandarm politsiyasi ma'muriyatiga bo'ysunishi belgilab qo'yildi¹³⁴.

Toshkent temir yo'l bilim yurti va uning Sirdaryo viloyati uездlaridagi filiallarida birorta mahalliy aholi farzandlari o'qimagan. SHuninigdek, biror mahalliy aholi dastlabki davrlarda temir yo'l ishlariga jalb etilmagan edi.

Ilk yirik temir yo'l stansiyalarida mustamlakachilar uchun zarur bo'lgan ma'muriy rejimni o'rnatish Rossiya imperiyasining Turkistondagi manfaatlari uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Bunda mahalliy hokimlar tub aholi vakillarining stansiyalar yaqinidagi qishloqlarda, umuman, temir yo'l yaqinida yashashlariga yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblashar edi, vaholanki, bunday qishloqlarni obodonlashtirishga tub aholidan ham mablag' yig'ib olinardi.

Manbalarda Kaspiyorti-Toshkent (1880-1899 yy.), Toshkent-Orenburg (1899-1906 yy.) qurilishida temir yo'l o'tadigan erlardagi mahalliy aholiga tegishli erlarning katta qismi davlat ehtiyojlari sifatida arzon garovga olingan va kompensatsiya to'lab berilmagan. Mahalliy aholi uysiz va ersiz qolavergan edi.

¹³⁴ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 755-yig'ma jild, 5-6 varaqlar.

Temir yo‘l stansiyalari hududidagi rus posyolkalari uchun ajratilgan erlarda istiqomat qilib kelgan tub aholi ham o‘z erlaridan ko‘chirilgan. Ko‘chirib chiqarilganlarga ekin ekiladigan er berilmagan edi. Turkiston ma‘muriyati ko‘chirib keltirilgan ruslarning mavjud qishloqlari aholisi uchun chek er hamda jamoa bo‘lib foydalaniladigan er maydonlarini kengaytirish zarur deb hisoblagan chog‘larda ham tub aholiga nisbatan shunday shafqatsiz choralar ko‘rilgan.

Masalan, 1913-yil fevralda Sirdaryo viloyatidagi ko‘chiruvchilik bo‘limining mudiri Avliyoota uezdi boshlig‘iga yo‘llagan maktubida: «Maksimalovka selosini er bilan ta‘minlash uchun... 1911-yil dekabr oyida Alekseevka selosining aholi dehqonlari xususiy ijara sifatida foydalanib turgan qirg‘izlarga qarashli erlarning 120 desyatnaga yaqin maydoni tortib olindi. Buning o‘rniga, o‘sha vaqtdayoq, Alekseevka selosiga noqonuniy bitim bo‘yicha ijaraga olingan er o‘rniga, ushbu seloning chek erlarini yaxshilash maqsadida 100 desyatnaga yaqin erni qo‘shib berishga qaror qilingandi»¹³⁵, - deb yozgandi.

Ko‘rinib turibdiki, hokimiyat tub aholidan tortib olingan 120 desyatina erni Maksimalovka selosida istiqomat qiluvchi ruslar manfaati uchun ajratib bergan, Alekseevka selosining aholisi uchun esa yana 100 desyatina erni ajratganligini qayd qilgan. Shunday qilib, Turkistonning ma‘muriy-hududiy boshqaruvi, barcha hokimiyat organlarining yaxshi qurollangan rus armiyasiga, politsiya kuchiga, miltiqlarga ega bo‘lgan rus aholisiga, shuningdek, shovinistik xarakterdagi shafqatsiz qonunlarga hamda tub aholi orasidan chiqqan rusparastlarga tayangan imperiya qo‘lida jamlanishi mustamlakachi ma‘muriyatga tub xalqlarni ma‘naviy, jismoniy ezish bo‘yicha Rossiya imperiyasi belgilab qo‘ygan muayyan siyosatni amalga oshirish imkonini bergan. Binobarin, bu siyosatning ilk oqibati, tub aholining tarixan tarkib topgan istiqomat hududlarini ma‘muriy-hududiy jihatdan viloyatlarga, uezdlarga, volostlarga, shaharlarda esa eski va yangi shahar qismlariga ajratib tashlash bo‘lib, o‘troq qishloq jamoalari, ko‘chmanchi aholining va qarindosh-urug‘chilik xo‘jalik aloqalari, ham bo‘lingan edi.

¹³⁵ O‘zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 490-yig‘ma jild, 2, 2-orqa varaqlar

Biroq yuqorida aytib o'tilganidek, ko'chirib keltirilgan ruslarni ma'muriy, hatto, tabaqaviy joylashtirish bilan bog'liq muammolar yuzaga kelganida mustamlakachi ma'muriyat Turkiston tub aholisi huquqlari, manfaatlarini oshkora oyoqosti qilgani holda lozim darajada tez va aniq ish olib borardi. Ushbu mulohazamizni tasdiqlovchi diqqatga loyiq misol keltiramiz. Rostov guberniyasidagi rus dehqonlari istiqomat qiladigan Podka qishlog'i erlarini Kepinskaya stansiyasi kazaklariga berish zarurati yuzaga kelganligi, Sirdaryo ko'chiruvchilik boshqarmasi (uning vakolati Turkistonning Amudaryo bo'limi, Kaspiyorti, Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariga yoyilardi) Don qo'shinlari Nakaznoy atamanining iltimosiga ko'ra mazkur dehqonlarni ko'chirib keltirishga rozilik beradi. Buning uchun Sirdaryo viloyati Avliyoota uezdiga qarashli Kungay qishlog'idagi mahalliy aholi sug'oriladigan erlarini tortib olib, rus dehqonlariga berishga qaror qilindi. Boz ustiga, Dondan ko'chirib keltirilayotgan 60 ta dehqonlarning kambag'alligini hisobga olib mazkur boshqarma quyidagi qarorni qabul qildi: «Mablag'ni alohida ajratib, har bir oilaga 25 rubldan berilsin, chunki yo'l krediti uchun berilgan qarz miqdori (1000 r.) bu xarajatlarni qayta ko'chiriladiganlar uchun ziyon keltirmay amalga oshirish imkonini bermaydi»¹³⁶.

Bu yangilik, xususan volost boshqaruvchilari, qishloq oqsoqollari, ovul va urug' biylarining qat'iy tartibda saylanishi qishloq jamoalarining, shuningdek, ko'chmanchi aholi urug'larining vaqt sinovidan o'tgan ijtimoiy tuzilishini emirgani holda, ikki yoqlama zulm - mustamlaka zulmi va quyi ma'muriyat vakillari zulmini sezilarli darajada kuchaytirish bilan bir qatorda, ko'plab suiste'mollar, jinoyatkorona ishlarni yuzaga keltirdiki, ulardan shahar va qishloqning tub aholisi cheksiz jabr ko'rdi. Bu holatni rus amaldorlarining o'zlari ham qayd etib o'tishgandi. Masalan, Yu.D.Yujakov oqsoqollar, biylar, urug' boshliqlari va volost boshqaruvchilarining saylanishi joriy etilgach, «partiyalar (aftidan, u yoki boshqa da'vogarlarining tarafdorlari guruhlar haqida gap ketayotgan ko'rinadi – G.T.) kurashi, fitnasi boshlanib ketdi, har bir urug' volost boshqaruvchisi lavozimiga nima qilib bo'lsa-da, o'z urug'doshini o'tkazishga intilardi. O'tovi ko'p yoki mablag'i katta partiya g'olib chiqardi... Da'vogarlar nima qilib bo'lsa-da

¹³⁶ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 722-yig'ma jild, 12 varaq.

saylanishni istashardi. Pora juda katta miqdorga etardi, da'vogarlar saylovchilarni o'zlariga og'dirib olish uchun pul sovrishardi, qarzga botib, xonavayron bo'lishardi»¹³⁷.

Yu.D.Yujakov rus amaldorlarini tanqid qilishga majbur bo'lsa-da, u bir tomonlama mulohaza qilgani his etamiz, albatta. «Insonga xos zaiflik hamda ayrim volost boshliqlarining ustaligi va chaqqonligi tufayli boshliqlarning (ular butunlay rus harbiylaridan iborat edi – G.T.) ko'nglini yumshatish, ularning marhamatiga sazovor bo'lishga erishilardi – shunda mazkur volost boshliqlari dadilroq harakat qilib, keyingi saylovlarda o'zlari uchun muvaffaqiyatni ta'minlash taraddudiga tushishardi»¹³⁸.

Diniy munosabatlarda metropoliya va Turkiston general-gubernatorligining islomga qarshi kayfiyatdagi yuqori doiralari shunday vaziyatni vujudga keltirdilarki, oqibatda muborak haj ziyoratiga borish uchun mablag'ga ega musulmonlarning soni keskin kamayib ketdi. SHunda ham, hajga borish imkoniyatiga ega bo'lganlar uezd boshlig'i orqali, Toshkentda – shahar boshlig'i orqali general-gubernatorning ruxsatini olishga majbur edilar.

SHunday ruxsat olish qiyin bo'lganligiga birgina misol keltiramiz. 1888-yil 11-yanvarda Toshkentning Sebzor dahasida istiqomat qiluvchi Saidumarxo'ja Mirzahojinov Shayxontohur dahasidagi Qatortarak mahallasida istiqomat qiluvchi Mulla Olimxon maxsum Muhammadyusuf Domullinov (hujjatda ruscha shunday yozilgan–G.T.) Toshkent shahar boshlig'iga arznoma taqdim etishdi. Ularning mazmuni, manzilini istisno etganda, bir xil. Arznomada quyidagilar bitilgan: «Ushbu bilan Siz oliy hazratga Shayxontohur (boshqasida – Sebzor – G.T.) dahasi oqsoqoli bergan guvohnomani hamda kafolat xatini taqdim etar ekanman, menga Makka shahriga ziyoratga borish uchun bir yil muddatga chet el pasportini olishga guvohnoma berishingizni itoatkorlik bilan so'rayman. 1888 yil 11 yanvar kuni – Toshkent shahri» har ikki iltimosnoma rus tilida yozilib, arabcha yozuvda imzolangan. Shahar boshlig'i o'sha yilning 18 fevralidagina har ikki arzgo'yg

¹³⁷ Южаков Ю.Д. Итоги двадцатисемилетнего управления нашим Туркестанским краем.— Спб.,1891, С. 25.

¹³⁸ O'sha joyda. 28.

chet el pasportini berish uchun ruxsat bergan, lekin ular pasportni qachon olishganini aniqlab bo'lmadi.

Shuni ham qo'shimcha qilamizki, mustamlakachi ma'muriyat tub aholi vakillarining Turkistondan chiqishi va Turkistonga kirishini etarlicha qattiq nazorat qilardi. Bu haqda, masalan, eski shahar dahalari, qishloqlar oqsoqollarining kafolat xatlari, boshqa hujjatlar guvohlik beradi. Chunonchi, kafolat xatlarida oqsoqollar daha, qishloqda istiqomat qiluvchi biron-bir odamning Turkistondan chiqishiga «to'siq yo'qligi» uchun javobgarlikni o'z zimmalariga olishardi¹³⁹.

Shuni alohida qayd etish zarurki, XIX asrning o'rtalariga qadar hatto O'rta Osiyoning eng zulmkor rejimlarida ham, Rossiyada ham boshqa mamlakatlarga borish yo'lida bu qadar rasmiyatchilikdan iborat va sargardon qiladigan to'siq qo'yilmagandi. Rus hukumati mustamlaka Turkistonning tub aholisiga nisbatan shunday usul qo'llay boshladi. Bu – birinchidan, tub aholi va Xitoydan ko'chib kelgan musulmonlarni tabaqalashtirib pasport bilan ta'minlash edi.

Mahalliy aholidan bo'lgan musulmonlarga quyi ma'muriyat kafolati asosida, rus hukumati ruxsati bilan pasport berilardi. Kelib chiqishi Xitoydan bo'lgan musulmonlarga esa pasport Uyg'ur yoki Dungan jamiyatlari qarori bilan, lekin politsiya organlari xulosasi bo'yicha berilardi. Ikkinchidan, agar Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar uning fuqarolari uchun umumiy bo'lgan pasportiga ega bo'lib, metropoliyaga erkin borib kelsalar, Turkiston musulmonlariga u erga borish uchun alohida hujjat berilgan. Bu hujjatda egasi sart¹⁴⁰ deb atalganidan tashqari, o'sha «sart»ning belgilari: yoshi, bo'yining uzunligi, sochining, qoshining, ko'zlarining rangi, burni, og'zi, engagi, yuzining o'ziga xosliklari, alohida alomatlari qayd etilgan. Bular jinoyatchi haqidagi to'planadigan ma'lumotlarga o'xshar edi.

Sirdaryo viloyati shahar va uездlarida eng ko'p etnik guruhlar mahalliy, ya'ni Buxoro yahudiylari edi. O'rta Osiyo (Buxoro) yahudiylari huquqlarini alohida

¹³⁹ O'zMA, I-36 fond, 1-ruyxat, 3016-yig'ma jild, 4 varaq.

¹⁴⁰ Маҳаллий кўпчилик аҳолини руслар шундай камситувчи атама билан аташган.(Қаранг. Маҳмудхўжа Бехбудий. “Сарт сўзи мажҳулдур”, “Ойна” журнали, 1915 йил, 22-,23-,25-,26- сонлар, 314-315-, 338-340-,386-388-, 478-480-бетлар.

tartibga solish imperiya va mustamlakachi ma'muriyatning Turkiston, ya'ni butun O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy hayotiga nisbatan tutgan pozitsiyasining buyuk davlatchilik ko'rinishlaridan biri bo'ldi. Yahudiylar bunday huquqiy jihatdan tartibga solish (cheklash)ni o'zlari 400 yil davomida yiroq holda yashagan na Buxoro amirligida, na Qo'qon xonligida ko'rishgandi. Yahudiylarga, xususan, O'rta Osiyo yahudiylariga taalluqli turli qonunlar, qoidalarining ishlab chiqilishi Rossiya yuqori doiralarining mustamlakachilik maqsadlaridan emas, balki, umuman, ularning antisemit tabiatidan kelib chiqishini alohida ta'kidlamok lozim. Rossiyaning o'zida XIX asrning 80-yillari boshidan yahudiylarga (har qanday maqsadlar uchun) er sotishni taqiqlovchi cheklovchi qonunlar, shuningdek yahudiylarni davlat o'quv yurtlariga qabul qilishning 10 foizli me'yori (kvotasi)ni ko'zda tutuvchi (1894-yilda qabul qilingan) qonunlar amal qilgani ma'lum¹⁴¹.

Nomi yuqorida zikr etilgan xonliklarda XIX asrning 70-yillariga qadar Evropa yahudiylari bo'lmagan, Buxoro yahudiylari esa diniy (yahudiy dinining Buxoro talqini) va dunyoviy ta'limni asosan mahalliy sinagogalarda, qisman, chet elda olishgan. Mustamlakachi ma'muriyat esa antisemitcha yo'lni hayotning barcha sohalarida namoyon qilishga, eng avvalo, Buxoro yahudiylarining rus savdogarlari, sanoatchilari bilan raqobatini tugatishga intilgan. Rossiyaning Turkistondagi mustamlakachilarcha hukmronligi davrida qabul qilingan qonunlar bu yo'lning sezilarli darajada kuchayishiga xizmat qildi. Bu hol imperiya Ichki ishlar vazirining Turkiston general-gubernatoriga 1893-yil 15-sentyabrda yo'llagan (3860-sonli) maktubida o'z ifodasini topgan.

Maktubda, jumladan, shunday deyiladi: «So'ngi paytlarda O'rta Osiyolik savdogar yahudiylar va ularning gumashtalarining savdo ishlari bilan Moskvaga kelishlari masalasi ko'tarilganligi bois, Ichki ishlar vazirligi qonunning 992-modda, 1876-yil nashridan kelib chiqib, ushbu moddaga qo'shimchaga muvofiq ... Rossiya fuqaroligiga o'tishga ruxsat berilganlari buxoroliklar va xivaliklar bilan barobar savdo-sotish ishlari olib borish uchun O'rta Osiyodan «Orenburg yo'liga» kelishlari mumkin, Biroq Orenburgdan ichki guberniyaga kirishlaridan ularga

¹⁴¹ Кокандский биржевой комитет (1894 й.). – М., 1895, С. 53.

nisbatan yahudiylar to'g'risidagi umumiy qoidalarga rioya etilishi darkor. O'rta Osiyo fuqaroligida qolgan yahudiylar esa ichki guberniyalarga muvaqqat kirish uchun, Pasportlar to'g'risidagi Nizomning 289-moddasiga muvofiq, Ichki Ishlar vazirligidan ruxsat olmoqlari lozim...»¹⁴².

Bunday amaliyot Buxoro amirligi fuqarosi bo'lgan Buxoro yahudiylarining hamda Rossiya yahudiylarining Turkiston hududida bo'lishini nazorat qilishning o'ziga xos usullarini keltirib chiqardi. Masalan, Buxorodagi Rossiya imperatorining siyosiy Agentligi mustamlaka ma'muriyat tomonidan Buxoro yahudiylariga ularning, savdo sohasidagi raqobatchilik faoliyati bilan bog'liq ravishda da'volar borligi yoki yo'qligini paydar-pay aniqlab turardi.

Biroq, nafsilamrini aytganda, Turkistondagi buxorolik va Rossiya yahudiylariga ko'chirib keltirilgan ruslar, mustamlakachi ma'muriyatning mavqei, manfaatlari bilan biron-bir tarzda bog'liq bo'lgan munosabat asosan tub aholining milliy ruhini, o'zligini anglashini, ijtimoiy layoqatini bostirishga, uni itoatkorlikda tutib turishga qaratilgan mustamlaka rejimining tabiatidagi xususiyat bo'lmagan. SHu bilan bevosita bog'liq ravishda imperiyaning hukmron doiralari hamda Turkiston ma'muriyati doimiy harbiy hukmronlikni ta'minlash, ishonchli rus aholisining sonini, xo'jalik farovonligini oshirish, barcha imkoniyatlarning imperiya manfaatlari yo'lida foydalanishning buyuk davlatchilik tizimini yaratish, tub aholi ustidan qattiq siyosiy va politsiya nazorati o'rnatish, uning uchun kamsituvchi pasport rejimini Turkiston, Buxoro va Xiva aholisining borib-kelishi bo'yicha vatandoshlarning parokanda bo'lishiga sabab bo'ladigan bir qator cheklashlarni joriy etish bilan bir qatorda, tub millat xalqlarini rus madaniyatining, rus tilining, umuman, Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lishning afzalligi va maqbulligiga asta-sekin ishontirib borish choralariga jiddiy e'tibor berdi.

Yuqorida tub aholi fuqarolik holatining, Buxoro va Xiva savdogarlari, boshqa fuqarolarining Turkiston hududida bo'lishi, mahalliy millat vakillarining Rossiyaga uning hududidan chetga viza bo'yicha borib-kelishi mustamlakachi ma'muriyat tomonidan nazorat qilinishi, boshqarilishi, shuningdek Buxoro yahudiylarining huquqiy ahvoli tavsiflandi.

¹⁴² O'zMA, I-18 fond, 1-ruyxat, 4322-yig'ma jild, 2 varaq

Ushbu jihatlarni yoritishni tub ko'chmanchi aholi ustidan harbiy-ma'muriy nazorat amaliyotidan olingan ishonchli faktlar bilan to'ldirish joizdir.

Mustamlaka tub aholisining ko'plab isyonlari, bir necha kuchli qo'zg'olonlari shafqatsizlik bilan bostirilgach, Turkistondagi rus hukmronligining mustahkamligiga ishonch hosil qilgan imperiya hukumati 1914-1916-yillarda bu erga G'arbiy frontdan Avstro-Vengriya, Germaniya va boshqa bir qator mamlakatlar armiyalarining askarlari va zobitlarini asir sifatida deportatsiya qildi. Turk harbiy asirlari SHarqiy Sibirdagi konslagerlarda saqlandi, biroq ularning ko'pchiligi Turkistonga qochib kelib, musulmon aholi orasiga yashirindi. Bu holatlar – mustaqil ilmiy-tarixiy tadqiq qilib, yoritishga arzigulik mavzudir. Biz bu mavzuga murojaat qilganimizning boisi shuki, Rossiya imperiyasi va Turkiston ma'muriyati tub aholidan harbiy soliq, boshqa yig'imlar olish yordamida, bu qadar ko'p sonli harbiy asirlarni ta'minlash, eng avvalo, ularni boqishdek og'ir yukni uning elkasiga ag'darishni mo'ljallagandilar, harbiy asirlarni arzon ishchi kuchi sifatida sanoat va qurilishda ishlatish esa mahalliy millatlar aholisi orasida ishsizlik kuchayishiga sabab bo'ldi¹⁴³.

Umuman olganda, Turkiston tub xalqlariga qo'llanilgan xatti-harakatlar viloyatlarning harbiy gubernatorlari, uezd boshliqlari nisbatan qo'pol shaklda davom ettirdilar. So'nggi general-gubernator A.N.Kuropatkin e'tirofiga ko'ra, hukumat «tub joy aholini rivojlanishdan chetda tutib kelgan»¹⁴⁴ bo'lsa-da, bu borada Rossiya imperiyasi jiddiy natijani qo'lga kiritishda olmadi. Aksincha, tub millatlari xalq ommasining fuqarolik, siyosiy huquqsizligi o'z-o'zidan norozilik va qahr-g'azab uyg'otibgina qolmay, balki qattiq qarshilikka qaramay, ilg'or tub aholi ma'lum bir qismining siyosiy ongini va faolligini oshirishga sabab bo'ldi, deb qayd etish lozim.

Umuman olganda ko'chirish siyosatining so'ngi bosqichida Rus aholini Sirdaryo viloyatiga ko'chishi ko'rsatgichi baland bo'lgan. 1867-1917 yillarda 190 ta rus posyolkalari tashkil etilib, ularda 72500 nafar aholi istiqomat qilgan¹⁴⁵.

¹⁴³ O'zMA, I-16 fond, 1-ruyxat, 711-yig'ma jild, 9-10 varaq

¹⁴⁴ «Красный архив». Т. I. – М., 1925, С. 65.

¹⁴⁵ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономические аспекты).-Т.:Фан.1983.-С.71; Равшанов Ш.Т. Туркестонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири- 1917 йил). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Т.: 2022.-Б.64.

Taqqoslash uchun aytish mumkinki, Farg‘ona viloyatida 48 rus posyolkasida 41 mingdan ortiq rus aholi istiqomat qilgan edi. Samarqand viloyatiga 1886 yildan 1917 yilgacha ko‘chib kelganlar qishloq joylarida 8500 nafar, shahar aholisi 21706 nafar, jami, 30200 nafarni tashkil etgan¹⁴⁶.

Rossiya imperiyasi tomonidan aholini Sirdaryo viloyatiga ko‘chirish siyosati imperiya ma‘muriyati tomonidan me‘yorlar, loyihalar, nizomlar, ko‘rsatmalar asosida olib borildi. Rossiya imperiyasining boshqaruvining dastlabki davrlarida ko‘chirish siyosati bo‘yicha aniq bir ko‘rsatmalar bo‘lmagan. Har bir viloyat turlicha qonun loyihalaridan foydalangan holda ish yuritgan edi. XX asr boshlariga kelib Turkiston halqlarinnig milliy mentalitetidan, boshqaruvidan kelib chiqib boshqaruvdagi kamchiliklar tuzatila boshlandi, tajribalar umumlashtirildi va imperiya boshqaruvining ma‘lum bir ko‘rinishi yuzaga keldi. Endi hukmron boshqaruv mahalliy halqlarning xayotining tub-tubiga kirib bora boshladi va har bir sohani nazorat qila boshladi.

Rossiya imperiyasidan Turkistonga rusiyzabon aholining ko‘chishi Rossiya imperiyasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy ahvol sababli, qolaversa Turkistonda rusiyzabon aholini ko‘paytirish va maqsad kelajakda Turkistonni imperiyaning bir qismi sifatida ko‘rish edi. Turkistonda, jumladan, Sirdaryo viloyatida ham kelajakda mustahkam rus xo‘jaliklarini yaratish orqali bu erda rus davlatchiligini yaratish asosiy vazifalardan biri edi. Rossiya imperiyasidan Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chishi 1867 yildan imperiyaning oxirgi davrlarigacha kechdi. Lekin u migratsiya jarayoni to‘lqinsimon ko‘rinishda edi. Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning 1860 yillardan boshlab rus aholining davlat tomonidan majburiy ko‘chirilishi jarayoni ro‘y bergan bo‘lsa, keyinchalik, imperiyaning janubiy va g‘arbiy hududlaridagi 1891-1892 yillardagi qattiq ocharchilik davrida Sirdaryo viloyatiga aholining ko‘chishi jarayonlari nihoyatda keng ommaviy tus olgan edi. Eng asosiysi rusiyzabon aholining dastlabki Turkistonga migratsiyasi bu Sirdaryo

¹⁴⁶ Фомченко А.П. Русские поселения в Туркестанском крае в конце XIX – начале XX в. (Социально-экономические аспекты).-Т.:Фан.1983.-С.71; Равшанов Ш.Т. Туркестонга Россия империяси аҳолиси кўчиб келишининг ижтимоий тарихи (XIX аср охири- 1917 йил). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси.-Т.: 2022.-Б.69.

bo'ylari orqali kechib, uning Turkistonning boshqa viloyatlariga qayta remigratsmyasi davom etgan va viloyat rus aholini taqsimlovchi filtr vazifasini o'tagan edi.

Rossiya imperiyasining boshqaruvining o'rnatilishi Sirdaryo viloyati tub xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy, etnik jarayonlariga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Jumladan, necha ming yillik boshqaruv sohasi, din, ta'lim va boshqa sohalar cheklandi yoki isloh qilindi. To'g'ri ba'zi sohalarda rus va evropa tizimi va texnologiyalarining kirib kelishi Turkistonda ba'zi sohalarning (agrar soha, sog'liqni saqlash, telekommunikatsiya, gidrotexnologiya, temir va boshqa yo'llar, flotiliya) rivojlanishiga sabab bo'ldi. Lekin bizning ruslar orqali kirib kelgan har qanday yangiliklardan ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy yo'qotishlarimiz bisyordir.

III-BOB. ROSSIYA IMPERIYASI KO'CHIRUVCHILIK SIYOSATINING SIRDARYO VILOYATI TUB AHOLISINING IJTIMOIIY VA MADANIY HAYOTIGA TA'SIRI.

3.1. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi ta'lim sohasidagi siyosati.

Rossiya O'rta Osiyoning katta qismini bosib olishi va Turkiston general-gubernatorligini tashkil qilishidan ancha oldin uning hukmron doiralari hamda ilmiy jamoatchiligiga mahalliy xalqlarning ko'hna tarixga, boy ma'naviy merosga, an'anaviy ta'lim tizimiga hamda madaniyatning an'anaviy shakllariga egaligi yaxshi ma'lum edi. Turkiston hududida istiqomat qiluvchi xalqlarning insoniyat madaniyatini rivojlantirishga qo'shgan hissasi jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotining muhim omili sifatida baholab kelingandi.

Yirik markazlashgan davlat bo'lgan Movarounnahrning emirilishi, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi, qisman, Xiva xonligi o'rtasida tinmay davom etgan kurash, bu davlatlardagi ichki feodal o'zaro kurash iqtisodiyotga, xalq ta'limi, ko'p millatli tub aholi madaniyatiga ham jiddiy ziyon etkazgan bo'lsa-da, bu xalqlar hayotining ushbu sohalari ko'proq islom madaniyati va mafkurasining qadriyatlari hamda an'alariga, shuningdek Ibn Sino, Beruniy, al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy kabi va ko'plab boshqa qomusiy allomalar dahosi, asarlari bilan boyitilgan dunyoviy fanlarga asoslanardi. Shuning uchun ham ushbu masalani Turkistonga sharqiy slavyan aholini ko'chirish siyosatini iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayotiga bog'liq holda tadqiq etishimizning sabablarini fikrimizcha, quyidagicha deb izohlash mumkin:

- birinchidan, Turkiston eng yirik va metropoliyadan ancha uzoq joylashgan mustamlaka bo'lgan holda ko'p sonli tub aholisi, chuqur tarixiy ildizlarga, yuksak madaniyatga, o'zining an'alariga kuchli e'tiqodiga ega bo'lganligi imperiyaga hukmronligini barqarorlashtirishga to'sqinlik qilishi aniq edi.

- ikkinchidan, imperiyaning hukmron doiralari va pravoslav ruhoniylariga Sibir, Volgabo'yida ayrim boshqa hududlarida ilgari amalga oshirilgan siyosat mahalliy aholini (ruslashtirish, pravoslav e'tiqodiga majburan jalb etish, tarixiy

xotirasini yo‘q qilish va h.k.) ma’qul bo‘lib ko‘ringan va biroz o‘zgartirishlar bilan bunday siyosat Turkistonda ham qo‘llanishi mumkin degan rejalar tuzilganligi ma’lum. Biroq, Sibir, Volgabo‘yi hududlaridan farqli o‘laroq Turkistonda na ruslashtirish, na umuman, mustamlakachilik siyosatni eskicha usullar bilan olib borish mumkin emasligini tushungan Rossiya imperiyasining amaldorlari yangi mustamlakada kuchli armiya bilan birga pravoslav mazhabiga mansub aholini ham joylashtirishni afzal deb bilishdi.

- uchinchidan, o‘lkada ko‘plab rus aholini imtiyozli shartlarda joylashtirish va tub aholiga nisbatan hukmron siyosatni amalga oshirish barobarida tub millatlarning mustamlakachilikka qarshi kurash borasida milliy o‘zligini anglashi, siyosiy, ijtimoiy faolligi ortdi, shu tufayli o‘lkada yangi usul maktablari, milliy matbuot, milliy, siyosiy tashkilotlar vujudga keldi.

Turkiston istilo etilgach, general-gubernator K. Kaufman bu o‘lka xalqlarining madaniyati, ta’lim tizimi, ma’naviy hayotining boshqa sohalarining ahvoli va o‘ziga xosliklarini aniqlash uchun 1871 yil sentyabrda Turkistonga turli yo‘nalishdagi mutaxassislarni jo‘natishni iltimos qilib Moskva, Peterburg, Qozon universitetlariga hamda Qozon diniy (pravoslav) akademiyasiga murojaat etadi. SHu murojaatga muvofiq o‘lkaga o‘zicha kelgan qadimgi va o‘rta asrlar moddiy boyliklari hamda qo‘lyozmalari ishqibozlaridan tashqari, 1872 yilda xalq maorifi sohasining mutaxassislari bo‘lgan S.Gramenitskiy, K.Pantusov, M.Rostislavov va boshqalar jo‘natildi¹⁴⁷.

Natijada Rossiya markazidan juda ko‘plab turli soha mutaxassislari Turkistonga kelishadi va ilmiy izlanishlarni boshlab yuborishadi. Bulardan eng asosiylaridan biri bu Turkistonning ta’lim tizimini o‘rganish, kelajakda Turkiston ta’lim tizimini rus ta’lim tizimiga moslashtirish edi.

Turkiston o‘lkasining boshqa viloyatlari kabi Sirdaryo viloyatida ham XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mahalliy aholi va ko‘chib kelganlarning farzandlariga tahsil beradigan turli pog‘onadagi o‘quv yurtlari faoliyat ko‘rsatgan.

¹⁴⁷ O‘zMA, I-1 fond, 19-ruyxat, 10-yig‘ma jild, 21-22 varaqlar

Mahalliy ta'dim tizimiga kelganda, ma'lumki, asrlar davomida tub joy aholiga ta'lim beradigan ikki pog'onali musulmon maktablari faoliyat olib borgan. Quyi ta'lim dargohi maktab (maktabxona) bo'lib, ular asosan masjidlar qoshida bo'lgan, bunday maktablar bir sinf xonasidan iborat bo'lib, "qorixona" yoki savod chiqarish maktablari deb ham yuritilgan. Madrasalar esa o'rta va oliy ta'lim berishga mo'ljallangan edi.

1878 yilda Turkiston o'lkasini uch oy davomida tekshirish olib borgan Rossiyalik akademik A.Middendorf madrasa va maktablar soni g'oyat ko'pligini, shuningdek, tub aholining savodlilik darajasi, shu jumladan, harflarni bilish darajasi yuqorililigini ibrat olsa bo'lgudek namuna ekanligini ta'kidlab, metropoliya xalq ta'limi tizimi amaldorlariga bekorga tanbeh bermagan¹⁴⁸. O'lka ma'muriyati A.Middendorfnig bunday xulosalaridan tashvishga tushib, aholi turmush faoliyatining barcha sohalarini o'z nazorati ostiga olishga intilib, 1884 yilda hisob bo'yicha uchinchi general-gubernator N.O.Rozenbax boshchiligidagi musulmon o'quv yurtlari va masjidlar, vaqflarni ro'yxatga olishni tashkil etishdi, biroq bu ish oxiriga etkazilmadi¹⁴⁹.

Maktab va madrasalar faoliyati masalalariga to'xtab o'tgan rus mualliflari V.P.Nalivkin, S.M.Gramenitskiy, N.P.Ostroumov, A.P.Xoroshxin va boshqalar – uni qasddan yomonlab ko'rsatganlar, tub millatlar bolalari hamda yoshlarning an'anaviy ta'lim muassasalarida, shu jumladan, madrasada o'qishga ishtiyoqi saqlanibgina qolmay, balki ortib borayotganining ishonarli dalil-isbotlari haqida lom-mim demaganlar. Biroq, sezilarli darajada yangilangan madrasalar tarmog'ining rivojlanishi tub aholi milliy o'zligini anglashning o'sishini, uning ziyoli kuchlarining ommani ma'rifatli qilish shiori ostidagina emas, balki Sirdaryo viloyatini mustamlaka qaramligidan siyosiy, ijtimoiy ozod qilish shiori ostida, ancha kuchli harakatining yuzaga kelishini belgilab bergan jiddiy omil bo'ldi. Oliy darajadagi musulmon ruhoniylarining bir qismi mustamlakachilarning millatga qarshi amaliyotini qo'llab-quvvatlab turgan bir paytda Sirdaryo viloyatida ko'plab

¹⁴⁸ Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины.- СПб., 1882,-С.362-472.

¹⁴⁹ O'zMA, I-47-fond, 1-ro'yxat, 4112-yig'ma jild (1884y), 11-12 varaqlar.

badavlat kishilar, zamindorlar, savdo-sanoat doiralari orasidan ham, mavjud madrasalar qurilishiga faol ko'maklashdilar. Shu bois 1917 yilga kelib ularning umumiy soni o'lka bo'yicha 440 dan oshib ketdi¹⁵⁰.

Bir qator aniq ma'lumotlar bilan tasdiqlanuvchi fikrimizga ko'ra, hukumatning madrasa dasturiga rus tilini, «podshoning nomini xutbaga qo'shib o'qish» (yoki «podshoning duoi jonini qilish») ni joriy qilish, undagi mavjud muhim fanlarni cheklash, rus-tuzem maktablarini ochish orqali an'anaviy maktablarni siqib chiqarish, ular uchun rusparast mazmunidagi kitoblar yozish va boshqa harakatlar ayni tub xalq ziyolilari ko'plab vakillarining fuqarolik milliy-vatanparvarlik yondoshuvi tufayli kutilgan natijani bermadi. Mustamlakachi ma'muriyat, an'anaviy maktablar nafaqat diniy, balki siyosiy maktab ham ekanligini tushunish¹⁵¹, «ularni to'g'ridan-to'g'ri tugatish bizlarga (mustamlakachilarga–G.T.) nisbatan g'azab uyg'otishi mumkin»¹⁵²ligini tushunish jarayonida ham, o'z ta'sirini o'tkazgan.

Chunonchi, o'lkani mustamlakaga aylantirishning dastlabki o'n yilliklarida uning tub aholisining 4 mingdan 5 minggaacha,¹⁵³ boshqa ma'lumotlarga (V.P.Nalivkin) ko'ra esa, 5 mingdan ortiq maktabi bo'lgan bo'lsa, 1916 yil boshiga kelib maktablar soni 7000 dan oshib ketgandi¹⁵⁴. Biroq sezilarli darajada yangilangan madrasalar tarmog'ining rivojlanishi tub aholi milliy o'zligini anglashning o'sishini, uning ziyoli kuchlarining ommani ma'rifatli qilish shiori ostidagina emas, balki Turkistonni mustamlaka qaramligidan siyosiy, ijtimoiy ozod qilish shiori ostida, ancha kuchli harakatining yuzaga kelishini belgilab bergan jiddiy omil bo'ldi.

1890-yillarning boshida musulmon o'quv yurtlari bo'yicha o'lka muboshiri V.P.Nalivkin Turkistondagi madrasalar tarmog'i to'g'risidagi umumlashma ma'lumot tuzdi. Uning hisobi bo'yicha 1890/91 o'quv yilida Sirdaryoda 21 madrasa mavjud bo'lgan. Taqqoslash sifatida Farg'onada 1891/92 o'quv yilida 118

¹⁵⁰ O'zMA, I-47 fond, 1-ro'yxat, 4213-yig'ma jild, 16-17 varaqlar.

¹⁵¹ Кауфман К.П. Проект всеподаннейшего отчёта. -С. 432.

¹⁵² ўша жойдан. С. 432.

¹⁵³ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 4213-yig'ma jild, 16-17 varaqlar

¹⁵⁴ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования, С. 333.

ta hamda Samarqandda 1892/93 o'quv yilida 50 ta madrasa bo'lgan. Bu viloyatlarda ishlab turgan madrasalarning soni jami 189 ta bo'lgan¹⁵⁵.

Toshkent (1892-yil.), ayniqsa, Andijon (1898-yil.) qo'zg'olonlari jadidlar va ziyolilarning milliy-vatanparvarlik kayfiyatidagi boshqa vakillarini o'z maqsadlarini amalga oshirishga jiddiy safarbar qildi. Rossiya imperiyasi va mustamlaka zulmiga qarshi faqat faol kurashgina xalq ommasini yanada og'ir istibdoddan xalos qilishi mumkinligi to'g'risida ishonch hosil qildirdi. Chunki baron A.Vrevskiy o'rniga kelgan general-gubernator S.Duxovskoy Andijon qo'zg'olonidan keyin bir necha oy o'tmasidan imperiya harbiy vaziriga quyidagi takliflarni bayon qilgan:

1. Mahalliy aholining ma'naviy-axloqiy mavqeiga juda kuchli ta'sir ko'rsatayotgan barcha musulmon muassasalari hayotiga faol aralashish;

2. Turkiston o'lkasi uchun, o'lka musulmonlarini birlashtirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan organ-musulmonlar diniy boshqarmasining tuzilishiga yo'l qo'ymaslik;

3. Barcha mahalliy musulmon maktablarini ma'muriyat ixtiyoriga berish, umuman, barcha mahalliy musulmonlar o'quv yurtlari hamda diniy muassasalarini to'liq ro'yxatga olish;

4. Turkistondagi musulmonlarga nisbatan taxminan hukumat yahudiylarga nisbatan yo'lga qo'ygan munosabatlarni joriy qilish. Shu sababli o'lkadagi barcha musulmon maktablariga yahudiylar haqidagi 1893 yil 1 mart qonunini tatbiq etish.

Mazkur qonunga asosan musulmon maktablari domlari har yili alohida guvohnoma olishlari va buning uchun: maktab, qorixona, daloyilxona domlasi – 3 rubl 50 tiyin, madrasa domlari 7 rubldan to'lashlari darkor bo'ladi. General-gubernator, shuningdek, siyosiy jihatdan zararli deb topilgan mahalliy musulmon maktablarini yopish huquqi berilishini ham so'ragan¹⁵⁶, chunki bunday maktablar, ayniqsa, madrasalar o'lkada juda ko'p edi.

¹⁵⁵ O'zMA, I-1 fond, 2-ro'yxat, 431 l-yig'ma jild (1893y), 7-9 varaqlar.

¹⁵⁶ O'zMA, I-1 fond, 11-ruyxat, 161-yig'ma jild, 2-3 varaqlar.

1909-yilda general-gubernator Mishchenko imperiya xalq ta'limi vaziriga «butunlay maxfiy» ma'ruzasida, xususan, bunday deb yozgandi: «...Turkiston o'lkasi, xususan, uning uch tub viloyati – Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining tub aholisi savod chiqarishni yoyish ma'nosida, masalan, Rossiyaning Evropa qismi aholisiga nisbatan o'lchab bo'lmas darajada yaxshi ahvolda. Ko'psonli boshlang'ich bilim yurtlari (maktablar) hamda o'rta va oliy o'quv yurtlari (madrasalar)ning zich tarmog'i o'lkaning keng hududini butunlay qoplab olgan»¹⁵⁷. Shu bois, viloyatlar va uездlar harbiy-politsiya ma'muriyati tomonidan yangi usul maktablari va madrasalarini o'zboshimchalik bilan yopib qo'yishidan tashqari, Turkiston general-gubernatori Samsonov 1910-yilda «Turkiston o'lkasi musulmon bilim yurtlari to'g'risida nizom»ni tasdiqladi. Nizomda, xususan, «faqat siyosiy va axloqiy jihatdan ishonchli rus (Rossiya-G.T.) fuqarolarigagina maktablar ochish va o'qitishga ruxsat beriladi» deb belgilangandi¹⁵⁸.

Shunday og'ir bir sharoitda ma'rifatchilik harakatini kengaytirishda, tub aholining badavlat qatlami, ayniqsa savdogarlar va sanoatchi doiralarning moddiy va tashkiliy madadi jiddiy rol o'ynadi. Bularning bari, tub aholi ta'limini to'xtatib qo'yish bo'yicha millatlarga qarshi amaliyotga zid o'laroq, ularning milliy o'zligini anglashi va ijtimoiy faolligi o'sishi, jadidlarning, milliy manfaatlarining boshqa ifodachilarining izchil kurashi tufayli Turkistonda an'anaviy, yangi usul maktablari soni ancha oshishi uchun xizmat qiladi. Masalan, mustamlaka yillarida Sirdaryo viloyatining Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Turkiston kabi madaniy markazlarida yangi o'quv dargohlari barpo etildi. Bundan tashqari kichik shahar va yirik qishloqlarda ruhoniylar, dindorlar tomonidan ko'plab madrasalar ochilgan. Ularning bir qismi masjidlarda joylashgan. Madrasalar orasida yangi usul madrasalari deb nomlanganlari oz bo'lmagani e'tiborga loyiqdir¹⁵⁹.

¹⁵⁷ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 3531-yig'ma jild, 2-3 varaqlar

¹⁵⁸ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 3531-yig'ma jild, 17 varaq

¹⁵⁹ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане. -М.: Наука, 1960.-С.51.

O'lkada jadidchilik harakati avj olib, taraqqiyparvarlar tomonidan "usuli savtiya" (tovush maktablari, "yangi usul") maktablari ochilib, qisqa vaqtda o'quvchilar savodini chiqarishga o'tila boshlangandi.

So'nggi yillarga oid nashrlar va ilmiy asarlarda Turkistonda **yangi usul maktablari** jadidlar tomonidan XIX asrning 90-yillarida tuzila boshlangani ko'rsatiladi¹⁶⁰. XIX asrning 90-yillarida boshqa viloyatlar kabi Sirdaryo viloyatining Toshkent, Turkiston, Chimkent, Avliyoota kabi uezd va shaharlarida mahalliy qozi va muftiylar roziligi bilan¹⁶¹ochilgan yangi usul maktablarida diniy fanlardangina emas, balki ko'plab dunyoviy fanlardan Qozon madrasalarini bitiruvchilari emas, isloh qilingan mahalliy madrasalarning bitiruvchilari dars berishgan. Masalan, Toshkentda Eshonqul (Shayxontohur) madrasasi chinakam yangi usul madrasasi sifatida faoliyat yuritgan. 22 yoshli Munavvarqori Abdurashidxonov ayni shu madrasa bitiruvchilarini 1900 yilda (Toshkent shahrining rus qismiga qarashli bo'lgan Gospital bozori yaqinida) o'zi ochgan yangi usul maktabiga ishga jalb etgan¹⁶².

Bu vaqtga kelib Turkistonning qator shaharlarida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida mavjud bo'lgan yangi usul maktablari ko'p emasdi. Biroq ona tilida ovoz chiqarib o'qitish usuli, asosiy diniy fanlarning saqlanib qolishi hamda hayotiy muhim dunyoviy fanlarning o'qitilishi bunday maktablarni tub aholi nazarida jozibador qilib qo'ydi. Shu bois Turkistonda ta'lim masalalarini, umuman, diqqat bilan tadqiq etgan K.E.Bendrikovning: «Turkiston ma'muriyati ularga (yangi usul maktablariga–G.T.) senator K.K.Palen taftishi ko'rsatmalaridan keyingina e'tibor bera boshladi; o'shanda Toshkentdan bu maktablar to'g'risida mahalliy ma'muriyatga talablar yog'ilib ketgandi"¹⁶³, - degan fikrlariga qo'shilmay bo'lmaydi.

Ilk yangi usul maktablari paydo bo'lganidan boshlab o'lka ma'muriyati ularning faoliyatini kuzatib bordi, ularning tarmog'i kengayishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qildi. Ma'muriyat ijozatisiz ochilgan yangi usul maktablari

¹⁶⁰ Қосимов Б. Жадидчилик. Жадидлик ҳаракати ва жадид адабиёти// Ўзбек тили ва адабиёти. 1990.№4, 15 б.

¹⁶¹ О'зМА, I-79 фонд, 1-рухат, 619-йиг'ма jild, 1-3 varaqlar

¹⁶² О'зМА, I-47 фонд, 1-рухат, 955-йиг'ма jild, 195-196 varaqlar

¹⁶³ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане, С. 257-258.

ustidan nazoratni, xuddi an'anaviy maktab va madrasalar kabi, musulmon maktablari muboshiri olib borardi. 1885 yilda bu lavozimga birinchi bo'lib V.P.Nalivkin tayinlangan edi. O'lka mustamlakachi ma'muriyati yangi usul maktablari ochilishiga butun choralar bilan to'sqinlik qilganini quyidagi voqea tasdiqlaydi: 1901 yil sentyabrda general-gubernator nomiga Toshkent eski shahari Ko'kcha dahasining o'zbek aholisidan arznoma kelib tushdi. Aholi shahar boshlig'i ularga yangi usul maktabini ochishga ruxsat bermaganini yozgan. Maktabni barcha sharoitlar muhayyo bo'lgan xususiy xonadonda ochish mo'ljallangani.

Biroq bu haqda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatorining fikri so'ralganida u Toshkentning musulmonlar zich yashaydigan Ko'kcha dahasida yangi usul maktabi ochilishiga qarshi chiqqan¹⁶⁴. Shunga qaramay, A.Avloniy va M.Abdurashidxonov rahbarligidagi eski shahar jadidlari 1902-yilda maktabni ochishdi, keyin bunday maktablar Toshkentning Sebzor, Shayxontohur va boshqa dahalarida ham ochildi.

1917 yilga kelib o'lkada rasman ish olib borayotgan yangi usul maktablari 100 dan ortiq edi, deb qayd qilish mumkin. Shuningdek, doimiy ravishda o'sib borgan. Mustamlakachi ma'muriyat yangi usul maktablarini to'la aniqlashga va nazorat qilishga erisha olmagan. Chunonchi, 1910 yilda uezdlar va Toshkent shahar boshliqlarining ma'lumotlariga ko'ra, Toshkentda 17 ta yangi usul maktablari faoliyat yuritgan. Taqqoslash uchun, Qo'qonda 7 ta, Andijonda – 10 dan ziyod, , shu jumladan, Samarqandda beshta¹⁶⁵ shunday maktablar ish olib borgan. Boshqa ma'lumotlarga qaraganda esa, o'sha paytda Toshkentda 24 ta, Qo'qonda – 14 ta¹⁶⁶, Andijonda – 19 ta yangi usul maktablari bo'lgan¹⁶⁷.

Turkiston viloyatlari bo'yicha ma'lumotlar 1917-yil boshida mavjud bo'lgan yangi usul maktablari tarmog'ini nisbatan to'la ko'rsatadi. Bu davrda Sirdaryo viloyatida–40 ta yangi usul maktablari mavjudligi manbalarda keltirilgan. Ushbu

¹⁶⁴ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 2564-yig'ma jild, 17-19 varaqlar.

¹⁶⁵ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 1148-yig'ma jild, 149 -orqa varaq.

¹⁶⁶ O'zMA, I-47 fond, 1-ruyxat, 1004-yig'ma jild, 85 varaq.

¹⁶⁷ Ардаширов А.Ф. К вопросу о роли новометодных мактабов (по материалам Андижанской области): Ученые записки Андижанского Госпединститута. Вып. VI. – Андижан, 1957, С. 14.

yangi usul maktablarining yarmidan ko'pi Sirdaryo viloyati markazi Toshkent shahrida bo'lgan edi. Chunonchi, taqqoslash uchun, Farg'ona viloyatida 55 dan ziyod, Samarqandda–5, Yettisuvda–18, Kaspiyortida – 4 ta shunday maktab bo'lgan¹⁶⁸.

Boz ustiga, graf K.K.Palen taftish komissiyasi tomonidan ta'kidlanganidek: «siyosiy mulohazalardan ko'ra ko'proq o'sib kelayotgan avlodga hozirgi zamonning voqeyiy talablariga ancha muvofiq keladigan ma'lumot berish istagida bo'lgan tub aholi bu maktablarga o'z farzandlarini bajonidil beradi...»¹⁶⁹.

Yuqoridagi jihatni hisobga olgan holda Rossiya imperiyasi hukumatining Sirdaryo viloyatidagi ta'lim siyosati, ayniqsa, rus posyolkalari va qishloqlarida faoliyat yuritgan o'quv muassasalari haqida imkon qadar fikr yuritishni lozim topdik.

Turkiston general-gubernatorligi tuzilgandan keyingi birinchi davridayok o'lka va hududlar ma'muriyati, musulmon ruhoniylar ierarxik tuzilmasini o'zgartirish hamda madrasa va maktablar ustidan ma'muriy va siyosiy nazorat o'rnatishga darhol kirishib ketishdi.

Rossiya imperiyasi Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyati xalq bilim yurtlari inspeksiyasini tashkil etib, viloyatda bilim yurtlarini ochish, ularda ularda ta'limni yo'lga qo'yish qoidalarini imperiya markazida 1872 yilda ishlab chiqilgan "bilim yurtlari haqida nizom" ga asosan ish ko'rish orqali olib borish yo'lga qo'yildi.

Avvalo, tub joy aholi farzandlari uchun **rus-tuzem maktablarini** ochish orqali mahalliy millat vakillari orasidan quyi bo'g'in boshqaruviga "sadoqatli", "rusparast" kishilarni tarbiyalash masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Ayni mahalda mustamlakachi ma'muriyat o'lkada jadal ko'payib borayotgan rus aholisi uchun maktablar, gimnaziya, o'qituvchilar seminariyalarini ochishga

¹⁶⁸Журнал «Наука и просвещение»–Ташкент, 1922, №2. С.31-33. К.Е.Бендриков Кўрсатилган асар. С.260-261.

¹⁶⁹ Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенного по высочайшему велению сенатором гофмейстром графом К.К.Паленом. Т. VI. Учебное дело. – СПб., 1910. С. 151.

birinchi darajali ahamiyat berardi. Tub millatlar farzandlari uchun ta'limning yangi tizimini tashkil qilish masalalari esa ikkinchi darajali deb hisoblanardi.

N.I.Ilminskiy rus-tuzem maktablarini ochishni tavsiya etar ekan, jumladan, shunday deb hisoblagandi: «Agar aqlni ishlatib, bu maktablarni tub joy aholisi uchun qiziqarli qilib yo'lga qo'yilsa, aftidan, ular madarasalarga qarshi turib, ularni inkor etishi mumkin edi. Aholida bu maktablarga qiziqish qanchalik ko'p rivojlansa, madrasaning ta'sir doirasi va manfaatlari shunchalik cheklana boradi»¹⁷⁰ degan edi.

Mustamlakachi ma'muriyat esa, o'z bolalarini rus maktablariga topshirgan ota-onalar uchun pul mukofoti to'lashga ham rozi edilar, hamda haqiqatan ham, XIX asrning 70-yillarning boshidanoq to'lay boshladilar ham.

Bu ish, pirovard natijada, tub aholi yoshlarini ruslashtirish orqali, faqat Rossiyadan ko'chirib keltirilganlar orasida emas, balki mahalliy aholi orasida ham mustamlakachilikni mustahkamlash maqsadlariga javob berardi. SHunday sharoitda mustamlakachi ma'muriyat 80-yillar o'rtalarida shaharlarda hamda yirik qishloq aholi punktlarida rus-tuzem maktablari ochishga kirishdi. Bunday maktablarning «tuzem» sinflarida tub joy aholi farzandlari faqat rus tilini, Rossiya geografiyasi va tarixini emas, balki Rossiya madhiyasi – «Yo xudo, podshoni saqla»ni, «Uzoq umr tilash» duosini o'rganishlari, imperator xonadoni a'zolarining ismlari, unvonlarini yoddan bilishi zarur edi¹⁷¹.

Turkiston tub aholisi ta'limi sohasidan ma'muriy choralar vositasida asta-sekin surib chiqarish rus-tuzem maktablarini imkoni boricha ko'proq ochishdan iborat ruslashtirish amaliyoti Rossiya imperiyasi hamda mustamlakachi ma'muriyat uchun umuman samarasiz bo'ldi. Buning asosiy sabablari, **birinchidan**, rus-tuzem maktablari ochilishi, ularning asosiy fan sifatida imperiya tilini, rus madhiyasini, imperatorga uzoq umr tilash duosini o'z ichiga olgan ta'lim

¹⁷⁰ Знаменский Н.И. Участие Н.И. Ильминского в деле инородческого образования в Туркестанском крае. – Казань., 1900, С.101.

¹⁷¹ Ўзбекистонга асло хайрихоҳлик муносабатида бўлмаган ва деярли 30 йил Олмаотада яшаган П.Галузо маълумотларига кўра, мустамлакачилик даврида фақат Фарғона, Самарқанд ва Сирдарё вилоятлари бўйича ҳукумат ва Россиядан кўчириб келтирилганларнинг бедодлигига қарши деҳқонларнинг 668 мартаба оммавий чиқишлари қайд этилган. Қаранг: Галузо П.Г. Туркестан-колония. -Ташкент, 1935. Б. 90-91.

dasturi tub aholi ma'naviyatiga, milliy an'analariga, oila-turmush tarziga yot edi; **ikkinchidan**, mustamlakachi ma'muriyatning rus-tuzem maktablari ta'minoti, hatto, yangi shunday maktablar qurilishi uchun «maktab puli» solig'i olishi hamda bu maktablarga tub aholi bolalarini jalb etish bo'yicha majburiy choralar ko'rishi mahalliy millatlar aholisi ko'pchilik qismining noroziligini keltirib chiqarardi.

Shuni va boshqa bir qancha omillarni hisobga olib, Turkiston musulmon o'qituvchilarining o'lka s'ezdi (1917 yil 20-23 may kunlari) rus-tuzem maktablarida ta'lim mahalliy tilda olib boriladigan, rus tili o'quv fanlaridan biri sifatida o'qitiladigan milliy maktablarga aylantirishni yoqlab chiqdi¹⁷². Turkiston jadidchilik harakatining faollari ilk yangi usul maktablari tashkil etilayotgan dastlabki paytlarda shunday o'zgarishlar qilishni taklif etishgandi.

Ayni mahalda mustamlakachi ma'muriyatning rus-tuzem maktablariga berilgan imtiyozlari va qo'llab quvvatlashlariga qaramay, bu maktablar o'zini oqlamadi. Puxta ishlab chiqilgan rus-tuzem maktablarini tashkil qilish bo'yicha asosiy ishlar 1884-yilda, musulmon o'quv yurtlariga nafratini yashirmagan general - gubernator Rozenbax davrida o'z mavqeini biroz tikladi. Buxorodagi «Mir – Arab» madrasasini tugatgan, Chimkentning sobiq muftiysi Sattorxon Abdulg'afforxonov shu yili o'zi tug'ilgan shaharda shunday maktab ochdi.

O'sha vaqtning o'zida Toshkentda milliy zodagonlarning taniqli vakillari (Solixo'ja Kichkinahojinov, Muhitdinxo'ja, Orifxo'ja, Sharifxo'ja Podshohojinov va boshqalar) ko'magida Saidg'ani Saidazimboevning xonadonida rus-tuzem maktabi tantanali ochildi. O'zbek va tojik tillarini yaxshi bilgan V.P.Nalivkin bu maktab mudiri va rus tili o'qituvchisi, Shayxontohur masjidining imomi Solixo'ja Kichkinahojinov esa musulmon o'qituvchisi etib tayinlandi. Rus o'qituvchisining yillik maoshi 1000 rubl, musulmon o'qituvchisiniki esa 400 rubl, ya'ni roppa-rosa 2,5 baravar kam (!) belgilandi¹⁷³.

Shundan keyingi yillarda rus-tuzem maktablari o'lka ma'muriyati va qisman mahalliy milliy elita tomonidan, asosan majburlash yo'li bilan hamda o'qishga jalb

¹⁷² Туркестанский учитель, 1917, №1-2. С. 26.

¹⁷³ Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане, 186-бет; Остроумов Н. Сарты. Этнографические материалы. – Ташкент, 1896. С. 179.

etilgan bolalarning ota-onasiga pul mukofoti berish vositasida¹⁷⁴ Turkistonning boshqa yirik va o'rta shaharlarida tashkil topdi. Volostlarda esa bunday maktablarni faqat Toshkent uezdida (To'ytepa, Piskent, Chinoz, Koriz, Tillov, Obliq) hamda Jizzax, Pishpek, Avliyoota uездlaridagina ochishga erishildi. Mustamlaka ma'muriyati rus-tuzem maktablari tarmog'ini kengaytirish, o'quvchilar kontingentini tub aholi jumlasidan ko'paytirish maqsadida har yili butun mahalliy millat aholisidan mablag' yig'ishni amalga kiritdi. Bunday maktablar bo'lmagan, lekin ochilishi mo'ljallangan volostlar aholisi esa, bu siyosatni faol o'tkazib kelgan. V.P.Nalivkin ta'kidlaganidek, bunday maktab solig'ini to'lamagan, shuning uchun rus-tuzem maktablari ochilishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan¹⁷⁵. Mustamlakachi ma'muriyat rus-tuzem maktablarini jozibadorroq qilish va moddiy, o'quv-metodik jihatdan puxtalik baxsh etish uchun milliy zodagonlar vakillari – qozilar, muftiylar, yirik savdogarlar, sanoatchilar, zamindorlardan unumli foydalandi.

Xolislik uchun shuni ta'kidlash zarurki, mahalliy zodagonlarning toshkentlik 1-gildiya savdogarlari Saidboy, Saidkarim va Saidg'ani Saidazimboevlar, ularning kuyovi Orifxo'ja, Sebzor dahasi qozisi Muhiddinxo'ja, Chimkent muftiysi, keyin esa Qo'qon qozisi Sattorxon Abdug'afforxonov kabi shaxslar mustamlakalarning bu boradagi choralarini maqullashga majbur bo'lishganigina 30 yildan ortiqroq vaqt ichida Turkistonda bor-yo'g'i 167 ta, shu jumladan markazi Toshkent bo'lgan Sirdaryo viloyatida 65 ta rus-tuzem maktabining ochilishida yordam berdi.

Biroq, bu maktablarni bitirib chiquvchilar doimo ozchilikni tashkil etardi, chunki ko'pchilik o'quvchilar rasman ro'yxatga olingan bo'lib, mashg'ulotga ahyon-ahyonda qatnashib qo'yishardi. Turkiston o'lkasi birinchi o'qituvchilar qurultoyida (1917 yil 9-14 may- diss...) ta'kidlaganidek, rus-tuzem maktablari o'quvchilarining ko'pi IV sinfgacha etib bormagan.

Yana bir omil Toshkent, Avliyoota, Chimkent, Turkistondagi rus-tuzem maktablariga o'quvchilar uzoq masofalardan qatnashgan. Bu transport

¹⁷⁴ O'zMA, I-1 fond, 1-ruyxat, 88-a-yig'ma jild, 4 varaq.

¹⁷⁵ Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1913. С. 11-12.

muammosini tug'dirardi. Yuqoridagi sabablar tufayli Sirdaryo viloyat o'quv yurtlari inspeksiyasi ma'muriy organlarni o'quvchilarni rus-tuzem maktablariga jalb qilishga targ'ibot qilgan, maktablarga qatnaydigan o'quvchilar sonini imkon qadar ko'paytirish, ularni oxirgi to'rtinchi sinfgacha o'qitish vazifasi viloyatdagi ta'lim sohasida muhim muammolardan biri bo'lib qolgan.

Rus-tuzem maktablari qurishga mablag' davlat xazinasi hisobidan ajratilgan. Rus-tuzem maktablari binosini qurish uchun o'rtacha 5000 rubldan 9000 rublgacha sarflangan. SHuningdek, har bir rus-tuzem maktabi qoshida 12 nafargacha o'quvchi bo'lib, o'quvchilarning har biriga 60 rubl, jami: 720 rubl harajat qilingan.

Sirdaryo viloyatida rus-tuzem maktablarini bir yillik harajati uchun Xalq maorifi vazirligi -9489 rubl, Zemstvo idorasi -1660 rubl, shahar byudjetidan - 9137 rubl 45 kop., jamoat mablag'laridan 17435 rubl sarflangan. 1910 yillarga kelib, narx-navoning keskin oshishi bilan Toshkent rus-tuzem maktabi huzuridagi internatda har bir o'quvchiga bir yilda 93 rubl 75 kop. mablag' sarflangan¹⁷⁶.

Shuningdek, Turkiston viloyatlari kabi Sirdaryo viloyatida rusiyzabon ta'limni rivojlantirish maqsadida turli mutaxassiliklarga ixtisoslashtirilgan bilim yurtlari va gimnaziyalar faoliyat yuritardi.

Kazalinsk, Perovsk, Toshkent, Turkiston, Petro-Aleksandrovsk, Avliyoota bilim yurtlarida kasb-hunar sinflari bo'lgan. Holbuki, hunar maktablarida duradgorlik, tokarlik, etikdo'zlik, muqovasozlik va boshqa kasblar o'rgatilib, ularda yuqori va quyi tabaqa vakillarining farzandlari ta'lim olgan¹⁷⁷. Dastlab, 1876 yil 15 avgustda Toshkent shahrida to'rt sinfli erkaklar gimnaziyasi tashkil etildi. 1910 yillarga kelib bu gimnaziyada 500 ga yaqin o'quvchi ta'lim olgan. Gimnaziyada ruslardan tashqari 10 foiz yahudiy, 4 foiz arman, 2 foiz musulmon farzandlari ham tahsil olgan¹⁷⁸. Mazkur gimnaziyada o'quvchilar soni muttasil oshib borgan. Gimnaziyada 1899-1905 yillarda o'quvchilar soni 310 nafardan 474

¹⁷⁶ Статистический обзор Сырдарьинской области за 1910 год. -Г.Ташкент,1912.-С.180.

¹⁷⁷ Шодмонова С.Б. Туркистон матбуотида хунар таълими масалалари//Бухоро давлат университети илмий ахборотномаси.-2009.№9.-Б.21-23.

¹⁷⁸ Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторические очерк. -Ташкент, 1912,-226 стр.

nafarga oshganligi, gimnaziya 10 foiz etim bolalar, 1906 yildan 120 ga yaqin bolalar bepul ta'lim olganligi qayd etiladi¹⁷⁹.

Shuningdek, Toshkent shahrida 1876 yil 1 oktyabrda ayollar gimnaziyasi tashkil etilgan. 7 sinfdan iborat shaxsiy xonadonda faoliyat yuritayotgan ushbu gimnaziya 1879 yilda Toshkent markazidagi Konstantin hiyobonida hukumatga qarashli 3 ta korpusli yangi binoga ko'chirilgan. Mazkur ta'lim muassasasida o'quvchilar soni o'sib borib, 1910 yillarda 700 nafar xotin-qizlarga 51 nafar o'qituvchi ta'lim bergan. Xotin-qizlar gimnaziyasida bu davrda sinflar soni 16 taga etib, 7 foiz yaxudiy, 1 foiz musulmon, 0.5 foiz arman qizlari ta'lim olgan¹⁸⁰. Ushbu ta'lim muassalari davlat tomonidan moliyalangan. Shuningdek, 1911 yilda Toshkent uezdi Zangiota qishlog'ida mahalliy yoshi kattalar uchun hunar bilim yurti qoshidagi tungi kurslarni ochish uchun ma'muriyatdan 300 rubl miqdorida mablag' so'raladi¹⁸¹.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu maktablardan tashqari ta'lim muassasalarining bir qator turlari vujudga kelib, 1-2 sinfli boshlang'ich maktablar, cherkovlar qoshida gimnaziya, maktablari, erkaklar va xotin qizlar bilim yurtlari, gimnaziyalar, 3-4 sinfli quyi darajadagi shahar maktablari, 8 sinfli o'rta ma'lumot beradigan maktablar, shahar va qishloq bilim yurtlari, savdo (kommersiya) bilim yurtlari, xususiy savdo sotiqni o'rgatadigan 3 oylik, 6 oylik kurslar kabilar tashkil etilgan.

Kazalinskidagi birinchi 4 sinfli maktab Orenburg episkopi Antonio Radonejskiy tashabbusi bilan 1858 yilda ochiladi. 1860 yilga kelib maktab o'quvchilari soni 33 nafar o'g'il bola, 2 nafar qiz bolalarni tashkil etadi. Maktabda xudolar tarixi, o'qish va yozish o'rgatilgan. Maktab sharoiti juda og'ir, eski binoning bitta xonasi, o'quv darsliklari yo'q, partalar eski savdo peshtaxtalalari bo'lganligi uchun noqulay, qog'oz va pero, siyoxdonlar etishmas edi. 1863 yilga kelib 54 nafar o'quvchidan 12 nafar o'quvchi ushbu maktabni bitirib chiqadi¹⁸².

¹⁷⁹ O'zMA, I-1 fond.7-ruyxat, 439 yig'ma jild, 33-34 varaqlar; O'zMA, I-1 fond.7-ruyxat, 293 yig'ma jild, 2-varaq.

¹⁸⁰ Добромыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторические очерк. -Ташкент, 1912,-226 стр.

¹⁸¹ O'zMA, I-1 fond.7-ruyxat, 439-yig'ma jild, 15-varaq.

¹⁸² Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-26.

1861 yilda Kazalinskda birinchi ayollar uy maktabi ochiladi. Bu maktab xudojuy A.Kiryakovani uyida ochilgan va u qizlarga ta'lim berardi. Ushbu maktabda 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lg'an 13 nafar qizlar yozish, tikish, bichish, chiroyli o'qishlarni o'zlashtirgan.

Kazalinskda 2 sinfli qizlar prixod bilim yurti 1879 yilda ochiladi. Bunda o'quvchi qizlar soni 70 nafarni tashkil etgan. Undan 3 nafari yaxudiy, 2 nafarini tatar millati qizlarini tashkil etgan edi. Unga davlat xazinasi va zemstvo mablag'laridan 2993 rubl ajratilgan¹⁸³. Kazalinskda rus-tuzem maktabi 1894 yilda ochilgan. Bu maktab o'quvchilarining 60 foizi qirg'iz (qozoq), 20 foizi tatar, 20 foizi mahalliy aholi farzandlari edi. 1904 yildan yoshi katta mahalliy aholi uchun ushbu bilim yurtining kechki kurslari ham foliyat yurita boshlagan. Bundan tashqari 1900 yilda 1 sinfli erkaklar bilim yurti, 1910 yilga kelib ikkinchi 1 sinfli erkaklar bilim yurti, alohida tatar o'g'il va qiz bolalariga mo'ljallangan maktab, mahalliy qirg'iz bolalari maktablari mavjud edi¹⁸⁴.

Perovski (1-fort) uездida 2 sinfli cherkov qoshidagi birinchi maktab 14 aprel 1860 yilda ruxoniy Andrey Malovni uyida tashkil etiladi. Maktab dastlab 15 nafar o'quvchi bilan (6 nafar o'g'il, 9 nafar qizlar) faoliyatini boshlaydi. Maktabda bir nafar o'qituvchi tomonidan arifmetika, o'qish, yodlash, xudo qonunlari fanlari o'tilgan. 1863 yilga kelib 43 nafar o'quvchi maktabga qatnaydi. Lekin ularning bor yo'g'i 4 nafari kursni to'liq tugatadi. Buning sababi o'qituvchilarning etishmasligi, barcha fanlardan bir o'qituvchining bilim berishi, o'qituvchilarning moddiyat tufayli maktabni tashlab ketishi va boshqa omillar edi. Bundan tashqari bir va ikki sinfli erkaklar va ayollar bilim yurtlari, qirg'iz (qozoq) maktablari faoliyat yuritgan edi¹⁸⁵.

Ushbu uezdda 1901 yilda rus-tuzem bilim yurti ochiladi. 1911 yilda bu o'quv yurtida 63 qirg'iz (qozoq), 13 sart, 3 tatar, 3 yahudiy bolalari tahsil olib, ularning jami soni 82 nafarni tashkil etgan. Bundan tashqari uezdda ochilgan Toshkent temir yo'l bilim yurti filialida 150 nafar o'quvchiga 4 nafar o'qituvchi dars bergan.

¹⁸³ o'sha joyda. B-26.

¹⁸⁴ o'sha joyda. B-27.

¹⁸⁵ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. -С-94.

Uezdda tatar maktabiga 20 nafar, mahalliy maktabga 20 nafar, yaxudiy maktabiga 30 nafar o'quvchilar qatnardi¹⁸⁶.

Sirdaryo viloyatining Turkiston shahrida shaharning faxriy fuqarosi Aleksandr Tixomirov tomonidan 1873 yilda dastlabki maktab ochiladi. Bu maktab 1879 yildan ikki sinfli shahar bilim yurtiga aylantiriladi. Ushbu yilda 20 nafar mahalliy aholi farzandlari ijara uylarda turib ushbu bilim yurtida tahsil olardi. 1884 yilga kelib yoshi katta mahalliy va rus aholi uchun ushbu bilim yurtining kechki kursi ochiladi. Mazkur bilim yurtiga ajratilgan mablag' bir yilda 8500 rublni tashkil etib, uning 2360 rubli davlat xazinasidan, 5515 rubli zemstvo mablag'laridan, 400 rubli shahar mablag'laridan, 400 rubli boshqa yig'ilgan pullardan qoplangan. 1910 yilda bilim yurti o'quvchilari soni 82 nafar bo'lib, uning 49 nafarini ruslar, 23 nafarini qirg'iz (qozoq) lar, 4 nafarini sartlar, 5 nafar yaxudiy va 1 nafar tatarlar tashkil qilgan.

Bundan tashqari 1890 yilda 1 sinfli xotin-qizlar bilim yurti hamda bu davrda Turkiston temir yo'l stansiyasi qoshidagi temir yo'l bilim yurti ochilgan. 1910 yilda bu bilim yurtining o'quvchilari soni 229 nafar bo'lib uning 200 nafari rus, 16 nafari polyaklar, 11 nafari arman, 1 nafari yaxudiy, 1 nafari tatar millati vakillari edi¹⁸⁷. Bir tomoni shundaki, ushbu bilim yurtiga aqalli birorta mahalliy aholi farzandari qabul qilinmagan.

Sirdaryo viloyatining Avliyoota uezdida 1876 yilda dastlabki maktab kichik bir binoda o'z faoliyatini boshlaydi. 1879 yilda uezd markazida 2 sinfli shahar bilim yurti tashkil etiladi. Ushbu bilim yurtida mahalliy aholi farzandalari ham ijarada turib o'qiganligi keltirilgan. 1884 yildan mahalliy aholining yoshi katta vakillari uchun ham kechki kurslar tashkil etilgan. 1890 yildan boshlab ushbu o'quv yurtida bog'dorchilik bo'limi, 1905 yilda qo'l mehnati bo'limlari ochilgan. 1905 yilda ushbu bilim yurti 3 sinfli bilim yurtiga aylantiriladi. Bilim yurtida 1911 yil 1 yanvar xolatiga 80 nafar o'quvchi bo'lib, ularning 64 nafarini rus, 15 nafarini magometan, 1 nafarini yahudiy millati vakillari tashkil etgan. Ushbu o'quv

¹⁸⁶ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типо.лит.О.А.Порцева -Т.1912 г. -С-94.

¹⁸⁷ O'sha asar B.134.

yurtining bir yillik xarajati 9558 rubl bo'lib, unga davlat byudjetidan 2360 rubl, shahar mablag'laridan 200 rubl, zemstvo mablag'laridan 6715 rubl, o'quvchilarning ota-onalari va boshqa xayriya mabalg'laridan 273 rubl mablag' yig'ilgan¹⁸⁸. Bundan tashqari uezd markazida 1879 yilda bir sinfli xotin-qizlar bilim yurti tashkil etilib, 1909 yilda ikki sinfli xotin-qizlar bilim yurtiga aylantirilgan. Ushbu bilim yurtida 110 nafar-xotin qizlar, jumladan, 2 nafar yaxudiy xotin-qizlari taxsil olgan.

Uezdda 1892 yil 1 oktyabrda bir sinfli erkaklar bilim yurti tashkil etilib, 1909 yilda ikki sinfli erkaklar bilim yurtiga aylantirilgan. Ushbu bilim yurtida 1910 yilda 89 nafar o'quvchi tahsil olgan. Uezdda bundan tashqari rus-tuzem bilim yurti 1895 yildan faloiyat yuritib, unda 71 nafar, jumladan 2 nafar rus bolalari tahsil olgan.

Uezdda 1911 yilda ikkinchi razryadli xususiy xotin-qizlar o'quv yurti tashkil etilgan va shahar byudjetidan yillik 3000 rubl mablag' ajratilgan.

Uezd markazida 15 yoshdan qabul qiluvchi yaxudiylarning xederlar maktabi, 16 ta mahalliy, 2 ta yangi usul maktablari faoliyat yuritgan¹⁸⁹. Yangi usul maktablarida tatar muallimlari dars berishgan. Yangi usul maktablarining birinchisi tatar machitida (35 nafar o'quvchi), ikkinchisi Qo'shtepa qishlog'ida (16 nafar o'quvchi) tashkil etilgan¹⁹⁰.

Chimkent uездida birinchi o'quv muassasasi 1875 yilda fahriy fuqarosi Dmitriy Voznesenskiy xotirasiga va uning mablag'lari hisobidan qurilgan edi. Bu maktab bir yildan keyin, ya'ni 1876 yilda xalq ta'limi tasarrufiga o'tkaziladi. Yillik xarajati 450 rubl etib belgilanib, xalq bilim yurti deb nomlanadi. 1879 yildan ikki sinfli shahar bilim yurtiga aylantirilgan. Bu bilim yurtida 1884 yildan kechki kurslar ham tashkil etilgan. 1890 yildan etikdo'zlik sinfi, 1905 yildan keyinchalik 3 sinfli bilim yurtiga aylantirilib, qo'l mehnati sinflari ham tashkil etilgan.

Ushbu bilim yurtida 1911 yilda 120 nafar o'quvchi bo'lib, uning 20 nafari mahalliy qirg'iz (qozoq) lar, 2 nafar yaxudiy, 1 nafar tatar, 3 nafar sart farzandlari

¹⁸⁸ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. С-171.

¹⁸⁹ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. С-171.

¹⁹⁰ Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. С-172.

tahsil olgan. Maktab internatida uzoq hududdan kelib, ijarada turib o'quvchilar soni 24 nafar edi. Maktab xarajatlari uchun bir yillik to'lov 8685 rublni tashkil etib, 2360 rubl davlat mablag'laridan, 510 rubl shahar mablag'laridan, 5515 rubl zemstvo mablag'laridan, 300 rubl boshqa mablag'lardan jalb etilgan. 1879 yildan 1 sinfli xotin-qizlar bilim yurti ochilgan. Bu bilim yurti 1901 yildan alohida pishgan g'ishtli zamonaviy binoga ko'chirilgan. 1911 yil hisobiga 90 nafar o'quvchi-qizlar bo'lib, uning 77 nafari rus, 4 ta polyak, 7 ta yaxudiy, 2 ta tatar millatiga mansub edi¹⁹¹.

Bundan tashqari 1877 yilda birinchi rus-tuzem bilim yurti, 1910 yilda ikkinchi rus-tuzem bilim yurti, 1909 yilda xususiy ayollar gimnaziyasi, 1910 yilda erkaklar bir sinfli bilim yurti faoliyat yuritgan. Bundan tashqari yaxudiylarning 1 ta maktabi, 1 ta yangi usul maktabi, 35 ta mahalliy sart maktablari faoliyat yuritgan.

Bu davrda Sirdaryo viloyatidagi bilim yurtlarda 426 nafar o'quvchi tahsil olib, ularning qariyb yarmini, ya'ni 210 nafarini Toshkent bilim yurti o'quvchilari tashkil etgan¹⁹².

Rossiya imperiya ma'muriyati Sirdaryo viloyatini tashkil etishi davomida ko'chirilgan aholini ijtimoiy muammolarini hal qilish borasidagi chora-tadbirlarni ko'rgandi. Dastlab Toshkent, Turkiston, Avliyoota, Chimkent, Kazallinsk, Perovsk shaharlari, bu shaharlarda pochta idoralari, telegraf, harbiy gubernatorlar binosi, zobit (ofitser)lar uyi, istirohat bog'lari (park), uy-joylar, harbiylar kazarma, cherkov binolari qurildi. Rusiyzabon aholini ijtimoiy-ruhiy qullab-quvvatlash maqsadida dastlabki ibodat uylari, cherkov uylari, keyinchalik cherkovlar qurila boshlandi. Aholi asosan xristian dinining pravoslav oqimidagilar bo'lib, nemis-mennonet, molokan, starover, baptist, protestant. katolik, arrian, xlist kabi oz sonli diniy konfessiyadagilar ham mavjud edi. Sirdaryo viloyati boshqa viloyatlarga qaraganda ko'chib kelgan aholi soni va etnik tarkibi ko'pligi bilan ajralib turar edi. Masalan, viloyatda birgina K.P. Kaufman boshqaruvi davrida (1867-1882 yy.) Avliyootada 5 ta, Toshkent uezdida bitta mennonitlar posyolkasi mavjud edi. Uezd

¹⁹¹ В.Ф.Караваев. Голодная степь в ее прошлом и настоящем. Статистико-экономический очерк, Спб. 1914 г. Приложения. С.79

¹⁹² O'zMA, I-3-fond, 1-ro'yxat, 79-yig'ma jild, 112-varaq.

markazlarida har bir diniy vakillarining ibodat qilish (sinagoga, ibodat uyi) joylari mavjud edi.

Ko'chib kelgan rus aholi diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida Sirdaryo viloyati uezd markazlarida dastlabki ibodat uylari, cherkovlar qurila boshlandi. CHerkovlar qurilishi 3 xil manbadan, davlat, zemstvo mablag'lari, xususiy mablag'lar hisobidan moliyalangan.

Sirdaryo viloyatiga aholini ko'chirishni dastlabki bosqichida Perovsk uezdida 1855 yilda dastlabki cherkov qurish ishlari boshlangan edi. Keyinchalik, 1866 yilda Avliyoota shahrida dastlabki cherkov qad rostlagan. Qal'alarda avval ibodat uyi qurilib, diniy marosimlar shu binoda ado etilgan. Biroq, keyinchalik cherkov binosi Rossiya imperiyasi markaziy guberniyalaridagi cherkovlar loyihasi asosida pishgan g'ishtdan qad ko'tarib, uning tomi metal qoplama bilan qoplangan, temir panjarali darvozasi, ikki tomondan kiriladigan eshiklari, oynavand, yorug'lik tushadigan panjarali derazalari mavjud bo'lgan. Cherkov polli, mahobatli bo'lishiga e'tibor qaratilgan¹⁹³.

Aholi kam sonli bo'lgan qishloq va posyolkalarda ibodat uylari qurilib, ular soni 20 tadan ortiq bo'lgan. 1917 yilga qadar viloyat uездlarida deyarli barchasida cherkov va ibodat uylari bo'lgan.

Perovskda birinchi pravoslav cherkovi fortning birinchi ruxoniysi Lev Goroxovskoyga atab 1855 yilda quriladi. 1863 yilda alohida xom g'ishtdan cherkov qurilishi boshlanadi va 1868 yilda jala yog'ishi oqibatida ushbu cherkov vayronaga aylanadi. Faqatgina 1906 yilga kelib 3500 rubl sarflangan, sig'imi 400 nafar ibodat qiluvchiga mos cherkov quriladi. Bundan tashqari staroobryad va yaxudiy, tatar ibodat uylari ham mavjud edi.

Kazalinsk uezdi markazida 1872 yilda birinchi harbiylar cherkovi qurilishi boshlanadi va 1874 yilda qurib bitkaziladi. Cherkov davlat mablag'lari hisobidan pishgan g'ishtdan qurilgan edi. Bundan tashqari uездda staroobryad va yaxudiy ibodat uylari mavjud edi.

¹⁹³ O'zMA, I-961-fond, 1-ro'yxat, 15589-yig'ma jild, 45,46,47,48-varaqlar.

Turkiston shahridagi birinchi pravoslav cherkovi ruxoniy Nikolay nomidagi uncha katta bo'lmagan, xom g'ishtdan qurilgan uyda 1871 yilda tashkil etilgan. Uezd shahrida 1884 yilda yangi cherkov qurilishi boshlanadi va 1886 yilda 100 nafar rus aholi ibodat qiladigan cherkov qurib bitkaziladi. Ushbu cherkov qurilishiga 22000 rubl davlat mablag'lari ishlatildi. Bundan tashqari bu shaharda 1 ta sinagoga ham mavjud edi¹⁹⁴.

Avliyoota uездida birinchi pravoslav cherkovi 1866 yilda dastlabki harbiylar kazarmasi yonida tashkil etilgan. 1870 yilda bu erdagi faoliyat ko'rsatgan yuqori va quyi tabaqa iste'fodagi harbiylar iqtisodiy ko'magi natijasida xom g'ishtdan kichik cherkov bunyod etilgan. 1890 yilga kelib davlat mablag'lari evaziga asosi toshdan, devori pishgan g'ishtdan qurilgan, og'irligi 160 puddan iborat 8 ta katta va kichik qo'ng'iroqlar qo'yilgan cherkov binosi quriladi. 1904 yilga kelib uездda davlat, xususiy va eparxiya mablag'laridan ikkinchi cherkov bunyod etiadi. Bundan tashqari shaharda 1 ta yaxudiylar ibodat uyi ham mavjud edi.

Chimkent uездida 1868 yilda dastlabki pravoslav cherkovi bunyod etiladi. 1885 yilda davlat mablag'lari evaziga 250 o'rinli yangi cherkov qurilib topshiriladi. 1894 yilda Chimkent shahri rus aholisi uchun ikkinchi uncha katta bo'lmagan, pishgan g'ishtdan qurilgan rus qabristoni qoshidagi pravoslavlar cherkovi bunyod etiladi. Bundan tashqari 1 ta yaxudiylar ibodat uyi ham shaharda mavjud edi¹⁹⁵.

Shaharda harbiylar ko'p sonli bo'lib, harbiylar, turli kasbdagi rus fuqarolari bitta cherkovda diniy marosimlarni, ibodat amallarini bajargan. Cherkov ko'chib kelgan aholi ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda (bolaga ism qo'yish, nikoh marosimini o'tkazish, cho'qinish, Rojdestvo bayramini o'tkazish, vafot etganlar bilan vidolashish va hakoza) muhim jamoat binosi hisoblangan. Cherkov, ibodat uylari (namozxona va boshqa diniy muassasalar) qurish ishlarini yo'lga qo'yishda Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan ta'sis etilgan "Turkiston eparxiyasi",

¹⁹⁴Добромыслов А.Н. Город Сыр-дарьинской области. Эл-пар. Типолит.О.А.Порцева -Т.1912 г. С-135.

¹⁹⁵ Караваев. В.Ф. Голодная степь в ея прошлом и настоящем. Статистико-экономический очерк, Спб. 1914г. Приложения. С.79

“Muqaddas Sinodning Turkiston bo‘limi” kabi tashkilotlar faoliyat yuritib, ular hisobiga katta mablag‘lar o‘tkazilgan¹⁹⁶.

Arxiv manbalarida “Muqaddas Sinodning Turkiston bo‘limi” tomonidan Turkiston general-gubernatori nomiga yuborgan ko‘plab xatlari saqlangan. Bu xatlarda ko‘chirilgan rusiyzabon aholi uchun cherkov qurish va ochishni yo‘lga qo‘yish, ushbu muassasa ko‘chirilganlar ma’naviy ehtiyojini qondirishda muhim ekanligi ta’kidlangan¹⁹⁷. Rus dehqonlari istiqomat qiladigan qishloq va posyolkalarda cherkov yoki ibodat uylari barpo etishga 1-1,5 desyatina er maydonlari ajratish, qurilish ishlariga muhandis- quruvchi va loyihachilarni jalb etish masalalari alohida xat va bildirishlarda ta’kidlangan¹⁹⁸. Rossiya imperiyasining eparxialari hisobiga 1910 yilda ajratilgan mablag‘lar miqdori bilan tanishish asnosida, Turkiston eparxiasiga Tobolskiy eparxiasidan so‘ng, eng ko‘p mablag‘ taqsimlangani ma’lum bo‘ldi.

Turkiston eparxiasiga ajratilgan 176312 rubl mablag‘ hisobidan cherkov va ibodat uylari qurish orqali ko‘chirilgan aholi diniy ehtiyojlarini qondirish, ularni o‘lkada yanada mustahkam o‘rnashib qolishi maqsad qilingan edi. Ayniqsa, Sirdaryo viloyatida diniy muassasalar qurishga alohida e’tibor qaratilganligini manbalar tasdiqlaydi¹⁹⁹.

Cherkovlarni ruhoniylar (“Muqaddas ota”), ruhoniylar yordamchisi, dyakon, qo‘ng‘iroq chaluvchi monax va monashka kabilar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Cherkovlar qoshida prihod maktablari, erkak va xotin-qizlar bilim yurtlari tashkil etildi. Ularning ayrimlarida ruhoniylar diniy ilmlardan saboq berdi, ruhoniylar va diniy xizmatchilarga moddiy shart-sharoitlar yaratildi.

Diniy muassasalar qoshidagi maktab o‘qituvchilari 1910-1912 yillarda har yilda 1500 rubl maosh, 500 rubl oziq-ovqat puli, kiyim-kechak uchun 250 rubl,

¹⁹⁶ o‘sha joyda. C.118

¹⁹⁷ O‘zMA, I-1-fond, 9-ro‘yxat, 276-yig‘ma jild, 21,22,23,24-varaqlar.

¹⁹⁸ О Колонизации Туркестана//Речь.1908.-№46.

¹⁹⁹ Мирзаева А.Д Русские поселения Мирзачульского Оазиса и их социально-экономическое положение в конце XIX – начало XX века. Автореферат. Диссертация на учёный степен канд. Ист. Ану. Ташкент. 2011. С.23

shuningdek, 100, 150 rubl miqdorida ijara puli ham olgan. Ruhoniy yordamchisi 750-850 rubl, dyakon 650 rubl maosh olgan²⁰⁰.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, imperiya davrida Turkistonning boshqa viloyatlari kabi Sirdaryo viloyatida ham ta'lim imperiyaning ta'lim siyosati o'lda-jo'lda, tizimsiz tashkil etilgan edi. Imperiya viloyatda rus ta'lini tashkil etish uchun birmuncha harakat qilganligi ayonlashadi, lekin turli sabablarga (ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-etnik) ko'ra bu siyosat imperiyaning oxirgi yillarigacha ham tartibga solinmadi.

Imperiya ma'muriyati ko'chib kelgan aholi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarni qondirish maqsadida ibodat uylari, cherkovlar qurish siyosatini yuritdi. Lekin iqtisodiy muammolar sabab uezd markazlaridan tashqari barcha hududlarda cherkovlar mavjud emas edi. Rus qishloq va posyolkalari ayrimlarini hisobga olmaganida faqat ibodat uylari bilan cheklangan edi.

3.2. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatidagi sog'liqni saqlash tizimidagi siyosati.

Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasida joylashtirilgan harbiy qismlar va yangi tashkil etilgan shaharlar, aholi markazlarida tibbiy holatni nazorat qilish, ko'chib kelgan va mahalliy aholi orasida turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish maqsadida zamonaviy tibbiyot muassasalari tashkil etila boshlandi. 1867 yildan e'tiboran Sirdaryo viloyatining yirik shaharlarida rusiy zabon va mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun tibbiy punktlar, ambulatoriya va shifoxonalar, barpo etish masalasi kun tartibiga qo'yildi.

Turkistonda Rossiya imperiyasiga qadar mahalliy aholi an'anaviy tibbiyotga murojaat qilganlar. Rossiya imperiyasi Sirdaryo viloyatini tashkil etganidan so'ng, ko'chirilgan hamda mahalliy aholi sog'lig'ini saqlash, ushbu sohada zamonaviy tibbiyotni joriy qilish uchun imkon qadar choralarni ko'rdi. Chunki birinchidan, ko'chib kelgan aholini tibbiy himoyalash muhim bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy

²⁰⁰ o'sha joyda. B.23

aholi tayyor kuchi kuchi sifatida ular sog‘lig‘ini himoyalash muhim ahamiyat kasb etar edi.

Sirdaryo viloyati markazi Toshkent shahrida 1868 yildan dastlabki tibbiy muassasalarga asos solindi. 1868 yilda ochilgan dastlabki tibbiy muassasa harbiy xizmatchilarga tibbiy yordam ko‘rsatgan va harbiy lazareti deb nomlangan. 1870 yildan 415 o‘ringa mo‘ljallangan harbiy gospitalga aylantirilgan²⁰¹. Bunda mahalliy aholi ham davolangan va xarajatlar Toshkent shahar dumasi tomonidan qoplangan.

1880 yillardan Turkistonda dastlabki shifoxonalar ochila boshlandi. O‘sha davr sharoiti va aholi mentalitetidan kelib chiqib ayollar, bolalar, erkaklar shifoxonalari ochilgan. Toshkentda 1883 yilda dastlabki ayollar va bolalar shifoxonasi ochilgan. Ushbu shifoxonada 1883 yildan 1893 yilgacha 10 yil davomida 24747 nafar bemor murojaat qilganligi mahalliy aholining ham tibbiy xizmatdan foydalanishi oshganligini ko‘rsatadi. Lekin dastlabki davrlarda mahalliy aholi vakillari, ayniqsa, xotin-qizlarning rus tibbiyotidan foydalanish darajasi past darajada bo‘lgan edi. Sababi, ularni oila boshliqlari g‘ayriddin, ayniqsa erkak vrachlar qabuliga qo‘ymasligi masalasi yuqori bo‘lgan. Ayollar juda og‘ir ahvolda, o‘limga rozi bo‘lsalarda, erkak vrachlarga murojaat qilmaganlar. Keyinchalik alohida ayollar kasalxonalarining ochilishi, ularda ayol vrachlarning faoliyat ko‘rsatishi natijasida mahalliy aholi xotin-qizlari ham shifoxonalarga borishi ulushi oshib borgan. Bemor xotin-qizlarga, bolalarga bepul xizmat ko‘rsatilgan²⁰².

Bundan tashqari Toshkentda 1880 yilda tashkil etilgan ayollar tug‘ruqxonasi mahalliy aholi ayollariga beminnat xizmat ko‘rsatgan. Bu Turkistondagi yagona tug‘ruqxona bo‘lib, 7 ta o‘ringa mo‘ljallangan edi. 1906 yildan yangi tug‘ruqxona qurilishi natijasida bu soha bir muncha rivojlangan²⁰³.

1886 yil 12 iyunda tasdiqlangan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”ga asosan 14 ta uezdda uezd shifokori lavozimi ta’sis etilishi mintaqada sog‘liqni saqlash tizimi shakllanishining asosiy bosqichlaridan biri bo‘ldi.

²⁰¹ Шадманова С.Б. Туркистонда замонавий тиббиётнинг ибтидоси // uzanalitcs.com, 2020 йил, апрел, 1-бет.

²⁰² Переселенческое дело в Туркестанском крае (области Сырдарьинская и Ферганская) – Спб. 1911. С.110

²⁰³ Обзор Сырдарьинской области за 1910 год.-Г.Ташкент,1912.-С.178.

SHunga asosan 1886 yil 30 sentyabrda – “Sirdaryo viloyati shahar kasalxonalari to‘g‘risidagi Nizom” qabul qilinib, viloyatning qator shaharlarida shifoxonalar tashkil etila boshlangan²⁰⁴. Bu shifoxonalarda o‘tkir va surunkali kasalliklarga chalingan mahalliy va rusiyzabon aholi qabul qilinib, ular tibbiy muolajalar qilingan.

1883-1892 yillarda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, keyinnchalik 1906-1908 yillarda Turkiston general-gubernatori, Rossiya imperiyasidan rusiyzabon aholini ko‘chirish siyosati tashabbuskori N.I.Grodekov tashabbusi bilan Sirdaryo viloyatining Toshkent, Avliyoota, Chimkent, Perovsk, Kazalinsk uездlarida uезд shifoxonalari hamda uезд vrachi lavozimlari ta’sis etildi. Nizomga asosan, uезд shifokoriga 1500 rubl, uning tarjimoniga 180 rubl va uезд feldsheriga 360 rubl yillik ish haqi belgilandi. Bundan tashqari, 1906 yilgacha uезд shifokoriga uning sud-tibbiyot ekspertizalarini o‘tkazish uchun qilinadigan safar xarajatlari uchun yillik 300 rubl qo‘shimcha ish haqi to‘langan²⁰⁵.

1900 yilga kelib Toshkentning Beshyog‘och qismida mahalliy ayollar va bolalarga xizmat ko‘rsatish maqsadida ikkinchi shifoxona ochilgan. Ba’zi bir sabablarga ko‘ra, 1904 yilda ushbu shifoxona shaharning SHayxontohur qismiga ko‘chirilgan.

1886 yilda Toshkentning Qatortarak mahallasida Muhammad YUsuf Mulla Ziyodov xonadonida ochiladi. Ushbu shifoxonaga 1886-1899 yillar oralig‘ida, ya’ni 14 yil davomida 99887 nafar kishi 250372 marta murojaat qilishgan²⁰⁶. Birgina 1907 yilda ushbu shifoxonadan 19980 nafar bemor tibbiy yordam olgan²⁰⁷.

Ushbu tibbiy xizmatlardan foydalanishning mahalliy aholi orasida kengayishiga sabab, asta sekinlik bilan amaliyotda ma’lum bir kasalliklarning tuzalishi, ayollar va bolalarga bepul tibbiy yordam ko‘rsatilishi, vrachlardan maslahat olish va dori retsepti yozishga bor yo‘g‘i 20 kop. olinishi edi. Lekin, mahalliy aholi uchun ochilgan ambulatoriyalar tibbiy-sanitariya ahvoli, dori-

²⁰⁴ O‘zMA, I-17-fond, 1-ro‘yxat, 2864 yig‘ma jild, 33-34-varaqlar.

²⁰⁵ Спектор. Медицинское дело в крае. Ташкентский курьер. 1908. №18 // Туркестанский сборник. Т.478. – С. 109-110.

²⁰⁶ Успехи русской медицины среди туземцев// Туркестанский курьер.-1909.-№172, 173.

²⁰⁷ Статистический обзор Сырдаринской области за 1905 год.-Г.Ташкент,1908.-С.132-133.

darmon, koykalar bilan ta'minlanishi qoniqarsiz ahvolda bo'lgan edi. Tibbiy binolar loysuvoq, pastqam uylarda, budkalarda joylashgan.

Bu davrda 15000 mingdan ziyod aholisi bo'lgan Toshkentning eski shahar qismidagi uchta shifoxonada hammasi bo'lib davolanish uchun 30 ta o'rin mavjud bo'lgan²⁰⁸.

Toshkent shahrida 1891 yilda difteriyani davolash uchun shahar shifoxonasi ochilgan. Bu 1892 yilda vabo tarqalgach, vabo bo'limi, keyinchalik yuqumli kasalliklar bo'limiga aylantirilgan. 1898 yilda Toshkentning yangi shahar qismi Jukovskiy ko'chasida kasalxona turidagi birinchi bino qurilgan. Unda 95 nafar kasallar bir vaqtda davolanish mumkin bo'lgan. Bunda terapevtik, jarrohlik, ayollar, bolalar va yuqumli kasalliklar bo'limi ishlab turgan. Kasalxona Toshkent shahar dumasi tomonidan moliyalangan.

Turkistonda mahalliy aholi orasida bezgak, vabo, buqoq, teri va boshqa yuqumli kasalliklar vaqti vaqti bilan tarqalib turgan. Bu juda katta ofatlarni keltirib chiqargan. Bu davlat tomonidan himoyalaniib, katta mayulag' ajratilib, ko'plab emlashlar o'tkazilib turilgan.

XIX asrning 90-yillari boshlarida Turkiston viloyatlaridagi tibbiy xodimlar soni tahlil qilinganda, Turkistonning markaziy uchta viloyatida hammasi bo'lib 25 nafar shifokor, 60 nafar feldsher borligi, shuningdek, Sirdaryo viloyatida 135500 kishiga, Samarqand viloyatida – 97100 kishiga, Farg'ona viloyatida – 100000 kishiga bir nafar shifokor to'g'ri kelgan²⁰⁹. Bunda Sirdaryo viloyatida tibbiy ahvol boshqa viloyatlarga qaraganda birmuncha og'irligi ko'zga tashlanadi. Sirdaryo viloyatida dori-darmon va tibbiy uskunalar uchun sarflangan xarajatlarga e'tibor bersak, masalan, 1891 yilda Sirdaryo viloyatida dori darmon uchun 7354.0 rub. 63 kop. miqdorida mablag' ajratilgan. Bundan Toshkent aholisiga bepul tarqatilgan 5045 rub. hisobga olinsa, uezdlarda 33327 bemorni davolash uchun 2309 rub. 63 kop., ya'ni bir bemor uchun 6,9 kop. sarflangani ayon bo'ladi²¹⁰. Bu esa Rossiya imperiyasining Turkistondagi tibbiy sohadagi siyosati birmuncha zaifligini, buni

²⁰⁸ Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер.-1909.-№172,173.

²⁰⁹ Васильев Н. Наша общая беда и как помочь ей // Окраина. – 1895. – № 61, 62.

²¹⁰ Васильев Н. Наша общая беда и как помочь ей // Окраина. – 1895. – № 61, 62.

boshqa davlatlar emas, balki Rossiya markazidagi boshqa guberniyalardan ham birmuncha pastligini ko'rsatadi.

Mahalliy aholini rus tibbiyotiga ishonchi orta borib yangi tashkil etilgan shifoxonalarga murojaat etgan bemorlar soni yillar kesimida oshib borgan. Lekin, mahalliy, an'anaviy tibbiyotga ishonish va unga murojaat qilish xollari ham saqlanib qolgan.

Toshkent shahar ambulatoriya vrachi A.L.Shvarsning ma'lumoticha, 1897 yildan 1908 yilgacha, ya'ni bir yil davomida Toshkentning «eski shahar» barcha davolash muassasalari 531.435 nafar bemor qabul qilgan bo'lsa, shundan 221 nafari o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'rgan bemorlar, jumladan, 21 nafar chechak, 50 nafar ichburug', 123 nafar qizamiq, 27 nafar skarlatina bilan kasallanganlar murojaat qilishgan²¹¹. Toshkent shahrida bu davrda turli epidemiyalar, ya'ni, 1890 yilda ichburug', 1898 yilda skarlatina va 1901 yilda chechak epidemiyalari juda katta tibbiy buxronni keltirib chiqargan. Lekin shunga qaramay bu epidemiyalar davrida ham tibbiy yordam so'rab murojaat qilganlar mahalliy aholi orasida kamchilikni tashkil qilgan.

Mahalliy aholi suyak chiqishi va sinishi bilan bog'liq kasalliklarda mahalliy tabiblarga murojaat qilib, rus zamonaviy tibbiyotiga kamdan kam hollarda murojaat qilishgan. A.L.Shvarsning ta'kidlashicha, zamonaviy rus meditsinasi suyak sinishi va chiqishini davolashda mahalliy aholining ishonchini qozona olmagan. 1883 yildan 1894 yilgacha, ya'ni 10 yil ichida Toshkent «eski shahar»dagi shifoxonaga jami 100 kishi suyak sinishi va chiqishini davolash bo'yicha murojaat qilgan, ya'ni yiliga 10 kishi murojaat qilganligi ayon bo'ladi. 150 ming nafar aholisi bo'lgan Toshkentning «eski shahar» qismi uchun bu juda oz miqdorni tashkil etadi. Bu borada rus shifokorlariga tabiblar, mahalliy suyak soluvchilar raqobatdosh bo'lgan. Ba'zi bir xollarda mahalliy aholi oxirgi ilinij sifatida jarrohlik stollariga yotishgan va rus tibbiyoti og'ir jarrohlik operatsiyalari bo'yicha mahalliy aholi ishonchini birmuncha qozona olgan edi.

²¹¹ Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. – 1909. – № 172, 173.

Turkistonda xususan, Sirdaryo viloyatida davlat shifoxonalaridan tashqari xususiy, shaxsiy shifoxonalar ham mavjudligi manbalardan ma'lum. Bu shifoxonalar ham amaldagi tibbiyot qonun-qoidalari asosida faoliyat yuritgan. Manbalarda tibbiyot doktori M.I.Slonim va vrach S.I.Slonimlarning xususiy shifoxonasi namunali, barcha tibbiy talablarga javob berganligi ko'rsatilgan. Uning 1909 yilda Toshkent shahrida ochilgan shifoxonasida 12 koyka (o'rin) bo'lgan. Ushbu yilda xususiy shifoxonaga 9175 nafar bemor yotib davolangan. Davolanish xarajatlari kasallikka qarab belgilangan hamda bir sutkaga 4 rubldan ortiq mablag'ni tashkil qilgan. Murojaat qilgan bemorlar tibbiy maslahat uchun 50 kop. miqdorida pul to'lagan. Xususiy shifoxonada (gidroterapiya) suvli muolaja oyiga 15 dan 30 rublgacha bo'lgan. Muolajaning bu turi bilan 380 nafar kishi davolangan, bunda murojaat qilganlar soni esa 7600 nafarni tashkil etgan²¹². Bunda davolanuvchilar nafaqat Toshkent shahri ning aholisi balki boshqa viloyat aholisi ham murojaat qilishgan.

Viloyatda yildan yilga xususiy shifoxonalar soni oshib borgan. 1913 yilga kelib Sirdaryo viloyati markazi hamda uezd va shaharlarida xususiy shifoxonalar soni 10 tadan oshadi. Bulardan turli kasalliklarga mo'ljallangan M.Slonim shifoxonasi, Toshkent shahar turli dorixonalar qoshidagi xususiy shifoxonalari, vrach Rozenbaum tish kasalliklari xususiy shifoxonasi va turli xususiy tug'ruqxonalar hamda, Chimkent, Avliyoota, Turkiston shaharlari markazidagi xususiy shifoxonalarni sanash mumkin. Bu shifoxonalarda barcha muolajalar pullik bo'lib, faqat ayrim davrlarda aholini davolash uchun xayriya ishlari amalga oshirilgan va sayyor qabullar ham tashkil etilgan. Bu shifokorlar tomonidan nafaqat Toshkent shahrida balki boshqa viloyat markazlarida ham vaqti vaqti bilan tibbiy sayyor qabullar tashkil etilgan.

Yuqoridagi shifoxonalardan ko'proq ko'chib kelgan aholi qatlami foydalanib, u yoki bu sabablarga ko'ra mahalliy aholi XIX asr oxirigacha tibbiy yordam ko'rsatish tizimidan chetda qolgan edi.

XX asr boshlariga kelib Sirdaryo viloyatida hammasi bo'lib 15 ta davlat shifoxona punktlari bo'lgan²¹³. Taqqoslash uchun XX asrning boshida Samarqand

²¹² O'zMA, I-17 fond, 1-ro'yxat, 22311-yig'ma jild, 16-varaq.

²¹³ Обзор Сырдарьинской области за 1891 год. – Ташкент, 1893. – С. 171.

viloyatida 11 ta, Farg‘ona viloyatida 9 ta ambulatoriya punktlari bo‘lgan²¹⁴. Rus shifokorlari mavjud mahalliy tillarni bilmasligi va tarjimonlarni yo‘qligi mahalliy aholiga tibbiy yordam ko‘rsatishni qiyinlashtirgan. Aholi kasalligini imo-ishora bilan tushuntirgan.

1905 yilda Sirdaryo viloyatida 15 ta davolash muassasalari (kasalxona) bo‘lib, ular shahar kasalxonasi, ayollar davolash punkti kabilar edi. 1904 yilda 7 ta kasalxonadagi Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Kazalinsk, Perovsk kasalxonalari-diss...) koykalar soni 150 ta bo‘lgan. 1905 yilda ushbu kasalxonalarda 2950 nafar bemor murojaat qilgan. O‘sha yili viloyat bo‘yicha 105.600 nafar bemor vrach va feldsherlardan tibbiy yordam olgan.

1905 yil 26 dekabrda Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona oblastlarida uchastka shifokorlari lavozimi ta’sis etilib, oltitadan yotoq o‘rniga ega bo‘lgan 44 ta qishloq vrachlik uchastkalari tashkil etilgan. Har bir uchastkaga bir nafardan feldsher va ayol feldsher-akusherlar biriktirilgan. Uchastka vrachining moddiy ta’minoti yillik 2200 rubl, uchastka feldsheri – yillik 408 rubl, uchastka feldsher ayoli –yillik 722 rubl etib belgilangan. Shuningdek, uchastka shifoxonalarining har biri uchun 2900 rubl miqdorida tibbiyot va xo‘jalik ashyolari sotib olingan. Doridarmon va bog‘lovchi materiallar uchun belgilangan tartibda har bir tibbiy yordam so‘rab murojaat qiluvchiga 5 tiyindan ajratilgan²¹⁵.

XIX asrning so‘nggi choragida Turkiston o‘lkasida tabiblar tomonidan turli kasalliklarni davolashda qo‘llanib kelingan, tabiat ne‘matlaridan tayyorlangan dori-darmonlar bilan birgalikda Evropa dorishunosligida foydalanilayotgan dori vositalari ham qo‘llana boshlandi.

Turkistonda dorixona ochish va dorishunoslik faoliyati Ichki ishlar vazirligi tomonidan 1872 yil 10 fevralda tasdiqlangan Dorixona ochish tartib-qoidalari to‘g‘risidagi Nizom asosida tartibga solingan²¹⁶.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Sirdaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatgan barcha dorixonalar evropa millatiga mansub dorishunos tadbirkorlar tomonidan

²¹⁴ Адрес-справочник Туркестанского края. – Ташкент, 1910. – С. 133.

²¹⁵ А.А.Бадалов Фарғона областида соғлиқни сақлаш тизими ва ундаги ўзгаришлар: Тарихий таҳлил. (XIX asr oxiri-XX asr boshlari). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори автореферати, Андижон 2023 йил, 24 б.

²¹⁶ О‘зМА, I-1-fond, 1-ro‘uxat, 680-yig‘ma jild, 6-7-varaqlar.

tashkil etilgan. Umuman, farmatsevtika sohasida faoliyat ko'rsatgan barcha xodimlar –dorixona egalari, boshqaruvchilari, dorishunoslik bo'yicha amaliyotchi-o'quvchilar orasida mahalliy aholi vakillari bo'lmagan.

Dori-darmonlar Rossiya va chet el firmalari orqali etkazib berilgan, ular narx-navosi yuqori bo'lganligi uchun oddiy aholi foydalanishi qiyin edi. Yirik shaharlarda jumladan, Toshkent, Chimkent, Avliyoota, Kazalinsk, Perovskda narxi arzonlashtirilgan dori darmonlar sotadigan dorixonalar ochilgan²¹⁷. Yillar davomida asta-sekinlik bilan bo'lsada, viloyatda vrachlar soni oshib borgan. Ayniqsa, harbiy qismlarda vrach va feldsher, akusherlarga talab katta bo'lganligi sababli ular soni ko'payganligi kuzatiladi. Ular rusiyzabon fuqarolar va tub-joy aholini ham pandemiyalar davrida davolashda ishtirok etishgan.

Arxiv manbalaridan birida rus posyolkalari aholisi va bolalar orasida tarqalgan kasalliklardan vabo, tif, Sibir yarasi, shamollash, astma kabilar (12 ta kasallik turi-diss...) qayd etib o'tilgan²¹⁸. Yuqorida harbiy vrachlarga oddiy fuqarolar murojaat etganligi qayd etilgandi. 1892-1893 yillarda Toshkentdagi kasalxonada harbiy vrachlarga 130 nafar harbiylar, 301 nafar fuqarolar murojaat qilgan. Kasallanganlardan vaboga chalinganlarning 60 foizi, boshqa kasalliklarga chalinganlardan 10 foizi vafot etgan²¹⁹.

Kazalinsk uezdida 1867 yilda harbiy qism qoshidagi birinchi tibbiy lazaret tashkil etilgan. Bunda faqat og'ir kasallar muolaja qilingan. Bir yilga lazaret xarajatlari uchun bemorlarning aksariyatini teri-tanosil, venerik, oshqozon-ichak kasalliklari bilan kasallanganlar tashkil etgan. Uezdda 1886 yil 12 iyuddagi "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom"ga asosan uezd vrachi lavozimi joriy etilgan. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.Grodekov tashabbusi bilan pishgan g'ishtdan qurilgan 6 xonadan iborat juda chiroyli yuqumli va boshqa kasalliklar statsionar ambulatoriyasi quriladi. Tibbiy ambulatoriyaga bir yillik davlat xarajati 1500 rublni tashkil etgan²²⁰. 1907 yildan boshlab Kazalinskda

²¹⁷ O'zMA, I-1-fond, 1-ro'yxat, 5556-yig'ma jild, 18,19-varaqlar.

²¹⁸ O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 2552-yig'ma jild, 172-varaq, 172-varaqning orqasi

²¹⁹ O'zMA, I-19-fond, 1-ro'yxat, 2552-yig'ma jild, 175-varaq.

²²⁰ Добромыслов А.И. Города Сырдаринской области. Исторический очерк. Ташкент, 1912, -С.35.

tibbiyot uchun ajratmalar kengayadi 4361 rublga etadi. Bunda bosh vrach, feldsher, akusher-ginekolog, terapevt shtatlari joriy etiladi.

Perovsk uezdida dastlabki tibbiy muassaslar 1868 ochilgan edi. Dastlab harbiy yarim gosptial, lazaret sifatida tashkil etiladi. Bu davrda uezd vrachi yillik 360 rubl, uezd feldsheri 340 rubl ish haqi olgan. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.Grodekov tashabbusi asosida Kazalinsk dagi kabi 1886-1887 yillarda pishgan g'ishtdan yuqumli va boshqa kasalliklar statsionar ambulatoriyasi quriladi.

1906 yil 15 iyunda keng profilli davolash shifoxonasi ochiladi. Bunda 1907 yilda 13 nafar, 1908 yil 57 nafar, 1909 yilda 78 nafar kishi yotib davolangan. Shifoxonaga 1906 yilda 1350 nafar, 1909 yilda 4626 nafar kishi statsionar murojat qilgan. Bu murojatchilar shifoxonaga maslahat va davolash uchun 5 kop. miqdorida pul to'laganlar. Uezdda 1907 yil 19 avgustda 49 o'rindan iborat ruxiy kasalliklar ambulatoriyasi tashkil etiladi. Bunda 42 ta o'rin ruxiy kasallar, 7 o'rin kichik unvondagi harbiylar uchun edi²²¹. 1902 yildan uezdda xususiy dorixona ochiladi. Lekin dorixonalar tarmog'i unchalik rivojlanmadi. Dorixonalarda emlash dorilarining taqchilligi, borlari ham qimmatligi, oddiy aholining bu dorilarni olishga qurbi etmasligi kabi sabablar mavjud edi.

Turkiston shahrida 1872 yilda dastlabki harbiylar lazaret tibbiy qismi tashkil etiladi. Bu erda Turkiston uezd varchi va feldsher xizmati mavjud edi. Ushbu tibbiy qism uchun davlat mablag'laridan 200 rubl ajratilgan. 1887 yildan boshlab bu erda shahar vrachi, terapevt, akusher, feldsherlar shtatlari qo'shiladi. Bu davrga kelib bu tibbiy ambulatoriya uchun davlat xarajatlari 6000 rublga etadi. Unda bir yilda, 1911 yilda 16000 nafar kishi shifokorlarga murojaat qilgan, 116 nafar og'ir kasal yotib davolangan edi²²². Bu davrda Toshkent Orenburg temir yo'lining Turkiston stansiyasida ham mo'jazgina statsionar tibbiy qism mavjud edi. Bu tibbiy qism 9 o'rindan iborat bo'lib, bunda har doim ham vrachlar o'z joyida bo'lmasdi. Bir yilda ushbu tibbiy qismda doimo 3-4 vrach almashib turgan. Ushbu

²²¹ o'sha joyda. B.99.

²²² Добромислов А.И. Города Сырдаринской области. Исторический очерк. Тошкент, 1912, -С.153.

uezd shahrida dastlabki xususiy dorixona 1905 yilda Shumel Aronovich Baronov tomonidan ochilgan edi.

Sirdaryo viloyatining Avliyoota uezdida 1868 yilda harbiy lazaret ambulatoriya faoliyati tashkil etiladi. 1890 yillarga kelib Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori tashabbusiga ko'ra, 15 o'rindan iborat statsionar davolash tibbiy qismi va uезд vrachligi joriy etiladi. 1907 yildan shahar vrachi, akusher, feldsher, terapevt, emlovchi vrach shtatlari joriy etilgan. 1910 yil hisobiga ushbu shifohonaga 8000 nafar kishi murojat qilgan va tibbiy maslahatlar olgan. 73 nafar og'ir bemor yotib davolangan²²³. Xususiy dorixonalar soni ikkita bo'lib ular 1895 yildan faoliyatini boshlagan.

Chimkent uezdida dastlabki harbiy yarim gospital lazaret 1868 yilda tashkil etilgan edi. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.Grodekov tashabbusi bilan ushbu uezdda ham 1886-1887 yillarda pishgan g'ishtdan 5 o'rinli yuqumli va boshqa kasalliklar statsionar ambulatoriyasi quriladi. 1907 yildan boshlab tibbiy shtatlar kengayib bosh vrach, feldsher, akusher, terapevtlar faoliyat ko'rsatgan. Chimkent markazida 2 ta xususiy dorixona mavjud bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, rus manzilgohlaridagi aholiga sog'liqni saqlash borasida xizmat ko'rsatish jarayonida bir qator muammolar mavjud edi: Birinchidan, tibbiyot xodimlari etishmasligi, ikkinchidan, tibbiyot muassasalarining binolari yog'och budkalar, kichik baraklar, somon-suvoq uylarda joylashganligi, uchinchidan, esa dori-darmonlarni o'z vaqtida etkazib berilmasligi, to'rtinchidan, posyolkalarda, ayniqsa, shahar markazlarida sanitariya-gigiena holati nochorligi va hakovolarni qayd etib o'tish mumkin²²⁴. Imperiya ma'murlari rus tibbiyot xodimlarini moddiy imkoniyatlarini oshirish orqali rus posyolkalariga ishlashga yo'naltirgan. Turkistonning barcha viloyatlarida vrachlarning 1910-1912 yillarda 1 yillik ish haqi 2400 rublgacha ko'tarilgan edi. Ko'rsatilgan yillarda bitta feldsherlik punktiga davlat 1.500 rubl harajat qilgan. Qishloq va posyolkalarga o'z uyidan qatnab kelib ishlaydigan feldsher 720 rubl, oilaviy kvartirada ijarada turib

²²³ o'sha joyda. B.173.

²²⁴ Равшанов Ш.Р. Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини кўчириш сиёсати. (XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси, Бухоро, 2023 йил, 145 бет.

ishlaydigan feldsher 600 rubl maosh olgan. Bunday feldsherlar etishmasdi, shu sababli ularga 250 rubl kvartira haqi, 100 rubl oziq-ovqat puli ham berilgan²²⁵.

Xulosa o'rnida ta'kidlash kerakki, Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Sirdaryo viloyatida ham ko'chirilgan aholining tibbiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi.

Xullas, imperiya hukumati yillarida zamonaviy tibbiyotni joriy etish va aholini davolash sohasida ko'pgina muammolar bartaraf etilmadi. Rus ko'chirilgan dehqonlari ham yuqumli kasalliklardan qiynalganini tarixiy dalillar isbotlaydi.

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi vrach va feldsherlarni safarbar qilish, kasalxona, dorixona (apteka), ambulatoriyalar ochish, aholiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq sezilarli amaliy qadamlar qo'yildi. Biroq, Rossiya imperiyasi hukumatining ijtimoiy siyosati kutilgan natijalarni bermadi.

Rossiya imperiyasining Turkistonga, xususan Sirdaryo viloyatiga rusiyzabon aholini ko'chirish siyosati asnosida mahalliy aholining ta'lim siyosatida ham bir qator jiddiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Asrlar davomida bunyod etilgan, va mustahkam ma'naviy asosga ega, juda ko'plab olimu-allomalar shu maktab ta'limi asosida dunyoga tanilgan ta'lim tizimiga putur etkazildi.

Turkiston o'lkasi bosib olinib, rus ma'muriy-boshqaruv tizimi o'rnatilgach, o'rta va oliy tabaqa ruhoniylarning milliy vatanparvarlik kayfiyatdagi ko'plab vakillari qatag'on qilindi. Madrasa binolari maxfiy ravishda kazarma va harbiy omborlarga aylantirildi.

Islomga va musulmon muassasalariga bepisand munosabatda bo'lish yo'lini rasmiy ravishda e'lon qilgan mustamlakachi ma'muriyat aslida vaqf mulkini musodara etish orqali masjid, maktab va madrasalarni moddiy mablag'dan mahrum etdi. SHuningdek, mahalliy din vakillarining ta'sirini susaytirishga va xalq ichidagi obro'li, taniqli kishilarni ko'pini o'z tomoniga og'dirish orqali bu o'lkada boshqaruvni yo'lga qo'yishga, mavjud musulmon o'quv yurtlari faoliyatini cheklab, ularning o'quv dasturiga rus tili, Rossiya tarixi va geografiyasini

²²⁵ Наша колонизация Средней Азии (Русские посёлки в Туркестан)//Туркестанский сборник. Том.429.- С.250; Статистический обзор Ферганский области за 1913 год.-Г.Скобелев,1915.-С.16.

kiritishga, maktablarda esa rus madhiyasini (hatto yangi usul maktablarida podshoning rasmini osib qo'yishga erishdilar-diss...) ham kiritishga urinildi.

Lekin shu narsani tan olish kerakki, bu davrga kelib xonliklar o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar, urushlar natijasida ta'lim tizimida ham birmuncha tushkunlikka yuz tutgan edi. Lekin Rossiya imperiyasi ham Turkiston o'lkasida ta'lim siyosatini joriy qilishga harakat qildi. Bu davrda ko'chib kelganlar va mahalliy aholi bolalariga mo'ljallangan turli maktablarga, jumladan, cherkov qoshidagi prihod maktablari, 1-2-3 sinfli erkaklar va xotin qizlar bilim yurtlari, temir yo'l va kasb-hunar maktablari, rus-tuzem maktablari ochishga kirishib ketdilar. Lekin bu davrda Rossiya imperiyasining iqtisodiy ahvoli maktablar qurish, uning moddiy ta'minoti, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, ularga oylik ajratish kabilarni ko'tarmas edi. Chunki maktablar ijara binolarda joylashgan, binolarning ahvoli talab darajasida emas, o'quv qurollari etishmas, o'qituvchilar etishmas, maktablar va bilim yurtlari faoliyati tizimli tashkil etilmagan edi.

Viloyatda rus dehqonlari mustahkam o'rnashib qolishi uchun cherkov va ibodat uylari barpo etildi, ushbu diniy muassasalar, ular qoshidagi o'quv muassasalari kadrlar bilan ta'minlanishiga e'tibor qaratildi. Ko'chirilgan rusiyzabon aholining bolalarini turli pog'onadagi o'quv yurtlariga jalb etish vazifalari bajarilishi yo'lida imkon qadar chora-tadbirlar ko'rildi va davlat tomonidan ko'plab mablag'lar ajratildi. Lekin tadqiqotda bu qo'yilgan vazifalar bajarilmaganligini yoki o'zini oqlamaganligini ko'rish mumkin.

Viloyatda sog'liqni saqlash sohasidagi vrach va feldsherlarni safarbar qilish, kasalxona, dorixona (apteka), ambulatoriyalar ochish, aholiga zamonaviy tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq sezilarli amaliy qadamlar qo'yildi. Biroq, Rossiya imperiyasi hukumatining ijtimoiy siyosati kutilgan natijalarni bermadi. Sirdaryo viloyatidagi dehqon aholi orasida savodsizlar yuqori foizni tashkil etgan holda tibbiy xodimlar ham etarli emasdi.

Ta'kidlash kerakki, Rossiya imperiyasi hukumati butun Turkiston o'lkasining barcha viloyatlari qatorida Sirdaryo viloyatida ham ko'chirilgan aholining

ma'naviy-ruhiy, ma'rifiy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlarni ko'rdi.

Tadqiqotda amin bo'lindiki, diniy, ma'naviy va ma'rifiy ehtiyojlarni qondirish borasidagi tadbirlar qoniqarli emasdi. Sirdaryo viloyatida rus posyolkalari vujudga kelishi bilan ularda tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish uchun vrach va feldsherlar safarbar qilindi. Tadqiqotda vrachlik qabul punktlari vujudga kelganligi, vrach va feldsherlarning faoliyati masalalarini tahlil qilishda aniqlandiki, vrach va feldsher etishmagan, barcha kasalliklar bo'yicha mutaxassislarni jalb etish imkoni bo'lmagan. Viloyatda faoliyat yuritgan tibbiyot xodimlari soni aholi soniga nomutanosib bo'lgan. Ular asosan shamollash, tish og'rig'i, dorishunos, feldsher, akusherlar bo'lib, ayrim feldsherlik binolari ijara uylarda, palatka va mozainkalarda joylashgan.

Ta'kidlash joizki, rus manzilgohlaridagi aholiga sog'liqni saqlash borasida xizmat ko'rsatish jarayonida bir qator muammolar mavjud edi: Birinchidan, tibbiyot xodimlari etishmasligi, ikkinchidan, tibbiyot muassasalarining binolari talabga javob bermasligi, uchinchidan, esa dori-darmonlarni o'z vaqtida etkazib berilmasligi, to'rtinchidan, posyolkalarda, ayniqsa, shahar markazlarida sanitariya-gigiena holati nochorligi va hakozolarni qayd etib o'tish mumkin. Imperiya ma'murlari rus tibbiyot xodimlarini moddiy imkoniyatlarini oshirish orqali rus posyolkalariga ishlashga yo'naltirdi. Lekin shu masalani ta'kidlash kerakki, Rus boshqaruvi orqali zamonaviy tibbiyotning kirib kelishi mahalliy aholi sog'lig'i, turli epidemiya va kasalliklarga emlash, ilgari nomalum bo'lgan kasallik choralari topilganligi va tibbiy sohadagi yangiliklar, rus tibbiyoti bilan mahalliy tibbiyotning birgalikda qo'llanilishi, Turkiston o'lkasida tibbiy sohadagi ijobiy o'zgarishlarga asos bo'lgan edi.

Xulosa

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati va uning oqibatlari mavzusidagi monografiya yuzasidan, quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Rossiya imperiyasi chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan, aholining ko‘psonliligini hamda islomning xalqlarni birlashtiruvchilik rolini, shuningdek Turkistonning tabiiy boyliklarini, ishlab chiqarish va mehnat salohiyatini hisobga olib, imperiyaning o‘lkani istilo qilishdan ancha oldinroq, bo‘ljak mustamlakaga son jihatdan ko‘p, siyosiy jihatdan ishonchli, asosan pravoslav e’tiqodga ega bo‘lgan aholini ko‘chirishni Rossiyaning imperiyacha hukmronligini qaror toptirish va saqlashning hamda mahalliy aholining mustamlakachilikka qarshi chiqishlariga yo‘l qo‘ymaslikning muhim sharti deb hisoblagan edi. Rossiya hukmron doiralari o‘zlarining boshqa bironta ham mustamlakalarida va qaram mamlakatlarda, Turkistondagi kabi, bosib olingan hududni metropoliyadan ko‘chirib keltirilganlar bilan bu qadar to‘ldirishdek keng ko‘lamdagi siyosatini o‘tkazishmagan;

2. Rossiya imperiyasi uchun Turkiston mintaqasida Sirdaryo viloyati strategik jihatdan qimmatli mintaqaga bo‘lib imperiyaning “SHarq siyosati”da tayanch bo‘lib xizmat qildi, shuningdek, Sirdaryo viloyati rusiyzabon aholini qabul qilish bo‘yicha dastlabki hudud va viloyat sifatida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu hududga Qo‘qon xonligining bir qismini bosib olinishi davridan boshlab, ya’ni 1850 yillardan 1917 yilgacha rusiyzabon aholi ko‘chgan edi. Samarqand viloyatiga 1886 yildan, Farg‘ona viloyatiga 1892 yillardan rusiyzabon aholini qabul qilgan bo‘lsa, Sirdaryo viloyatiga ko‘chirishning turli davrlarida rus aholi ko‘chib o‘tdi;

3. Sirdaryo viloyati rusiyzabon aholini Turkistonga ko‘chishida darvoza vazifasini o‘tadi. CHunki, Rossiya imperiyasidan Turkiston viloyatlariga ko‘chuvchi rusiyzabon aholi Orenburg orqali ruxsatnoma asosida yoki ruxsatsiz, ot-aravalarga ko‘ch-ko‘ronlarini ortgani holda to‘da-to‘da bo‘lib, suv va boshqa zahiralar mavjudligi sababli Sirdaryo bo‘ylab ko‘chib kela boshlagan va Turkistonning boshqa viloyatlariga tarqalgan, shuningdek, mazkur viloyat

Turkiston o'lkasiga rus aholini taqsimlovchi vazifasini o'tagan. Dastlab ko'chib kelgan aholi Sirdaryo bo'ylaridagi shaharlar Perovsk, Kazalinsk, Chimkent, Avliyoota shaharlariga kelishgan. U erdan rusiyzabon aholining Turkistonning boshqa viloyatlariga qayta migratsiyasi (remigratsiyasi) yuz bergan. Sirdaryo viloyatining bosh markazi Toshkent shahri ko'chib keluvchi rusiyzabon aholini qabul qiluvchi va viloyatlarga taqsimlovchi vazifasini bajargan. Toshkent shahrida "Ko'chirish boshqarmasi" huzuridagi "Ko'chirish saroyi" joylashgan edi. Turkistonga ko'chib kelgan aholi ko'chirish saroyidan ruyxatdan, tibbiy qo'riqdan o'tishi, er-joy olishi uchun navbatga yozilishi, vaqtinchalik yashashi belgilangan edi. Bu erdan ruyxatdan o'tgan rusiyzabon aholi qaysi viloyatga borishi, o'z er joyiga ega bo'lishi uchun oylab navbat kutib kerak bo'lgan;

4. Sirdaryo viloyati er zahirasi ko'pligi bois Turkiston viloyatlari ichida eng ko'p rusiyzabon aholini qabul qilgan viloyat hisoblanadi. Sirdaryo viloyatida ko'chirilgan aholining o'rtacha er fondlari Turkiston general-gubernatorligi boshqa viloyatlariga qaraganda ancha yuqori (10-30 desyatinagacha) edi. Shu bois Samarqand viloyatida 29 ta, Farg'ona viloyatida 59 ta rus posyolkalari tashkil etilgan holda Sirdaryo viloyatida 190 ta rus posyolka va qishloqlari tashkil etilib 75000 mingga yaqin rusiyzabon aholini qabul qilgan. Bunda Sirdaryo viloyatining Toshkent, Avliyoota, Chimkent uездlarining ulushi katta bo'ldi;

5. Sirdaryo viloyati Turkiston viloyatlari ichida aholining etnik xilma xilligi bo'yicha yuqori edi. viloyatda 30 dan ziyod tub va ko'chib kelgan etnik aholi istiqomat qilgan. Birgina 1882 yilgacha Avliyoota uездida 5 ta, Toshkent uездida 1 ta mennonit posyolkalari bo'lgan;

6. Sirdaryo viloyati ko'chirish siyosati bo'yicha boshqa viloyatlarga namuna vazifasini o'tagan. 1883-1892 yillarda Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.I.Grodekov ko'chirish siyosati tashabbuskori bo'lgan. U tomonidan ko'chib kelgan aholiga 10 desyatina er-joy, ssuda va qurilish materiallari va joylashib olguncha kerakli bo'lgan narsalar bilan ta'minlashni joriy etilgan. N.I.Grodekov tomonidan ishlab chiqilgan bu ko'rsatma keyinchalik tashkil etilgan Samarqand va Farg'ona viloyatlariga ham joriy qilingan.

7.Sirdaryo viloyatiga ko‘chirilgan dehqonlar xo‘jalikning asosan lalmikor dehqonchilik sohasi bilan shug‘ullanib, donli (boshoqli) ekinlar bug‘doy, arpa, tariq, suli etishtirish bilan shug‘ullanganlar. Ular xo‘jaligida chorvachilikning qoramolchilik, yilqichilik, qo‘y va echki boqish, parrandachilik, cho‘chqachilik sohalari bilan ham shug‘ullanganlar. Erlarning ancha qismini beda va pichanzorlar egallagan. Rus dehqon xo‘jaliklarida o‘sha davrning yangi ekin navlari hisoblangan kartoshka, karam, qand lavlagi, pomidor, baqlajon kabi ekinlar etishtirilgan. Paxtachilik asosan madaniy uezdlar Avliyoota, Chimkent, Toshkent uездlarida etishtirilgan.

8.Sirdaryo viloyati rus posyolkalari va qishloqlaridagi xonadonlar nafaqat Rossiya imperiyasi 30 ga yaqin guberniyalaridan, qolaversa, qo‘shni Kaspiyorti, Farg‘ona, Yettisuv viloyatlaridan ham qayta ko‘chganlar. Sirdaryo viloyatining iqlimi, sharoiti, berilgan imtiyozlar ko‘chib kelganlar uchun qo‘l kelgan. Ular tabiiy sharoitlarga moslashib borib, mahalliy aholi bilan barcha sohalarda madaniy ta’sir jarayonlariga kirishganlar.

Yuqoridagi xulosalar asosida qo‘yidagicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Rossiya imperiyasining Sirdaryo viloyatiga aholini ko‘chirish siyosati, uning o‘ziga xosligi va natijalari bilan bog‘liq fundamental monografiya yaratish.

2. Rossiya imperiyasi davri Sirdaryo viloyatini hududiy-tarixiy jihatdan o‘rganishda qo‘shni mamlakatlar (Qozog‘iston, Qirg‘iziston) bilan shu soha bo‘yicha ilmiy jamoatchiligi bilan hamkorlikda tadqiqotlar olib borish.

3. Rossiya imperiyasining Turkistondagi ko‘chirish siyosati bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi muzey tashkil etish.

4. Sirdaryo viloyati uездlarida tashkil etilgan rus posyolka va qishloqlari xaritasini yaratish.

5. Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq akadem-nashr kitoblar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar tayyorlashda dissertatsiya materiallaridan foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI.

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: “O‘zbekiston” – 2017, 1-jild, 592-bet.
2. Shavkat Mirziyoev. Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T.: “O‘zbekiston” – 2018, 2-jild, 508-bet.
3. Shavkat Mirziyoev. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T.: “O‘zbekiston” – 2019, 3-jild, 400-bet.
4. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi. T.: 2022, 152-bet

II. Arxiv materiallari va hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi fondlari

- 2.1. I-1-fond. Turkiston general-gubernatorigi mahkamasi.
- 2.2. I-7-fond. Turkiston o‘lkasi er va davlat mulklari boshqarmasi.
- 2.3. I-15-fond. Farg‘ona viloyati Chimkent uezdi boshlig‘i boshqarmasi.
- 2.4. I-16. Sirdaryo viloyati ko‘chirish boshqarmasi
- 2.5. I-17- fond. Sirdaryo viloyati boshqarmasi.
- 2.5.I-18- fond. Samarqand viloyati boshqarmasi.
- 2.6. I-19- fond. Farg‘ona viloyati boshqarmasi.
- 2.7. I-34. Toshkent shahri sobor qurilishi uchun xayriya yig‘ish qumitasi.
- 2.8. I-36. Toshkent shahri hokimi devoni.
- 2.9. I-41. Turkiston kon ishlari muxandisi.
- 2.10. I-47. Upravlenie uchebnykh zavedeniy Turkestanskogo kraya.
- 2.11. I-49. Sirdaryo viloyati umumta’lim maktablari inspektori. .
- 2.12. I-119. Rossiya-Xitoy bankining Toshkent filiali.
- 2.13. I-269. Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi.
- 2.14. I-270. Sirdaryo viloyati qamoqxonalar boshqarmasi.
- 2.15. I-450. Sirdaryo viloyati mahalliy aholi boshqaruvi.

2.16. I-715. Polkovnik Serebryannikov tomonidan tuzilgan hujjatlarni nashr etish uchun tayyorlov materiallari “Turkiston o‘lkasi. Uning zabt etilishi tarixi bo‘yicha materiallar to‘plami”.

2.17. I-103- fond. Turkiston qishloq xo‘jaligi jamiyati.

2.18. I-961- fond. Turkiston diniy devonxonasi tarixi. Cherkovlar faoliyati.

3. Manbalar, hujjatlar va statistik ma’lumotlar

3.1. Военно-полевые суды. Отчет Государственной Думы. №70. – СПб. Б.и., 1907. – 219 с.

3.2. Всеподданнейший Отчет министерства народного просвещения за 1901 год. – СПб., 1902.

3.3. Закаспийский областной комитет. Протоколы 2,8 и 9 декабря 1902 г. – Ашхабад, 1902. – 165 с.

3.4. Закон от 10 июня 1881 года. - СПб., 1881.

3.5. Закон от 10 июня 1903 года, Статьи 1-3-5.-СПб., 1903.

3.6. Закон правительствующего Сената Российского империи от 10 июля 1903 года. - СПб., 1903. – 68 с.

7.Записка главного управляющего земледелием и землеустройством А.В.Кривошеина о поездке в Туркестанский край в 1912 г.– СПб., 1912–57 с.

